

ISBN: 978-93-36247-12-4

# FARG'ONA VILOYATI AHOLISINI SUV BILAN TA'MINLASHNI EKOLOGO- GIGIYENIK JIHATLARI

Authors:

ABDUVALIYEVA FERUZAXON  
TULQINDJANOVNA



Published by  
**Novateur Publication**  
466, Sadashiv Peth, M.S.India-411030  
[novateurpublication.org](http://novateurpublication.org)

**FARG‘ONA VILOYATI AHOLISINI SUV BILAN TA’MINLASHNI  
EKOLOGO-GIGIYENIK JIHATLARI**

**Monografiya**

**Tuzuvchi.**

**ABDUVALIYEVA FERUZAXON TULQINDJANOVNA**

**Farg‘ona – 2025**

*Mazkur ilmiy monografiyada aholini markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta'minlashni gigiyenik tamoyillari, suvdan foydalanish holati, mahalliy suv ta'minoti manbalaridan foydalanishga zamonaviy yondoshuvlar, suv omilini aholi salomatligiga ko'rsatadigan ta'sirini o'rghanishni o'ziga xos xususiyatlari, suv resurs potentsialining tahlili va Farg'ona shahar aholisini markazlashtirilgan holda suv bilan ta'minlovchi suv ob'ektlarini sifati, Farg'ona shahar aholisini ichimlik suv ta'minlash manbalarini ekologo-gigiyenik tavsifi, Farg'ona shahar aholisini kasallanish ko'rsatkichlarini iste'mol qilinadigan suv sifati ko'rsatkichlari bilan qiyoslash va aniqlangan bog'liqlikning tahlili, gigiyenik menejment asosida Farg'ona viloyati aholisini ichimlik suv ta'minotini optimallashtirishga ilmiy asoslangan yondoshuvlar bayon etilgan.*

**Bosh muxarrir:**

**Muradimova A.R.** Tibbiyot fanlari bo'yicha PhD. Dotsent

**Taqrizchilar:**

**R.U. Axmadaliyev** Tibbiyot fanlari bo'yicha PhD

**X.O. Mamarizayev** Tibbiyot fanlari bo'yicha PhD

UO'K 614.7-628.1.032(575.121):613.31

**Farg'ona viloyati aholisini suv bilan ta'minlashni ekologo-gigiyenik jihatlari.  
Monografiya / Abduvaliyeva Feruzaxon Tulqindjanovna. 2025. -116 bet**

© F. Abdullaeva. 2025.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH.....</b>	<b>5</b>
<b>I-bob. AHOLINI ICHIMLIK SUVI BILAN TA'MINLASH MANBALARI, ULARNING HOLATINI EKOLOGO-GIGIYENIK BAHOLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI.....</b>	<b>8</b>
§1.1. Aholini markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta'minlashni gigiyenik tamoyillari, suvdan foydalanish holati. Yer osti suvlari sifatini ekologo-gigiyenik baholash.....	8
§1.2. Mahalliy suv ta'minoti manbalaridan foydalanishga zamonaviy yondoshuvlar.....	14
<b>II-bob. AHOLINI SUV BILAN TA'MINLASHNI OPTIMALLASHTIRISHNING EKOLOGO-GIGIYENIK JIHATLARINI BAHOLASH MATERIAL VA USULLARI .....</b>	<b>23</b>
§2.1. Suv manbasini tanlab olishni asoslash va uning tavsifi.....	23
§2.2. Ichimlik suv ta'minoti manbalarida o'tkaziladigan tekshirishlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	26
§2.3. Suv omilini aholi salomatligiga ko'rsatadigan ta'sirini o'rganishni o'ziga xos xususiyatlari.....	30
<b>III-BOB. FARG'ONA VILOYATI HUDUDINING TAVSIFI, GIDROGEOLOGIK TUZILISHI VA ICHIMLIK SUV TA'MINOTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....</b>	<b>32</b>
§3.1. Farg'ona viloyatining qisqacha tavsifi.....	32
§3.2. Suv resurs potentsialining tahlili va Farg'ona viloyatining suv ob'ektlarini sifati.....	33
§3.3. Farg'ona shahri aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash manbalarini ekologo-gigiyenik tavsifi.....	39
<b>IV-bob. FARG'ONA SHAXAR AHOLISINING SALOMATLIGI VA ICHIMLIK SUVINING SIFAT KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI BOG'LILQLIKNING TAHLILI HAMDA TIBBIY-DEMOGRAFIK KO'RSATKICHLARI .....</b>	<b>56</b>

§4.1. Demografik vaziyat va aholi kasallanishi.....	56
§4.2. Aholi salomatligiga suv omilining ta'siri va suvning sifatini o'rghanishga ekologo-gigiyenik yondoshuvlar.....	62
§4.3. Farg'ona shahar aholisini kasallanish ko'rsatkichlarini iste'mol qilinadigan suv sifati ko'rsatkichlari bilan qiyoslash va aniqlangan bog'liqlikning tahlili.....	66
<b>XOTIMA.....</b>	<b>75</b>
<b>XULOSALAR .....</b>	<b>87</b>
<b>AMALIY TAVSIYALAR.....</b>	<b>89</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....</b>	<b>91</b>
<b>SHARTLI BELGILAR VA ATAMALAR RO'YXATI.....</b>	<b>107</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>108</b>

## KIRISH

**Monografiya mavzusining dolzarbliji va zarurati.** Dunyoda so‘nggi yillarda suvdan oqilona foydalanish, uning sifati va xavfsizligini ta’minlash, shuningdek, suv iste’molini hisobga olishning zamonaviy innovatsion tizimlarini joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar qo‘llanilgan holda suvdan foydalanish, suv ta’minoti va yer osti suv manbalaridan samarali foydalanish sohasida qator ishlar bajarilishiga qaramasdan, ayrim xududlarda toza ichimlik suvi muammosi kun sayin saqlanib qolmoqda. Suvdan foydalanishni samarali tartibga solishni ta’minlash uchun suv resurslarini boshqarish bo‘yicha yangi tuzilmalar yaratilgan, ichimlik suvi ta’minoti va suv ishlab chiqarish sohasiga xususiy sektorni jalb qilishda faol ishlar bajarilmoqda, biroq, «....global iqlim o‘zgarishi tufayli ayrim xududlarda yilning issiq, qurg‘ochlik fasllari davomiyligi oshib bormoqda, tog‘larda qor zaxiralari maydoni kamaymoqda, kamsuvlik takrorlanishi tobora ko‘paymoqda, bu esa o‘z navbatida suv tanqisligi kelib chiqish xavfining oshishiga olib keladi....»<sup>1</sup>. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotiga ko‘ra, dunyo aholisining 40% toza ichimlik suvi yetishmaydigan joylarda yashaydi. 2025 yilga kelib, har 10 kishidan 6 nafari yoki 5,5 milliard aholi toza ichimlik suvi tanqis hududda yashashi, yuqumli kasalliklarning 80%dan ortig‘i ichimlik suv sifatining pastligi, sanitariya–gigiyenik qoidalar buzilishlari bilan bog‘liq. Dunyoda qariyb 7 mlrddan ziyod aholining 3 mlrdga yaqini ifloslangan suv iste’mol qilishi va 2 milliardi turli kasalliklarga chalingan. Eng achinarlisi, har kuni dunyoda 6 ming bola iflos suv iste’mol qilganliklari tufayli hayotdan bevaqt vafot etmoqda. Suv ob’ektlaridagi antropogen yuklama va ularni tiklanish qobiliyati o‘rtasidagi muvozanatni buzilishi, ekologik noxushlik barcha yirik suv ob’ektlari uchun amaliy jihatdan xosligi, suv xo‘jaligi ehtiyojlarini yetarli darajada moliyalashtirilmasligi, ichimlik suvi bilan ta’minlash muammosini jiddiy ko‘rinishiga sabab bo‘lmoqda. Yuqorida bayon etilganlar aholini suv bilan ta’minlashni optimallashtirishning

---

<sup>1</sup> BMTning 2019 yildagi suv muammosining baratraf etishga qaratilgan ma’ruzasi

ekologo-gigiyenik jihatlarini baholash profilaktik tibbiyat sohasi xodimlari oldida turgan dolzARB muammolardan biridir.

Jahonda aholini suv bilan ta'minlashni optimallashtirishning ekologo-gigiyenik jihatlarini baholash maqsadida qator ilmiy tadqiqotlar amalgalashirilmoqda. Bu borada yer osti suvlarini hosil bo'lish xususiyatlari va ichimlik suvi nomutanosibligini belgilaydigan ustuvor omillari, aholini yer osti suv manbalaridan ichimlik suvi sifatida foydalanish sharoitlari va suv sifatini ekologo-gigiyenik baholash, aholi salomatlik holati va kasallikni shakllanishida suv omili o'rni va ahamiyati, ichimlik suv ta'minoti muammosi bo'yicha aholidan sotsiologik so'rovnama o'tkazish va so'rovnama tahlili hamda aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash sharoitlarini optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar majmui ishlab chiqish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda tibbiyat sohasini rivojlantirish tibbiy tizimni jahon andozalari talablariga moslashtirish, jumladan, suv ta'minotining izdan chiqishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklarni bartaraf etishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlar amalgalashirilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo'naliishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarishda «....birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash....»<sup>2</sup> kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, aholini suv bilan ta'minlashni optimallashtirishning ekologo-gigiyenik jihatlarini baholashni optimallashtirish yuzasidan tadqiqotlarni amalgalashirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-soni «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2017 yil 14 maydagi PF-2954-soni «Yer osti suvlari zahiralaridan

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-soni «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora tadbirlari to‘g‘risida», 2019 yil 26 noyabrdagi PF-5883-son «Aholini ichimlik suvi bilan ta’minlanganlik darajasini oshirish va uning sifatini yaxshilash uchun O‘zbekiston Respublikasi suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida», 2020 yil 25 sentyabrdagi PF- 6074-son «Ichimlik suv ta’minoti va oqava suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi 2018 yil 30 noyabrdagi PQ-4040 son «O‘zbekiston Respublikasida ichimlik suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida», 2018 yil 18 dekabridagi 4063-son «Yuqumli bo‘limgan kasalliklarning profilaktikasini, sog‘lom turmush tarzini qo‘llab-quvvatlash va aholini jismoniy faoliyati oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» gi qarorlar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

## **I-BOB. AHOLINI ICHIMLIK SUVI BILAN TA'MINLASH MANBALARI, ULARNING HOLATINI EKOLOGO-GIGIYENIK BAHOLASHNING DOLZARB MUAMMOLARI**

**§1.1. Aholini markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta'minlashni gigiyenik aspektlari, suvdan foydalanish holati. Yer osti suvlari sifatini ekologo-gigiyenik baholash**

So'nggi vaqtarda toza ichimlik suvi atrof muhitni antropogen ifloslanishi, shuningdek global iqtisodiy krizis natijasida kuchayib boruvchi insoniyatning rivojlanishida geoekologik limitlovchi omilga aylanib bormoqda. Buning oqibatida esa insonlarning hayot sifatini pasaytiradi, ayniqsa suv orqali yuqadigan turli yuqumli kasalliklarga nisbatan ularning immunitetini pasaytiradi [1; 56-60-b., 7; 70-75-b.].

O'zbekiston Respublikasini qishloq aholi turar joy mintaqalari aholisini ichimlik suv bilan ta'minlash muammosi nafaqat kuchayib bormoqda, balki ba'zi mintaqalarda depopulyatsion omilga aylanmoqda. Bunda shuni ta'kidlab o'tish lozimki, shaharlarga nisbatan qishloq joylarini ichimlik suv bilan ta'minlashning o'ziga xos xususiyatlari bo'lib, bu yerdagi yirik posyolkalarda ishlovchi markazlashtirilgan tizimlar bilan bir qatorda yer osti suv manbalaridan foydalanuvchi mahalliy suv manbalari mavjud, bir qator holatlarda esa ichimlik suvini yetkazib berishda maxsus avtotransportlardan foydalaniladi, bu suv esa ko'p xollarda sanitar–epidemiologik talablariga mos kelmaydi [3; 265-268-b., 24; 63-66-b.]. Shu bilan bog'liq holda chuchuk suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va jumladan keyinchalik suvni iste'mol qilish va tozalashga qiyosiy yondoshuvni talab etuvchi suv iste'molini oqilona tashkil etish, mavjudlarini modernizatsiyalash va ichimlik suvining tayyorlanishini yangi texnologiyalarini ishlab chiqishda muhim shart bo'lib xizmat qiladi [21;108-111-b., 27; 45-47-b., 33;2020-b.].

Qishloq aholi turar joylarini ichimlik suvi bilan ta'minlash maqsadida zamonaviy suv tozalash texnologiyalaridan foydalanish O'zbekiston Respublikasi aholisini uchdan ikki qismi istiqomat qiluvchi qishloqlardagi ijtimoiy-ekologik vaziyatni yaxshilash qobiliyatiga ega bo'lgan samarali va iqtisodiy jihatdan qo'llash

mumkin bo‘lgan vosita bo‘lishi, aholi yashash joylarni ijtimoiy-iqtisodiy degradatsiyasini to‘xtatishi, oziq-ovqat muammosini hal etishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi lozim, bu esa barchaga ma’lumki kuchayib borish tendentsiyasiga ega. Ichimlik suvini tozalashning u yoki bu texnologiyasini ishlab chiqish va tavsiya etishda eng avvalo suvning kimyoviy tarkibini o‘rganish zarur. Aksariyat qishloq aholi turar joylarida ichimlik suv ta’minotining yagona manbasi bo‘lib yer osti suv manbalari hisoblanadi, chunki ochiq suv havzalarini ifloslanish darajasini yuqoriligi va ularni gidrogeologik tavsifi ochiq suv havzalarini yaroqsiz xolga kelganligidan darak beradi, hamda ulardan suv manbai sifatida foydalanishni cheklab qo‘yadi [45; 10-14-b., 46;39-42-b., 49; 80-96-b.].

Tabiiy muhitning ekologik holatini shakllantirishda gidrosferaning roli har doim ahamiyatli bo‘lgan, chunki suvning kimyoviy tarkibi odamning fiziologik funktsiyalari va uning salomatligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. So‘nggi o‘n yillikda suv ta’moti uchun foydalilanidigan yer osti suvlarini yuqori gorizontining sifati yomonlashishi va unga mos holda aholining kasallanish darajasini ortishi o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi hududni egallagan yer osti suv manbalari suvlari qoniqarsiz sifati bilan tavsiflanadi, bunda ularning shakllanishi tabiiy geokimyoviy jarayonlar bilan bog‘liqdir. Mana shunday hududlardan biri Farg‘ona viloyati hisoblanadi, bu hududdagi yer osti suv manbalari suvi tarkibida mineral moddalar miqdori gigiyenik me’yorlardan yuqoridir [39; 40; 182-185-b, 41; 100-104-b.].

Ichimlik suv ta’moti uchun yaroqli bo‘lgan chuchuk yer osti suvlarini 250-300 metr chuqurlikda joylashadi. Shakllanish sharoitiga bog‘liq holda uch tipdag‘i yer osti suvlarini sizot, grunt va qatlamlararo bosimli va bosimsiz suvlar farqlanadi. Xo‘jalik ahamiyatiga ega bo‘lgan yer osti suvlarini asosan atmosfera suvlarini tuproq orqali sizib o‘tishi natijasida xosil bo‘ladi. Ularning eng katta qismi esa aynan ochiq suv havzalari suvlarini tuproq qatlami orqali filtrlanishi natijasida xosil bo‘ladi. Yer osti suvlarining chuqurligi 1-2 metrdan, o‘n, yuz va hatto minglab metr pastda bo‘lishi mumkin.

Sizot suvlari – yer yuzasiga eng yaqin joylashadigan, asosan atmosfera yog‘ingarchilik suvlaridan xosil bo‘ladigan yer osti suv manbasidir. Sizot suvlarini to‘lish tartibi doimiy emas, chunki u chegaralangan hududdagi yog‘ingarchiliklar miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Kam chuqurlik darajasi va suvga to‘yinish tartibining o‘ziga xosligi yil davomida o‘zgarib turadi. Bundan tashqari, sizot suvlari oson ifloslanadi, uning tarkibi juda o‘zgaruvchan. Bu holatlarning jami uni suv ta’mnoti manbasi sifatida ishlatish imkonini chegaralaydi.

Grunt suvlari – yer ostining suv hosil bo‘ladigan ikkinchi qavatida xosil bo‘ladi. Bir necha o‘n metrdan 50 metrgacha bo‘lgan chuqurlikda joylashadi. Ular asosan bosimsiz bo‘lib, doimiy bo‘lmagan miqdor, sifat o‘zgarishlariga ega bo‘ladi. Grunt suvlari nisbatan kuchli fizik-kimyoviy tarkibga ega, organoleptik ko‘rsatkichlari ham nisbatan ijobiy va kam o‘zgarishlarga uchraydi. Grunt suvlari qishloq aholi turar joylarida mahalliy suv ta’mnoti manbasi sifatida (shaxtali quduqlar) juda keng qo‘llaniladi.

Qatlamlararo bosimli va bosimsiz suvlar – yer ostidagi ikkita chuqur va mustahkam qatlam orasida joylashadi, tarkib va miqdor jihatdan yuqori turg‘unlikka ega, shu sababli ularni hech qanday tozalashlarsiz markazlashtirilgan holda aholiga ichimlik suv sifatida uzatilishi mumkin. Ushbu suv manbasidan nafaqat qishloq sharoitida, balki yirik shaharlar aholisini ham ichimlik suv manbasi sifatida foydalanish mumkin. Mazkur tipdagи suv manbalari ichida qatlamlararo suvlar o‘zining ishonchliligi, tarkibini doimiyligi, epidemiologik jihatdan xavfsizligi tufayli murakkab tozalash usullarisiz, iste’mol qilish uchun yaroqlidir [4; 51-54-b, 25; 252-259-b, 31; 95-98-b, 43; 146-148-b, 44; 94-101-b].

Bir vaqtning o‘zida yer osti boyligi va umumiy suv resurslarining bir qismi bo‘lib hisoblangan yer osti suvlari juda qimmatbaho yer osti boyligini tashkil etadi. Yer osti suv manbalaridan foydalanish iqtisodiy va ijtimoiy sohada, hamda eng asosiysi, yillar o‘tgan sari o‘sib borayotgan aholini ichimlik va xo‘jalik-maishiy suv ta’mnoti uchun foydalanishda juda muhimdir. Tabiiy muhitga muntazam ravishda o‘sib borayotgan yuklama va ochiq suv havzalarini jadallahib borayotgan ifloslanishi sharoitida yer osti suvlaridan foydalanishni kengayishi hech qanday

alternativlarga ega emas. Yer osti suvlarini ifloslanishdan himoya qilish mummosi, hozirgi vaqtda atrof muhitni muhofaza qilishning umumiy muammolarini muhim tashkiliy qismi bo‘lib hisoblanadi. Mazkur muammo V.M.Goldberg, S.A.Gozda, F.M. Bochkaryov, Ye.A.Oradovskiy, N.N.Lapshina va boshqalarning (27; 45-47-b, 31; 95-98-b.) ishlarida ko‘rib chiqilgan. Yer osti suvlarini ifloslanishi bilan bir qatorda yana bir muhim muammo bu – yer osti suvlarini kamayib borish muammosi hisoblanadi. Suv ta’minoti maqsadlari uchun suv olish ishlarida yer osti suvlaridan jadal foydalanish ham foydalanuvchi suv gorizontida ham, hamda u bilan yondosh gidravlik aloqaga ega bo‘lgan suv gorizontida ham yer osti suvlari darajasini kamayishiga va juda katta depressiya voronkalarini shakllanishiga olib keladi. Jadal ravishda suv olish uchastkalarida depressiya voronkasining maydoni yuz va hatto ming metr kvadratga yetishi, yer osti suvining darajasi esa 100 m va undan ko‘proqqa pasayishi mumkin. Depressiya voronka zonasida yer osti suvlarining oqimi va uni yo‘nalishida o‘zgarishlar bo‘ladi [52;14-17-b.]. Shu bilan bir vaqtda yer osti suvlaridan oqilona foydalanmaslik yer osti suv gorizontlarini pasayishi va ifloslanishiga olib kelishi mumkin, bu esa suv olish qurilmalarini ishdan chiqishiga sabab bo‘lib hisoblanadi. Shuning uchun yer osti suv resurslarini ayniqsa murakkab geoekologik sharoitlarda operativ boshqarish mexanizmlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda [76; 542-543-b.].

Xo‘jalik-ichimlik suv ehtiyojlari uchun yaroqli bo‘lgan suv havzalari tobora kamayib bormoqda. Bundan tashqari ham ochiq, ham yer osti suv manbalari suvlarini sifatini yomonlashib borishi kuzatilmoqda. Ammo shunga qaramay, ichish uchun yaroqli bo‘lgan suv loyqaligi, rangi, tarkibi va qo‘srimchalar miqdori va h.k. ko‘rsatkichlar bo‘yicha talabga mos kelishi uchun suv tozalash stantsiyalarida ma’lum tozalash jarayonlaridan o‘tkaziladi. Biroq shuni yoddan chiqarmaslik lozimki, inson faoliyati natijasida, jumladan inson uchun zararli bo‘lgan yangi moddalar paydo bo‘lmoqda, bu bilan bog‘liq holda esa me’yoriy hujjatlar muntazam ravishda yangilanib borilishi kerak [53; 1-4-b, 54; 402-403-b, 56; 12-17-b.].

Ekotizimning asosiy tavsifi bo‘lib, nisbatan yopiq, vaqt va bo‘shliqda turg‘un bo‘lgan energiya va moddalar oqimi o‘rtasidagi biotik va abiotik qismlar hisoblanadi, ular orasida esa o‘ta muxim o‘rinni gidrosfera egallaydi. Bunda insoniyatni atrof muhit bilan o‘zaro ta’siri xuddi avvalgidek antropotsentrikligicha qoladi. Ravshanki, tabiatni muhofaza qilishga nisbatan ongli munosabatda bo‘lishni rivojlantirish (biotsentrizm), biotexnosferani –ongli bosqichga asta sekin aylanib borishini yuzaga keltirishi lozim, u V.I.Vernadskiyning fikri bo‘yicha biosfera rivojlanishining albatta sodir bo‘ladigan va qonuniyatli bosqichi hisoblanadi. Bunday aylanishlarning boshlanishini dalili bo‘lib BMT tomonidan qabul qilingan “Turg‘un rivojlanish” kontseptsiyası hisoblanadi [57; 307-319-b.]. U “turg‘un ekologiya” tushunchasi bilan bog‘langan. “Turg‘un ekologiya” bu tashqi omillar ta’sirida funktsional o‘ziga xosliklar va o‘zining tuzilmasini saqlovchi ekotizimlarni faoliyat ko‘rsatiish qobiliyati tushuniladi. Ko‘p hollarda “ekologik turg‘unlik” ekologik mutanosiblik sinonimi kabi ko‘rib chiqiladi. Tabiiy suvlarning tarkibiy qismi sifatida –yer osti suvlari ekotizimning asos bo‘luvchi abiotik komponenti hisoblanib, ularni shakllanishi va o‘z vazifasini bajarishi bo‘yicha boshqa turdagи suv manbalaridan bir qadar farqlanadi. Ekotizimning o‘ta muhim tarkibiy qismi bo‘lib hisoblangan yer osti suvlari ko‘pincha nafaqat uning xususiyati va tuzilmasini, balki uning ekologik sifatini ham belgilaydi [30; 181-184-b, 65; 105-111-b.].

Chuchuk suv resurslarini kamayishi va ifloslanishi natijasida yer yuzi aholisining ichimlik suv ta’minoti 1970 yildan 2015 yilgacha 2 martadan ko‘proqqa kamaydi. Bu holat esa aholi o‘rtasida suv bilan bog‘liq bo‘lgan kasallanish holatiga o‘zining salbiy ta’sirini ko‘rsatmoqda [62; 5-9-b, 63; 563-568-b.].

Yer osti suvlari –bu yer yuzasining yuqori qismida joylashgan yuzaga keladigan, yuqori harorat yoki tuproqning yuqori darajadagi kapilyarliligi sababli yo‘qoladigan suv manbasi. Suv litosferadagi yirik bo‘shliqlarda, yoriqlarda va tog‘ jinslari tarkibida saqlanadi, tog‘ jinslari bilan doimiy ravishda aloqada bo‘ladi va suv gorizontlarini hosil qiladi. Suvli gorizont- bu suv bilan to‘lgan plastning bir qismi bo‘lib, umumiy pezometrik yoki gidravlik sharoitlarda xosil bo‘ladi [73;8-10-

b.]. G.N.Kamenskiy, A.M.Ovchinnikovlar yer po'stlog'ining geologik rivojlanish jarayonida yer osti suvlarini kimyoviy tarkibini shakllanish sharoitlari va genezisi bo'yicha quyidagi asosiy genetik tiplarni ajratadilar: 1)atmosfera genezli (infiltratsion); 2)dengizli (sedimetatsion); 3)magmatik (yuvinil); 4)metamorfik (degidratatsion) [61;44-46-b, 74; 186-189-b.].

Chuchuk yer osti suvlari Farg'ona viloyati aholisining 97% qismi uchun yagona ichimlik suv manbasi bo'lib hisoblanadi, bu ushbu foydali qazilmani muhim strategik tavsifini belgilab beradi. Hozirgi vaqtda yer osti suvlarini turli texnogen ta'sirga uchrashini mintaqaviy baholash bo'yicha tadqiqotlar alohida dolzarblikka ega bo'lmoqda, buning natijasida esa tabiiy suvlardan sezilarli farq qiluvchi turli parametr chegaralariga ega bo'lgan texnogen gidrogeologik tizimlar shakllanmoqda. Aholining ichimlik suv ta'minotini sifati va ishonchlilagini oshirish eng birinchi navbatdagi ijtimoiy muammo bo'lib hisoblanadi, chunki aholi salomatligi ichimlik suvning xavfsizlik darajasimga sezilarli darajada bog'liq bo'ladi. Mualliflar tomonidan [68; 13-16-b, 72; 466-471-b.]. aholi uchun beriladigan ichimlik suv sifatini oshirish sohasidagi respublika miqyosidagi va mintaqaviy loyihalar, strategik dasturlar, davlat miqyosidagi ma'ruzalar, normativ-huquqiy aktlar mazmuni tahlil qilindi. Xo'jalik-ichimlik suv ta'minoti uchun yer osti suv manbalari sifatiga qo'yiladigan ekologik va sanitar-epidemiologik talablar tahlil qilindi.

Davlat monitoringi ma'lumotlari bo'yicha 2017 yilning boshidagi holatga ko'ra Rossiya Federatsiyasi hududidagi davlat balansiga qo'yilgan yer osti suvlarining ekspluatatsion zahiralari, yer osti suvlarining holati 2935, 1 mln m<sup>3</sup>/yilni tashkil etdi. O'tgan yillardagi ma'lumotlar bilan solishtirilganda, qayta baholash natijasidagi ushbu xajm 251 mln m<sup>3</sup>/yilgacha kamaydi. Federal va mintaqaviy darajalarda ijtimoiy turg'unlikni ta'minlash va aholining turmush tarzini ijobiy muhitini yaratish bo'yicha strategik vazifalarni hal etish maqsadida "Toza suv" loyihasi ishlab chiqildi. Ko'rsatilgan loyihalarni amalga oshirish doirasida shahar va qishloq aholi turar joy mintaqalarini sifatli ichimlik suv ta'minotini yaxshilash rejalashtirildi, unda fuqarolar osoyishtaligi va iste'molchilar huquqini muhofaza

qilish sohasidagi nazoratlar bo‘yicha Federal xizmati ma’lumotlariga ko‘ra ichimlik suv namunalari xavfsizlik talablariga doim ham mos kelmaydi [35; 52-57-b, 47; 94-100-b, 48; 5-10-b.].

### **§1.2. Mahalliy suv ta’minoti manbalaridan foydalanishga zamonaviy yondoshuvlar**

Ilmiy-texnik ma’lumotlar tahlili [36; 46-48-b, 75; 100-104-b.] ko‘rsatdiki, hozirgi kunga kelib tabiiy ob’ektlarga antropogen yuklamani ortib borishi bilan bog‘liq holda yer osti suvlarining ekologik holatini baholash va ulardan xo‘jalik-ichimlik suv ta’minoti maqsadida foydalanish imkoniyati dolzarb bo‘lib hisoblanadi. Shahar va qishloq aholi turar joy mintaqalarini rivojlanishi va o‘sib borishi bilan aholi soni ham o‘sib boradi, shuningdek xususiy uylarda istiqomat qiluvchi fuqarolar soni ham ortadi, ularda esa xo‘jalik-ichimlik suv ta’minoti manbasi bo‘lib yer osti suvlari hisoblanadi. Krasnodar o‘lkasidagi markazlashtirilmagan suv ta’minoti suvining sifati oxirgi 3 yilda sanitar kimyoviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha yomonlashib borganligi aniqlandi. Markazlashmagan suv ta’minotining aksariyat holatlarida o‘ta muhim bo‘lgan uni qo‘llashdan oldin suvni tozalash bosqichi mavjud emas, yoki faqat yirik moddalarni ushlab qolish uchun filtrlar o‘rnatilgan bo‘lib, bu esa tozalashni talab etiladigan darajasiga yetishga imkon bermaydi [50; 28-37-b, 51; 242-256-b.].

Suv olish qurilmalarini rejallashtirishda geologik va gidrogeologik ma’lumotlarda: yer osti suvlarini chiqurligi; aholi punkti rejasida yer osti suvlarini oqimining yo‘nalishi; suv plastining qiyosiy quvvati; qo‘shni hududdagi mavjud bo‘lgan yoki rejallashtirilayotgan suv olish joylari bilan o‘zaro ta’siri; rejallashtirilayotgan suv olish qurilmalarini va unga yaqin bo‘lgan hududlarni joylashgan o‘rnini sanitar holati, mazkur hududda mavjud bo‘lgan kimyoviy yoki mikrobiologik ifoslantiruvchi manbalarning ta’sirini o‘rganish zarur [77; 14-19-b, 78; 316-323-b.].

Atmosfera yog‘ingarchilik suvlarini yer osti suvlariga sizib o‘tishi natijasida ularni turli kimyoviy moddalar, neft mahsulotlari bilan ifloslanishi, ularni maxsus tozalash qurilmalarini qo‘llamasdan markazlashtirilgan xo‘jalik-ichimlik suv

sifatida foydalanishga imkon bermaydi. Uncha chuqur bo‘lmagan yer osti suv manbalarini (10-20m gacha) ifloslanishining asosiy sababi bo‘lib: atmosfera yog‘ingarchiliklarini infiltratsiyasi, shaharning qurilish zichligini yuqoriligi; avtotransportlar; shahar hududida mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish ob’ektlari; aholi turar joylarini qurilishi uchun ilgari qishloq xo‘jalik maqsadlarida foydalanilgan yerlardan foydalanish; chiqindilarni noto‘g‘ri qo‘llash; chiqindi suvlarni tozalash va boshqa holatlarni keltirish mumkin. Mazkur muammo nafaqat bitta shahar miqyosida balki aksariyat shaharlarning asosiy muammosidir [1; 56-60-b, 86; 26-29-b, 87; 27-32-b.].

Olib borilgan tahlillar xususiy suv olish qurilmalari orqali suv ta’mnotinini asosiy muammolarini aniqlashga imkon beradi. Ularga: chuqurligi 30 metrgacha bo‘lgan yer ostida joylashgan suv manbalarida antropogen ifloslanish darajasini yildan yilda ortib borishi va unga mos holda ushbu suv manbalari suvlari sifatini DavST talablariga mos kelmasligini kiritish mumkin. Tekshirilgan yer osti suvlari xo‘jalik-ichimlik maqsadlarida foydalanishdan oldin maxsus tozalash usullaridan o‘tkazilmaydi. Xususiy suv olish qurilmalari normativ-huquqiy aktlardagi sanitar talablarni hisobga olmasdan rejalashtiriladi va o‘rnataladi. Mintaqada o‘tkaziladigan yer osti suvlarining sifat monitoringi aholi tomonidan foydalaniladigan xususiy suv olish qurilmalarini qamrab olmaydi. Hozirgi vaqtda yer osti suvlariga salbiy ta’sirni kamaytirish shuningdek ulardan oqilona foydalanish o‘tkir muammo bo‘lib hisoblanadi [69; 265-268-b, 79; 209-212-b.].

Bundan oldin olib borilgan tadqiqotlarda mualliflar tomonidan [23; 21-29-b, 77; 14-19-b.] qayd etildiki, tabiatni muhofaza qilish qobiliyatini boshqarishning barcha darajalarida (davlat-korxona-aholi) tabiatni muhofaza qilish chora tadbirlarini amalga oshirish ekologik vaziyatni yaxshilashga, suv ob’ektlarini tiklashga imkon beradi hamda aholi uchun ijobjiy tabiiy muhitni yaratishga sabab bo‘ladi [95; 70-72-b, 96; 158-167-b.].

Hozirgi kunda MDH davlatlari aholisining 75% dan ortig‘ini xo‘jalik-ichimlik suv ta’mnoti aynan yer osti suvlari hisobiga to‘g‘ri keladi (Tomakov V.I., Bokinov D.V., Kurochkin O.V.). “Yer to‘g‘risidagi fanlarda yangi g‘oyalar” IV

Xalqaro anjumanining ochilishida V.P.Orlov shu narsaga e'tibor qaratdiki, uchinchi ming yillikda suv ta'minoti asosan yer osti suv ta'minoti manbalaridan amalga oshiriladi. Rossiya Federatsiyasining qator hududlari hozirgi kunning o'zida faqat yer osti suv ta'minoti manbalaridan ichimlik suv sifatida foydalanadilar. Ma'lum bo'lmoqdaki yer osti suvlarining ahamiyati faqat ortib boradi, bunda keyingi vaqtarda Dunay daryosida sodir bo'lgan hodisalar guvohlik beradi, bu hodisa qator Yevropa davlatlari hududlarini ekologik halokatga olib keldi. Eng xavfisi shundaki, hozirgi kunda aniqlangan ifloslanishlarning ko'lami faqat "aysberg"ning yuqorigi qismi bo'lib hisoblanadi, uning xavfli oqibatlari esa ma'lum vaqt o'tib va sezilarli darajada namoyon bo'ladi [O.A.Chernova, A.E.Kosolapov, L.G. Matveeva, 2016].

Ochiq suv havzalari, tuproq, atmosfera havosini ifloslanishiga jiddiy yondoshuvlar bilan bir qatorda yer osti suvlarining ekologik holatiga o'zini oqlab bo'lmaydigan darajada kam ahamiyat berilmoqda. Bu ifloslantiruvchilarni baholash, bashoratlash, tarqalish areolini elementar parametrlari nazoratini mavjud emasligi, vaqt bo'yicha jarayonni uzoq masofalarga cho'zilishi, bir qator omillar va eng avvalo yer osti suvlarini joylashgan o'rnini qayta ishlash ekspluatatsion tartibi bilan tushuntiriladi [Levchuk A.A., Goncharova P.O., 2018]. Yer osti suvlarini ifloslanishi kelajak avlod uchun o'zining qaytarib bo'lmaydigan xususiyatlari bilan eng xavfli jarayonlardan biri hisoblanadi, chunki u birdan namoyon bo'lmasdan, balki ifloslanish o'chog'i foydalanish joyidan asta sekin tarqalib boradi [A.Yu.Barabash, A.V.Aleksandrova 2019].

Yer osti suvlari ekoliyiyasining asosiy muammosi shundaki, ifloslantiruvchilarni tarqalish jarayonini ma'lum darajadagi aniqlikda belgilab olish va nazorat qilishni faqat jarayonini boshqarib bo'lmaydigan darajaga kelganidagina amalga oshirish mumkin, bunda ekologlarning roli faqat achinarli oqibatlarni ta'kidlash bilan chegaralanadi xolos [66; 97-98-b, 67; 30-31-b, 80; 392-396-b.]. Turg'un zahiraga ega bo'lgan ichimlik suv ta'minotini tashkil etish uchun qiziqish uyg'otadigan yer osti suvlari plast tavsifiga ega va ma'lum tarkibdagi jinslar va geologik yoshdan tarkib topadi [84; 1175-1181-b, 85; 71-75-b]. Yer osti suvlarining boshqa bir muhim xususiyati bo'lib, ularning zahiralarini chegaralanganligidir.

Quduqlarning ishlab chiqarish zahirasi odatda 2-3 suv gorizontidan iborat bo‘ladi. Yer yuzasining birinchi qatlami dagi suv gorizonti yer yuza suvlari bilan gidravlik aloqasining mavjudligi sababli ishlab chiqarish zahiralariga ega bo‘lmaydi va bir qator komponentlar bo‘yicha moddalar bilan ifloslangan bo‘lib, ularning miqdori o‘rnatilgan REM dan yuqori bo‘ladi. Yanada chuqurda joylashgan suv gorizontlari tarkibidagi mineral moddalarni yuqoriligi sababli ichimlik suv ta’mnoti uchun foydalanmaydigan yoki oshxonada shuningdek mineral suvlar sifatida foydalanish mumkin [88; 7-10-b.].

Yer osti suv qatlamlarida joylashgan suvlar ba’zi hududlarda gidravlik aloqaga ega bo‘ladi, agar ifoslantiruvchilar mavjud bo‘lsa, uni burg‘uli quduqqa ta’sir etuvchi radiusda erkin tarqalishi yuzaga keladi. Suv olish jadalligini ortib borishi bilan burg‘uli quduqning ta’siri depressiya voronkasini o‘sishi hisobiga yanada uzoq hududlarga tarqaladi, burg‘uli quduqlar bir biri bilan o‘zaro aloqaga ega bo‘ladi. Bu bilan bog‘liq holda ifoslantiruvchi modda plastning u yoki bu qatlamiga tushganida undan foydalanish jarayonida u yanada yangi sohalarni egallab, plast bo‘yicha chegaralanmagan holda tarqalishi mumkin. Agarda bu qatlamdan foydalanilmasa, yohud ushbu zona depressiya voronka maydoni bo‘yicha doimiy tarqalmasa, ifoslantiruvchi o‘choq “sekin tarqaluvchi mina” vazifasini bajarib, uzoq vaqt davomida o‘zini sezdirmasligi va konservalangan holda bo‘lishi mumkin [34; 16-19-b.].

Yer osti suvlaridagi ifoslantiruvchi moddalar nafaqat plast maydoni bo‘yicha tarqalishi mumkin, balki boshqa gorizontlarga ham kirib borish xususiyatlariga ega. bunday ifoslalanish insonni atrof muhitga ko‘rsatadigan ta’sirini bevosita oqibati bo‘lib hisoblanadi va burg‘uli quduqlar orqali bir biriga uzatiladi. Burg‘uli quduq qazilganida qatlamlarning gidravlik aloqasi quyidagi holatlarda bir yoki bir nechta suv gorizontini bog‘lovchi obsad kolonna trubalarini sifatsiz tsementlash natijasida; plastlarni so‘rilishi yoki vaqt o‘tishi bilan tsement toshlarini yuvilishi sababli obsad trubalarini tejash sababli qazish diametrini noto‘g‘ri olinishida namoyon bo‘ladi [70; 45-47-b.]. Hozirgi kunga kelib Moskva artezian basseyni halokatli holatga kelgan. Agar ilgari ichimlik suvini 70-80 metr chuqurlikdagi ohaktosh-yoriqli

burg‘uli quduqlardan olingan bo‘lsa, keyinchalik 100-140 metrli qatlamdan olindi, hozirgip kunga kelib esa bu 260 metrli chuqurlikka yetdi. Qazilgan burg‘uli quduqlar orqali ifoslantiruvchi moddalar yer yuza qavati va yuqorida turuvchi yer osti qatlamlaridan foydalanimuvchi suv gorizontiga tarqalmoqda. Agarda bu qatlam ham ifloslansa, boshqa ichimlik suv zahirasi mavjud emas, chunki undan chuqur qatlamlarning suvini tarkibida mineral moddalar miqdori juda yuqori, ularni oldindan tozalamasdan ichimlik suv sifatida foydalanimib bo‘lmaydi. Xuddi shunday halokatli holatda Rossiya Federatsiyasining boshqa yirik shahar va ishlab chiqarish mintaqalarining artezian basseynlarining kattagina qismi turibdi [56; 12-17-b, 126; 5-10-b.].

Tuproqning eng yuqori qatlamini yuqori o‘tkazuvchanligi bilan tavsiflanuvchi mintaqalaridagi yer osti suvlarini ifloslanishi alohida xavfga ega bo‘ladi. Ochiq suv havzalari ifloslangan joylarida burg‘uli quduqlarni qazilishi yer ostining chuqur qatlamlaridagi suvlarni ifloslanishiga sabab bo‘lishi, zararli moddalarni yer ostining yanada chuqur qatlamlariga kirib borishiga olib kelishi mumkin. Ifoslantiruvchi moddalarni burg‘uli quduqlar orqali yanada chuqur yer osti qatlamlariga kirib borishi, ifloslanishning eng xavfli va qaytmas turi bo‘lib hisoblanadi, uni nazorat qilish, o‘lchamlarini baholash, rivojlanishini bashoratlash va u bilan kurashish juda murakkab ish bo‘lib hisoblanadi. Bunda ifoslantiruvchilar burg‘uli quduqqa nafaqat uni sifatsiz tsementlashda tushadi, balki obsadj kolonnalarning germitikligini buzilishida ham yuzaga keladi [32; 40-b.].

Eng chuchuk yer osti suvlar odatda tog‘li hududlardagi manbalarda topiladi. Qator holatlarda undagi tuzlar miqdori 0,1 mg/l dan kam bo‘ladi. Bunga mutlaqo qarama qarshi bo‘lgan xususiyatlarga tekislik ostida joylashgan yer osti tuzli suvlar ega bo‘ladi, ulardagи tuzning miqdori suvning miqdoriga teng bo‘ladi. Masalan: Turkmanistonda minerallik darajasi 547 g/l bo‘lgan namokob suvlar topilgan. Yer osti suvlarining kimyoviy tarkibini ustun bo‘lgan ionlari: gidrokarbonat kalsiy, xloridli-natriyni ustunligining birga kelishi bilan belgilanadi. Yer osti suvlarining minerallik darajasi odatda ularning kimyoviy tarkibi bilan chambarchas bog‘liq bo‘ladi [37; 10-19-b.]. Chuchuk suvlar odatda gidrokarbonatlidir. O‘rtacha

kontsentratsiyali tuzli suvlarda (100-150 g/l) ko‘pincha natriy xlor ustunlikka ega bo‘ladi. Yuqori kontsentratsiyali namokoblarda xlor ioni bilan bir qatorda juda ko‘p miqdorda kalsiy va magniy saqlanadi. Yer osti suvlarining ionli ta’siri ularni o‘z tarkibida ayniqsa is gazlarini saqlashi bilan bog‘liq. Bundan karbonatli muvozanat bog‘liq bo‘ladi (vodorod kationlarini, kalsiy va gidrokarbonat va karbonat anionlari). Tarkibida yuqori darajada uglerod kislotasini saqlamagan yer osti suvlar qurilish inshootlari, ayniqsa o‘z tarkibida beton saqlagan inshootlar uchun tajovuzkordir [38; 36-39-b, 115; 21-25-b.]. Amaliy jihatdan yer osti suvlar D.I.Mendeleev davriy jadvalidagi barcha elementlarni saqlaydi. Shuning uchun ular ko‘pincha qimmatbaho kimyoviy xom ashyo manbasi bo‘lib hisoblanadi. Ma’lumki, XI asrda osh tuzi tanqisligi mavjud bo‘lgan davrlarda osh tuzini yer osti sho‘r suvlarini bug‘latish yo‘li bilan olingan. Hozirgi kunda Turkmanistonda yer osti suvlaridan yod va brom elementining aksariyat qismi olinadi. AQSh, Italiya davlatlarida yer osti sho‘r suvlaridan yod va brom elementlaridan tashqari borat kislota, volfram, litiy, germaniy elementlari olinsa, Chexiyadagi Karlova Vari mineral manbalaridan har yili 1300 t glauber tuzi va 800 t soda olinadi [42; 290-292-b, 114; 38-44-b.].

Yer osti suvlarida undan yuqorida joylashgan tuproqlarda kechuvchi biokimyoviy jarayonlar natijasida tushuvchi organik moddalar mavjud bo‘ladi. Yer osti suvlarininng barcha xususiyatlari ichida uni eng qimmatli tomoni tarkibida patogen mikroorganizmlarni saqlamasligidir. Bu esa ularni hech qanday murakkab zararsizlantirish inshootlarisiz aholiga ichimlik manbasi sifatida to‘g‘ridan to‘g‘ri foydalanish imkonini beradi [64; 44-b, 113; 29-33-b.].

Suvning buferlik xususiyati (me’yorda ishqoriylik deb bayon etiladi) suvning qattiqligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, u 10 dan 500 mg/l gacha o‘zgarishi mumkin. Demak qattiqlik darajasi yuqori bo‘lgan suvni muntazam ravishda iste’mol qilish organizmda tuzlarni to‘planishiga va buning oqibatida bo‘g‘inlar kasalligiga olib keladi. Tayanch harakat tizim kasalliklarida eng keng tarqalgani bo‘lib, yirik bo‘g‘inlar artrozi hisoblanadi. Suyak to‘qimasini qarishi va poliartritlar, dorsopatlar, artritlarni rivojlanishi Ca/P nisbatining ortishi bilan

tavsiflanadi. Shunday adabiyot ma'lumotlari mavjudki, haddan tashqari qattiq suvni iste'mol qilish siydk tosh kasalligiga olib kelishi mumkin. Organizmda kalsiy/fosfor nisbatining ortishi buyrak toshlarining gidroksilopatitini xosil bo'lishiga olib keladi suvning qattiqligiga kalsiy va magniy elementlarining kontsentratsiyasi o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Umumiyligida qattiqlikka uncha katta bo'limgan ulushni sfaleritlar, armangitlar, vitiritlar va fosfodiritlar kabi mineral moddalardan ajralib chiqadigan ruh, bariy, alyuminiy, strontsiy-polivolent ionlari qo'shadi. [71; 466-471-b, 112; 14-26-b, 128; 6313-b.].

Jahonning turli mamlakatlarida o'tkazilgan qator tadqiqotlarda ko'rsatadiki, yurak qon-tomir kasalliklari va suvning qattiqligi o'rtasida statistik ishonchli, yuqori manfiy korellyatsiya mavjud. Demak magniy (Mg) yurakni me'yorda ishlashi uchun talab etiladi, yurak tomirlarini kengayishiga va qonni ivishini kamayishiga olib keladi, buyraklar, o't ajratuvchi yo'llar, asab tizimi ishiga ta'sir ko'rsatadi. Uni organizmda yetishmasligi va ichaklarni surunkali zamburug'li shikastlanishiga olib keladi. Magniy preparatlari ba'zi patologik holatlarda samara beradi, masalan: magniy boldir mushaklari titrashini bartaraf etadi va qandli diabetda qondagi glyukoza va xolesterin miqdorini kamaytiradi [58; 166-168-b, 111; 138; 54-60-b.].

Odam organizmida mavjud bo'lgan jami temir moddasining (Fe) tahminan 79% gemoglobinga to'g'ri keladi, qolgani esa temir proteinlar, tsitoxromlar va fermentlarda saqlanadi. Temir kislородни о'pkalardan to'qimalarga tashish va organizmdan karbonat angidridni chiqarib yuborish jarayonlarida asosiy rol o'ynovchi juda zaruriy elementdir [60; 72-76-b, 110; 104-107-b, 139; 1030-1037-b.]. Ma'lumki rux elementi "asosiy noorganik gormon" bo'lib, qator patologik holatlarda (gipoksiya, gipoxrom kamqonlikda) u karboangidrazlar miqdori va faolligini oshirib, plazmadan eritrotsitlarga o'tadi hamda shu bilan karbonat angidridni tezroq bog'lab olish va chiqarib yuborilishini tezlashtiradi. To'qima nafasi jarayonida karboangidrazlar va rux gemoglobin va temirning roli bilan qiyoslanadigan darajada katta ahamiyatga ega [55, 82; 28-31-b.141].

Oziq-ovqat mahsulotlari va suvda yod miqdorining tanqisligi qalqonsimon bez giperfunktsiyasiga (gipoteriozlar va bazedov kasalligi) olib keladi, bu esa odamning gipotalamo-gipofizar tizimi funktsiyasida o‘z aksini topadi [65; 105-111-b, 79; 209-2012-b, 109; 552-555-b, 143; 193-202-b.]. Har kuni ovqat va suv bilan iste’mol qilinadigan yodning 30-40%i qalqonsimon bezda to‘planadi, qoldig‘i esa peshob bilan chiqariladi. U kalsiy miqdorini boshqaradi va qon plazmasida fosfor miqdorini kamaytiradi. Paratgormonini yetarli miqdorda ajralmasligi kalsiy-fosfor gomeostazini buzilishiga (gipokalsiyemiya va giperfosfatemiya) olib keladi. Shuningdek gipokalsiyemianing sababi bo‘lib me’da ichak tizimida kalsiyni so‘rilishini pasayishi hisoblanadi. Tuproq, suv va oziq-ovqat mahsulotlarida yodning yetishmasligi qalqonsimon bezini kompensator kattalishishiga olib keladi [Lemesheva S.A., Golovanova O.A.].

### **Adabiyotlar mushohadasi bobining xulosasi**

Davlatimiz rahbarining 2022 yil 28 yanvardagi farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturi”da suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni tejash bo‘yicha alohida vazifalar belgilanib, rejali foydalanish hisobiga kamida 7 milliard metr kub suvni iqtisod qilish nazarda tutilgani diqqatga sazovor, albatta. Bu esa kelajak avlod uchun suv resurslarining kafolatli istiqboli borligini anglatadi [1; 56-60-b.]. Muammoning huquqiy yechimlari aytish joizki, mamlakatimizda yer osti suvlari sifatini yaxshilash, undan oqilona foydalanish, ularni kamayish hamda ifloslanishdan himoya qilish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Binobarin, aholi salomatligi va umr ko‘rish davomiyligini oshirishda yer osti suvlari sifati alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kunda insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bu mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularga salbiy ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish hisoblanadi [2; 3-6-b.]. Shunga ko‘ra, so‘nggi yillarda dunyo miqyosida barcha jabhalarda atrof-muhit muhofazasi masalasi alohida o‘rin tutmoqda. Oxirgi 40-50 yilda sanoat va qishloq xo‘jaligining jadal rivojlanishi chuchuk yer osti suvlari holatiga salbiy ta’sir

ko‘rsatdi. Bu esa, o‘z navbatida, suv olish inshootlarining qurilishini tartibga solish va suvdan foydalanishni nazoratsiz qoldirish oqibatida yer osti suv manbalari zaxiralarning sezilarli qisqarishiga olib keldi [3; 265-268-b, 4; 51-54-b.]. Bu borada Prezidentimizning 2017 yil 4 maydagи “2017-2021 yillarda yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim huquqiy asos bo‘ldi. Zero, hujjatda ushbu yo‘nalishdagi muammolarni bartaraf etishga oid ustuvor vazifalar belgilab berildi. Shundan so‘ng, ya’ni 2017 yil 27 iyunda Vazirlar Mahkamasining “Yer osti suvlaridan foydalanish sohasidagi faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 12 aprelda “2015-2030 yillarda tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish maqsadida “Senday hadli dasturi”ni O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2021 yil 8 yanvarda “Yer osti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindiki, ularda belgilangan vazifalar ijrosi birin-ketin ta’milanayotgani hisobiga bu boradagi ijobiy o‘zgarishlarga zamin yaratildi.

**II-BOB. AHOLINI SUV BILAN TA'MINLASHNI**  
**OPTIMALLASHTIRISHNING EKOLOGO-GIGIYENIK JIHATLARINI**  
**BAHOLASHNI MATERIAL VA USULLARI**

**§2.1. Suv manbasini tanlab olishni asoslash va uning tasnifi**

Maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda bizlar tomonimizdan Farg‘ona viloyati va shahar aholisini markazlashtirilgan va mahalliy suv ta’mnoti holati, aholini suv bilan bog‘liq holatdagi shikoyatlari va fikr mulohazalari va aholining suv bilan bog‘liq bo‘lgan kasallanish holati hamda aholi o‘rtasidagi ichimlik suviga bog‘liq turli yuqumli va somatik kasallikkarga uchrash holati o‘rganildi. Aholiga markazlashtirilgan holatda yetkazib beriladigan suv “Farg‘ona suv ta’mnot” Farg‘ona shahar bo‘limi idoraviy laboratoriyasini “Ichimlik suvi laboratoriysi”, Farg‘ona shahar sanitar epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati sanitat-gigiyena bo‘limi qoshidagi gigiyena laboratoriysi bilan hamkorlikda ichimlik suvining organoleptik, sanitar-toksikologik, mikrobiologik ko‘rsatkichlari o‘rganildi va baholandi. Buning uchun bizga ma’lum bo‘lgan suv tozalash, suvgaga bosim berish va yetkazib berish tizimlari sanitar tekshiruvdan o‘tkazildi. Bunda har bir artezian qudug‘i (Pakana-Log‘on bosh inshootida, jami bo‘lib 68 ta, shahar ichi 43 ta) quyidagi karta asosida o‘rganildi: 1) Aholi puktning nomi; 2) Aholi puktiga nisbatan quduqni joylashgan o‘rni, bunda quyidagi elementlarga alohida e’tibor qaratildi-burg‘uli quduqning tipi, quduqni aholi punktining ichida yoki undan tashqarida joylashganligi, quduqning chuqurligi, quduqni profilaktik va davriy tekshirishlar muddati, quduqning ichki va tashqi tomonlarini sanitar holati, quduqdan suvni olish usuli, quduqni turar joy binolaridan uzoqlik masofasi; 3) quduq atrofida ifloslantiruvchi manbalarning mavjudligi, quduq bilan ifloslantiruvchi manba o‘rtasidagi tuproqning holati; 4) quduqdagi suvning kunlik sarfi; 5) mazkur quduqdan foydalanuvchi aholi o‘rtasida suv bilan bog‘liq bo‘lgan yuqumli va noyuqumli kasallikkarni uchrash soni; 6) umumiyl xulosa va quduqdan foydalanish sharoitini optimallashtirish bo‘yicha amaldagi va rejalashtirilgan chora tadbirlar majmuasini ishlab chiqish.

Aholini markazlashtirilgan holda ichimlik suv manbalari orqali vodoprovod suvi bilan ta'minlashda mavjud bo'lgan suv manbalari va suv tozalash stantsiyalari, suv yetkazib beruvchi tarmoqlarni sanitar tekshirish uch xil yo'nalishda olib boriladi:

1. Sanitar -topografik tekshirish.
2. Sanitar-texnik tekshirish.
3. Sanitar –epidemiologik tekshirish.

Mazkur usullar ham ochiq, ham yer osti suv manbalari uchun bir xilda joriy etilsada, ammo ularni o'ziga xos bo'lgan tomonlari ham mavjud.

Yer osti suv manbalarini sanitar topografik tekshirishda joyning geologik tuzilishi o'rganildi. Bunda yer osti suvlarining chuqurligi, tuprog'ining xususiyati, yer osti suvlarining gorizonti, suvning sifati, suvning debiti, zahirasi, yer osti suvini suv olish turi va uning holati, yer osti suvini to'planish joyining mavjudligi ma'lumotlariga alohida e'tibor qaratildi. Yer osti suvlarini sanitar topografik tekshirishda yuqorida keltirilganlardan tashqari burg'uli quduqni joylashgan o'rni, quduqdan suv olish joyining holati, mazkur suv olish inshooti atrofida joylashgan barcha turdag'i ifloslantiruvchi manbalar, ularni shu quduq suviga ko'rsatadigan ta'siri to'liq o'rganildi.

Burg'uli quduqlarni sanitar-texnik tekshirishda, quduqlarning har birini to'g'ri tuzilishga ega ekanligi, ulardan to'g'ri foydalanish holati, quduq devorlarining holati, ularni mustahkamlovchi moslamalarning mavjudligi, quduq atrofida tashkil etilgan ayvonchalar, quduqdagi nasoslarning turi, ularni profilaktik ta'mirlash holatini tekshirish ishlari amalga oshirildi. Bunda olib borilgan barcha tekshirishlar SanNvaQ 0200-06 talablariga asosan bajarildi.

Suv tozalash inshootidagi burg'uli quduqlarni sanitar-epidemiologik tekshirish asosan aholi o'rtasida bakteriya tashuvchilar yoki suv bilan bog'liq bo'lgan yuqumli va yuqumsiz kasallikkarni uchrash holati o'rganildi. Kasalliklar aniqlangan holatlarda uning sabablari aniqlandi, mazkur holat yuzasidan epidemiologik surishtiruv ishlari olib borildi.

Aholiga beriladigan ichimlik suvining kunlik sarfi ko‘plab omillarga, eng birinchi navbatda esa suv ta’minot turiga bog‘liq. Suv ta’minotining ikkita turi farqlanadi: markazlashtirilgan (vodoprovod) va markazlashtirilmagan (mahalliy). Markazlashtirilgan suv ta’minotida ichimlik suvi iste’molchiga vodoprovod tizimi orqali beriladi. Bu suvni manbadan (ochiq yoki yopiq) olib, amaldagi davlat standarti talablariga mos xolga kelgunicha tozalash inshootlarida tozalanib, aholiga markazlashtirilgan holda yetkazib berilishini ko‘zda tutadigan muhandislik qurilmalar majmuasidir. Bunda iste’molchilar ichimlik suvini bevosita vodoprovod tizimi orqali olib iste’mol qiladi. Mahalliy suv ta’minoti holatida esa iste’molchi ichimlik suvini shaxtali quduq, burg‘uli quduq qurilmalari orqali olib iste’mol qiladi.

Aholi punktidagi suv iste’molining umumiy sarfi ( $Q$ ) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$Q=Q_1+Q_2 +Q_3 + Q_4 + Q_5 + Q_6$$

Bu yerda:

$Q_1$ —turar joy va jamoat binolaridagi xo‘jalik-ichimlik va maishiy talablar uchun suvning kunlik sarfi;

$Q_2$ —aholi punktini kelajayda o‘sishini hisobga olish bilan suv sarfi;

$Q_3$ —ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi sohasida sarflanadigan suv miqdori;

$Q_4$ —dam olish uylari, sanatoriyalar, bolalarning yozgi oromgohlari uchun sarflanadigan suv miqdori;

$Q_5$ —o‘t o‘chirish uchun sarflanadligan suv xajmi;

$Q_6$ —mahalliy o‘ziga xosliklar, jumladan iqlimiylar sharoitlarni hisobga olish bilan sarflanadigan suv miqdori.

Suv iste’moli miqdori sezilarli darajada aholi puktining obodonlashtirilganlik darajasi va uni yashash fondiga bog‘liq bo‘ladi, aynan u yuqori bo‘lganda suv sarfi ortadi. Shundan kelib chiqqan holda, xo‘jalik-ichimlik suv iste’molining nisbiy meyorlari ishlab chiqildi. (Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi puktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish. ShNQ 2.07.01-03\*. 2.1-jadvalga qarang)

Aholi yashash joylarida xo‘jalik-maishiy suv ta’minoti me’yorlari  
(ShNQ 2.07.01-03)

Hududni obodonlashtirilganlik darajasi	Fizik-geografik tumanlarda istiqomat qiluvchilarni xo‘jalik-ichimlik suv ta’minotining o‘rtacha kunlik me’yori		
	Tekislik	Yarim tekislik	Cho‘l
Vodoprovod, kanalizatsiya, markazlashtirilgan issiq suv ta’minoti	280	290	300
Vodoprovod, kanalizatsiya, mahalliy suv isituvchi qurilmalar	200	210	230

**§2.2. Ichimlik suv ta’minoti manbalarida o‘tkaziladigan tekshirishlarning o‘ziga xos xususiyatlari**

Aholini markazlashtirilgan holda ichimlik suv bilan ta’minlashda foydalaniladigan tekshirish dasturi sanitar shifokor oldida turgan vazifalarga mos holda amalga oshiriladi. Bu tekshirish asosan ikki xil sxemada: to‘liq va qisqa dasturlar bilan amalga oshiriladi.

Markazlashtirilgan suv manbasi sifatida tanlab olinadigan suv havzalaridan asosan to‘liq dastur asosida namunalar olinadi. To‘liq dastur bo‘yicha namuna olishda asosan 24 xil ko‘rsatkichga namuna olinadi. Ularga kiradi: harorat, hid intensivligi, bo‘yalish, suvning muhiti, tiniqlik, cho‘kmaning xajmi va og‘irligi, muallaq moddalar, alyuminiy, nitritlar, nitratlar, permanganat oksidlanish, bixromat oksidlanish, kislородга bo‘lgan biokimyoviy ehtiyoj, nisbiy turg‘unlik, erigan kislород, fosfatlar, fторидлар, erkin xlор, maxsus ingredientlar, temir, xrom, rux, qo‘rg‘oshin, sun’iy yuza faol moddalar, koli indeks, umumiy mikroblar soni.

Mahalliy suv ta'minoti manbalarining suvi tarkibi va aholiga markazlashtirilgan holda suv yetkazib beruvchi tozalash stantsiyalarining har kungi xolati, tozalash qurilmalarining texnik va gigiyenik samaradorligini aniqlash uchun esa qisqartirilgan dastur asosida suvdan namunalar olinadi. Qisqartirilgan dastur asosida olinadigan namunalar asosan organoleptik ko'rsatkichlar uchun, ya'ni hidi, ta'mi, rang ko'rsatkichi, tiniqlik, loyqalik, cho'kma, suv yuzidagi parda, ko'z bilan ko'rsa bo'ladigan suv sodda jonivorlarini aniqlash uchun, kimyokiy ko'rsatkichlardan—oksidlanish, ammoniy, nitrit, nitrat tuzlarining miqdorini aniqlash, umumiyligini va karbonatlik qattiqlikni aniqlash, suvning ishqoriyligini aniqlash, xlor ionlarining mavjudligi va temir moddasi miqdorini aniqlash uchun olib borilsa, bakteriologik ko'rsatkichlardan umumiyligini mikroblar soni va koli indeksni baholash uchun amalga oshiriladi.

Yer osti suvlarining sifati asosan qisqa dastur bo'yicha tekshiriladi, bunda suvning quyidagi ko'rsatkichlari baholanadi: organoleptik—hid, ta'm, rangi, tiniqlik, loyqalik, cho'kmalar, suvdagi ko'z bilan ko'rindigan mayda muallaq moddalar; kimyoviy ko'rsatkichlar—oksidlanish, azot ammoniy, azot nitrit va azot nitrat miqdori, umumiyligini va karbonatli qattiqlik, ishqoriylik, umumiyligini temir va xlor—ionlari; bakteriologik ko'rsatkichlar—umumiyligini mikroblar soni, koli-indeks. Barcha ko'rsatkichlar bo'yicha olingan ma'lumotlar DavST 950:2011 talablari bilan qiyoslandi va burg'uli quduqlar suvining sifatiga baho berildi.

Ichimlik suvidan fizik-kimyoviy maqsadlar uchun namuna olish, saqlash va yetkazib berish maxsus me'yoriy hujjatlar asosida olib boriladi. Suvdan namuna olishda quyidagi shartlarga rioya qilish lozim:

1. Namuna olish joyi va vaqt tasodifiy elementlardan xoli bo'lishi kerak.
2. Namuna olish bilan uni tekshirish o'rtasida imkon darajasida eng kam vaqt o'tishi kerak.

Qisqa tahlil uchun 2 litr, to'liq tahlil uchun 5 litr namuna olinadi; bakteriologik tekshirishlar uchun to'liq va qisqa tekshirishlar uchun 0,5 litr miqdorda suv namunasi olinadi.

Fizik-kimyoviy tekshirishlar uchun toza yuvilgan shisha idishni tekshiriladigan suv bilan 2 marta chayib olinadi. Suv tarkibidagi kumush yoki ftorni aniqlash uchun namunalarni polietilen taralarga olish maqsadga muvofiqdir. Bakteriologik namuna olinadigan idish qopqog‘i yopiladigan yoki probkali idish bo‘lishi kerak, uni quritish shkafida 160°C haroratda 1 soat davomida sterillanadi. Ularni alohida qog‘ozli paketlarga o‘raladi. Idishlar va ularning qopqoqlarini 30 daqiqa davomida qaynatish usuli bilan ham zararsizlantirish mumkin.

Xlorlangan vodoprovod suvidan bakteriologik tekshirishlar uchun namuna olishda idish suv tarkibidagi xlorni o‘ziga biriktirib olishi uchun 10 ml 0,01 mol/l miqdordagi tiosulfat natriy eritmasi bilan chayib olinadi. Sterilizatsiya avtoklavda amalga oshiriladi. Bakteriologik tekshirish uchun namuna olishda idish og‘zida 5-6 sm li havoli bo‘shliq qoldiriladi. Vodoprovod tarmog‘idan namuna olishda tarmoq jo‘mragi spirtli olovda birlamchi flambrlanadi, so‘ngra 10 daqiqa davomida bor bosimi bilan oqizib qo‘yiladi, sterillangan idishga tepa qismida 5-6 sm li havoli bo‘shliq qoldirilib namuna olinadi. Namuna olib bo‘lingandan so‘ng idish og‘zi mahkam yopiladi.

Ochiq suv manbasidan namuna batometr moslamasi yordamida olinadi. Bakteriologik tekshirishlar uchun namuna olishda batometr birlamchi flambrlanadi. Shaxtali quduqdan namuna olishda batometr yoki quduqdagi umumiyl chelakdan foydalanish mumkin. Buning uchun dastlab quduqdan 5-6 chelak suv olib tashlanadi, so‘ngra keyingi chelakdan namuna olinadi. Olingan namunalarga kuzatuv xati to‘ldiriladi va olingan namuna bilan birgalikda laboratoriya ga jo‘natiladi. Kuzatuv xatining tarkibida quyidagi bandlar nazarda tutilishi kerak:

1. Suv manbasining nomi, joylashgan o‘rni va manzili.
2. Suv manbasining tavsifi (tipi, chuqurligi, suv manbasi atrofidagi xolat).
3. Namuna olishdan oldingi 10 kun davomida ob-havoning xolati, shamol yo‘nalishi va kuchi (agar ochiq suv manbasi bo‘lsa).
4. Tadqiqot uchun namuna olishdan maqsad (rejali tekshirish, suv manbasida amalga oshirilgan ta’mirdan so‘ng olib boriladigan nazorat uchun, aholidan

tushayotgan shikoyatlarga ko‘ra, suv bilan bog‘liq kasallanish xolatlarini yuzaga kelishi munosabati bilan va boshqalar).

5. Zaruriy tekshirishlar xajmi (qisqa yoki to‘liq).
6. Namuna olish sanasi va vaqt.
7. Manbada o‘tkazilgan tekshirishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar.
8. Namuna kim tomonidan olindi va uning imzosi.

Bakteriologik tekshirishlar namuna olingandan keyin ko‘pi bilan ikki soat ichida boshlanishi kerak, agarda buni imkonи bo‘lmasa, yoki olingen namunani boshqa joyga olib borish zarur bo‘lsa, namunani ichiga muz to‘ldirilgan, harorati 1-4°C ni tashkil etgan maxsus idishga solib olib borish talab etiladi.

Olingen namunalar natijasi aniq chiqishi uchun namunalar konservalanadi, buning uchun 1 litr tekshiriladigan suvga alyuminiyni aniqlash uchun -5 ml xlorid kislota, kumushni aniqlash uchun 5 ml kontsentrlangan azot kislota, azot ammoniy va nitritlarni aniqlash uchun – 5 ml xlorid kislota, nitratlarni aniqlash uchun - 4 ml xloroformdan foydalaniladi. Bakteriologik, organoleptik va suv tarkibidagi erigan kislородни, KBEni aniqlash uchun olingen namunalar konservatsiya qilinmaydi.

Suv tozalash stantsiyasidagi suvning tiniqligi va rang ko‘rsatkichini me’yorga keltirish uchun qo‘llaniladigan tozalash inshootlari samaradorligini baholash uchun suvning loyqaligi, tiniqligi, rang ko‘rsatkichi, koagulyant va flokulyantlarning qoldiq miqdorini aniqlash uchun namunalar olinadi va natijalar amaldagi me’yorlar bilan taqqoslanadi. Suvni zararsizlantirish samaradorligini aniqlash uchun esa 1 sm<sup>3</sup> suvdagi saprofit mikroorganizmlar soni, ichak tayoqchasi guruhiga kiruvchi bakteriyalar soni, qoldiq faol xlor miqdori baholanadi.

Vodoprovod tarmog‘i xolatini va uni suvning sifatiga ko‘rsatadigan ta’sirini baholash uchun quyidagi ko‘rsatkichlar o‘rganiladi: hidi, ta’mi, rang ko‘rsatkich, loyqalik, koli titr yoki koli indeks, umumiylik mikroblar soni. Agarda vodoprovod tarmog‘i sintetik polimerlardan tayyorlangan bo‘lsa, suv tarkibidagi mazkur moddalarning miqdori ham muntazam ravishda tekshirib borilishi lozim va bu sintetik polimer moddalarning kontsentratsiyasi REMdan ortiq bo‘lmasligi kerak.

Laboratoriya olib kelingan namunalar maxsus jurnalga qayd etiladi. Namunaning qayd raqami namuna solingan idishga yoziladi. Jurnaldagi “Izoh” bandiga namunani laboratoriya olib kelishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar yozib qo‘yiladi. Ichimlik suvida olib boriladigan laborator nazorat nafaqat suvning sifatini baholashga, balki uni ifloslanish xolatlarda bunga sabab bo‘lgan omillarni aniqlash, tozalash samaradorligini oshirish uchun chora tadbirlar belgilashga asos bo‘ladi.

### **§2.3. Suv omilini aholi salomatligiga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganishni o‘ziga xos xususiyatlari**

Aholini sanitar osoyishtaligi va salomatlik holatiga suv omilining ta’sirini o‘rganish atmosfera havosi, tuproq, oziq-ovqat mahsulotlarini ifloslanishi kabi boshqa salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning ta’sirini hisobga olish bilan o‘tkazilishi lozim. Suv omilining ta’sirini o‘ziga xosliklarini aniqlash juda muhim amaliy ahamiyatga ega. Bu organizmga zaharli moddalarni (pestitsidlar, mineral o‘g‘itlar, sanoat korxonasi chiqindilarining komponentlari, maishiy chiqindilarning destruktsiya mahsulotlari), shuningdek aholi uchun epidemiologik xavf bilan bog‘liq, chunki suv juda ko‘p yuqumli kasallik qo‘zg‘atuvchilarini uzatilishida yetakchi omil bo‘lib hisoblanadi.

Tadqiqotlar sanitar jihatdan zararli omillarning tahlilidan boshlanadi, ular suv iste’moliga ta’luqlidir. Buning uchun dastlab suv manbasi juda puxta sanitar tekshirishdan o‘tkaziladi, so‘ngra suv sifati mayda detallargacha o‘rganiladi. Ichimlik suvi va suv ta’moti manbalari sifatini baholash natijasida aholining salomatlik holatiga suvning u yoki bu komponentini ta’sir etishi mumkinligi to‘g‘risidagi ishchi gepoteza ishlab chiqildi. Uni tasdiqlash uchun o‘rganilgan suv manbalari joylashgan va suvdan foydalanuvchi hudud aholisidagi kasallanish holati o‘rganiladi. Uni o‘rganishga tibbiy yordamga murojaatlar va aholining o‘limi holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish, nozologik shakllarni mayda qismlargacha o‘rganish asosida erishiladi. Suvda bir qator kimyoviy moddalarni haddan tashqari ko‘p bo‘lishi yoki ularning miqdorini me’yordan kam bo‘lishi odam organizmida jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirib, katta muammolarni sababiga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun ichimlik suv tarkibida mazkur moddalarni me’yordan

ortiqcha bo‘lishi yoki kam bo‘lish holatlari aniqlanganda aholini salomatlik ko‘rsatkichlarida yuzaga keladigan o‘zgarishlar albatta nazorat olinishi va doimiy ravishda monitoring qilib borilishi lozim. Ma’lumki suv orqali qorin tifi, paratif, ichburug‘, yuqumli gepatit, leptospiroz, terining yiringli kasalliklari va h.k. kabi qator yuqumli kasallik qo‘zg‘atuvchilari yuqishi mumkin. Bunda birinchi navbatda o‘tkir ichak infektsiya kasalliklariga e’tibor qaratish lozim. Keyingi o‘rinlarda esa tulyaremiya, leptospiroz, endemik gepatit kabi kasalliklarning mavjudligiga e’tibor qaratiladi. Kasallik qo‘zg‘atuvchisi kasal hayvondan odamga yuqadigan kasalliklar mavjud bo‘lganida esa ushbu hududda kasal hayvonlarning epizootiysi mavjudligiga e’tibor qaratish lozim. Aholining kasallanish holati to‘g‘risida to‘plangan barcha ma’lumotlar puxta o‘rganilishi va statistik qayta ishlanishi lozim. Kasalliklarning mavjudligini konstatatsiyasi doim ham uni suv bilan bog‘liqligidan guvohlik bermaydi. Shuning uchun suv bilan bog‘liq bo‘lgan epidemik holatlarni bilish uchun ularni kechishini o‘ziga xosliklarini aniqlash va bilish nihoyatda muhim. Salomatlik holatiga suvning kimyoviy ifoslantiruvchilarining ta’sirini o‘rganishda, 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarni tekshirish, kelib chiqishi suv bo‘lgan yuqumli omillar o‘rganilganda esa–bolalar, o‘smirlar va katta yoshli aholi o‘rtasida tekshirishlar olib borilishi kerak.

**III-BOB. FARG‘ONA VILOYATI HUDUDINING TAVSIFI,  
GIDROGEOLOGIK TUZILISHI VA ICHIMLIK SUV TA’MINOTINING  
O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**§3.1. Farg‘ona viloyatining qisqacha tavsifi**

Farg‘ona viloyati O‘zbekiston Respublikasida ilk tashkil etilgan viloyatlardan biri hisoblanadi. U 1938 yil 15 yanvarda tuzilgan. Farg‘ona viloyati hududiy jihatdan 15 ta tuman va 4 ta shaharga bo‘lingan: 15 tumanlari—Bog‘dod, Beshariq, Buvayda, Dang‘ara, Yozyovon, Oltiariq, Qo‘shtepa, Rishton, So‘x Toshloq, Uchko‘prik, Farg‘ona, Furqat, Quva va O‘zbekiston; 4ta shahar: Farg‘ona, Marg‘ilon, Qo‘qon, Quvasoy shaharlari kiradi (3.1-rasmga qarang). Maydoni 6,76 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 4 mln. kishiga yaqin (3 819 963 ming kishi 2021 yil holatiga) (11,0 foiz). Demografik sig‘imi bo‘yicha u Samarqand viloyatidan keyingi 3-o‘rinda turadi. Viloyatning ma’muriy markazi—Farg‘ona shahri (1907 yilgacha—Yangi Marg‘ilon; 1907-1924—yillarda Skobelev deb atalgan), maydoni 0,09 ming m<sup>2</sup>, aholisi 293512 ming kishi (2021 yil holatiga). Shahar Farg‘ona vodiysining janubiy qismida, Oloy tog‘larining etagida, 580 metr balandlikda joylashgan. Iqlimi kontinental.



3.1-rasm. Farg‘ona viloyatini xaritasi

Farg‘ona viloyati mamlakatimizda sanoati rivojlangan mintaqalardan biri hisoblanadi. U Respublikaning 12,7 sanoat va 10,6 foiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan ta’minlaydi. Hududiy mehnat taqsimotida yengil, oziq-ovqat, neft va neftni qayta ishslash, kimyo sanoati hamda paxta, pilla va meva yetishtirish bilan ajralib turadi.

**Geografik joylanishi va tabiiy boyliklari.** Viloyat Farg‘ona vodiysining g‘arbiy va janubiy qismida joylashgan. U g‘arbda va janubi-g‘arbda Tojikiston Respublikasining Sutd viloyati, janubda Kirg‘iziston Respublikasining O‘sh va Botken viloyatlari bilan chegaradosh, Respublikamizda esa, shimolda Namangan va sharqda Andijon viloyatlari bilan qo‘schnichilik qiladi. Viloyatning shimoli-g‘arbidagi chegarasi Sirdaryo oqimi bo‘ylab o‘tadi. Farg‘ona viloyatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, uning hududi geografik jihatdan yaxlit emas; Farg‘ona tumanining bir qismi (Shoximardon) va So‘x tumani tamomila Kirg‘iziston hududining ichida. Bunday geo-siyosiy holat ayniqsa hozirgi davrda, ma’lum kiyinchiliklarga olib keladi.

Yer usti tuzilishi uncha murakkab emas, u janubdan shimolga tomon pasayib boradi. Shimolda mutloq; balandlik dengiz satxidan 360 — 380 m, janubda eng baland nuqtalar 2800 m ga yetadi (Turkiston tizmasining shimoliy qismi, So‘x tumani hududida). Relef shaklining bunday tuzilishi viloyat janubiy qismini tog‘lardan oqib chiqadigan soylar suvi bilan sug‘orish uchun tabiiy qulaylik yaratadi. Iqlimi quruq, kontinental; yillik yog‘in miqdori Namangan viloyatidan sal ko‘proq, Andijondan esa biroz kamroq (300 — 400 mm atrofida). Viloyatning janubiy qismida Markaziy Farg‘ona cho‘llari — Qoraqalpoq va Yozyovon cho‘llari mavjud bo‘lib, ularning davomi qo‘shti Namangan va Andijon viloyatlariga o‘tib ketadi. Ushbu cho‘llarni o‘zlashtirish faqat suniy sug‘orish yordamida bo‘lishi mumkin. Chegaradagi Sirdaryoni hisoblamaganda bu yerda katta suv manbalari yo‘q.

**§3.2. Suv resurs potentsialining tahlili va Farg‘ona viloyatining suv ob’ektlarini sifati.**

Farg‘ona viloyatida soylar juda ko‘p. Biroq, bu yerda soylar qadimdan klassik tipdagi vohalarni vujudga keltirganki, bunday madaniy landshaftlar Respublikamizda juda kam uchraydi. Chunonchi, So‘x va Isfara soylari tog‘ oraliqlaridan tekislikka chiqish qismida panjasimon taralib ketadi, juda ko‘p kanal va ariqlarni suv bilan ta‘minlaydi. Binobarin, Farg‘ona viloyatida ariqlar juda ko‘p. Masalan, So‘x soyi Rishton, Samarqand, Nursux ariqlariga, Qo‘qonsoy, Yanginayman, Tomosha, Avronbor, Shohimardon kanallariga taqsimlanib ketadi, Isfara daryosining quyi qismidan esa Oltiariq, Yangiqishloq ariqlari, Beshkapa, Isfara, Janubiy Isfara, Jo‘ga kanallari boshlanadi. So‘x-Qo‘qon vohasini, Isfara-Beshariq vohasini shakllantirgan. Kichik, Sho‘rsuv soyi esa qadimda Yaypanni sug‘organ. Xuddi shunga o‘xshash Shohimardonsov Vodilni va Oltiariqsoy orqali Oltiariq vohasini vujudga keltirgan. Viloyat sharqida Isfayramsov (Marg‘ilonsov) ikkinchi katta voha — Marg‘ilanni suv bilan ta‘minlagan. Shuningdek, bu yerda yangi shahar—Yangi Marg‘ilon (Skobelev, Farg‘ona) ham qurilgan. Isfayramsoydan yuqoriroqda Quvasoy, Nayman arig‘i va boshqalar suv oladi. Shunday qilib, Farg‘ona viloyati turli katta-kichiklikdagi soylar va ularning suv sig‘imiga mos vohalardan iborat. Ammo, bu tabiiy suv manbalarining keyinchalik ishlab chiqarishni rivojlantirish va aholini suv bilan ta‘minlashga quvvati yetmay qolgan. Mazkur muammoni hal qilish maqsadida vodiyya eng uzun U.Yusupov nomidagi Katta Farg‘ona hamda Katta Andijon kanallari qurilgan. Katta Farg‘ona kanali ancha janubroqdan, adir etaklaridan o‘tib, qadimgi voha va vohachalarni birlashtirgan, Katta Andijon kanali esa asosan Markaziy Farg‘ona cho‘llarini sug‘orish uchun mo‘ljallangan. Viloyatda Karkidon, Qo‘rg‘ontepa kabi suv omborlari ham mavjud. Ular tabiiy va sun‘iy suv manbalari bilan birgalikda katta maydonlarni sug‘oradi. Biroq, yuqorida ariq va kanallar bo‘lsa, viloyatning shimolida, pastda ularning aksi-zovurlar (O‘rta Qiziltepa, Pastki Qiziltepa, Rishton, Bog‘dod, Shimoliy Bog‘dod kollektorlari) qurilgan. Farg‘onada, butun vodiyya bo‘lganidek, rekreatsiya resurslari ham bor. Vodil, Shohimardon, Chimyon, So‘x va boshqa mintaqalar aholining dam olishi va salomatligini tiklash uchun xizmat qiladi. Farg‘ona viloyati suv havzalarini ifloslantiruvchi asosiy manbalarning

gigiyenik tavsifi shundan iboratki, Farg‘ona viloyatida ishlab chiqarishning barcha tarmoqlari mavjud va uni ancha shakllangan ko‘p yo‘nalishli hududiy-iqtisodiy majmua sifatida ta’riflash mumkin. Qolaversa, bu yerda O‘zbekistonda «birinchi» bo‘lib qurilgan talaygina ishlab chiqarish korxonalari bor: Farg‘ona to‘qimachilik, issiklik elektr stantsiyasi, Chimyon neft qazib olish, Oltiariq neftni qayta ishslash, Qo‘qon paypoq ishlab chiqarish, Qo‘qon superfosfat, Marg‘ilon ipakchilik kabi sanoat korxonalari shular jumlasiga kiradi. Mustaqillik yillarida xo‘jalikning turli sohalarini rivojlanishiga katta e’tibor berilmoqda. Viloyatda 70 ga yaqin qo‘shma korxona, shuningdek, xorijiy mamlakat korxonasi mavjud «DEU Tekstayl Kompani»). Viloyatda quyidagi QK (qo‘shma korxona) mavjud: Dangara tumanida «Beshtov» O‘zbek—Rossiya, Rishtonda sopol idishlari ishlab chiqaruvchi O‘zbek—BAA, Qo‘qonda O‘zbek—Rossiya «Qo‘qon—mebel», O‘zbek—Isroil «Xo‘qand», Marg‘ilondagi O‘zbek-Gruziya «Dil—Bad Kompani» va boshqalar. Bulardan tashqari, Farg‘ona shahrida «O‘zsalomon», «Lufer» (teri mahsulotlari), Yevroosiyo TAPO-Disk, Bag‘dodda «Fayz—Yavar» (mebel), Yozyovonda «Mehnat» (polietilen plynokalari), Quvada «Aqror» (sut mahsulotlari), Beshariqda «Farteks», Quvasoyda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Yaqinda Yaponiya bilan birgalikda Fargona neftni qayta ishslash zavodi ta’mirlanib, bu yerda toza dizel yonilg‘isi ham ishlab chiqariladigan bo‘ldi. Hammasi bo‘lib 40 ga yaqin ishlab turgan QK mavjud, shundan sanoatda 23 ta. sanoat majmuasida Farg‘onadagi yirik issiqlik markazi va Quvasoydagagi IES, kimyo va neft kamyosi, neftni qayta ishslash zavodlari (Farg‘ona va Oltiariq), azot va superfosfat ishlab chiqaruvchi korxonalar (Farg‘ona va Qo‘qon), furan birikmalari korxonasi (Farg‘ona) kabilar katta ahamiyatga ega. Qurilish sanoati Quvasoyda, to‘qimachilik mashinasozligi Qo‘qonda, gaz apparati zavodi Farg‘onada, don mahsulotlari kombinati Quvada joylashgan.

Farg‘ona viloyati tuprog‘ining geoekologik holati o‘rganilganda quyidagilar aniqlandi, so‘nggi yillarda Markaziy Farg‘onaning aksariyat yerlarida sug‘oriladigan tuproqning ekologik va meliorativ holati keskin yomonlashdi, yer osti suvlarining minerallashish darajasi “kritik” chuqurlikdan ko‘tarildi, suv

tarkibida tuzlarni to‘planish holati kuchaydi. Tabiiy muhitning gidrogeologik, gidrologik, geokimiyoviy holatlari tobora jiddiy o‘zgarishlarga uchrab bormoqda.

Farg‘ona viloyati cho‘l zonasiga chegarasida va kulrang tuproq mintaqasida joylashgan. Uning g‘arbiy chegaralaridan sharqqacha va markaziy qismidan tog‘li chegaragacha tuproqning barcha turlari joylashgan. G‘arbiy cho‘l qismida asosan o‘tloqli allyuvial va o‘tloq tuproqli hududlar joylashgan. Shuning uchun Farg‘ona vodiysining asosiy dehqonchilik ishlari sug‘oriladigan amaliyotlar bilan bog‘liq.

Tuproq tarkibidagi tuzni yuvish uchun qamrab olinadigan hududning umumiy maydonni 22904,7 ga ni tashkil etadi, ulardan So‘x-Pop vertikal yo‘nalishi bo‘yicha 5941,5 ga, Vodil-Nanay–8292,2 ga va Xonobod-Beshariq gorizontal yo‘nalishi bo‘ylab 8671,0 ga, yer osti suvlarining oqim davomiyligi mos holda 80,2 va 245,0 km ni tashkil etadi. Bu yerdagi 86 asosiy kesmalarda va grunt suvlarining 30 namunalarida 0–30, 0–50, 0–100, 0–200 sm chuqurliklarda yer osti suvlari tarkibidagi oson eruvchi tuzlar miqdori va  $\text{HCO}_3$ , Cl,  $\text{SO}_4$ , Ca, Mg, Na va zinch cho‘kma miqdori aniqlandi.

Farg‘ona viloyati yer osti grunt suvlarini tuproqning turli chuqurliklarida joylashadi, oddiy kulrang tuproq tarqalgan hududlarda grunt suvlarini 15–20 metr chuqurlikda, och kulrangli hududlarda 4–6 metr chuqurlikda joylashsa, markaziy Farg‘onaning gidromorf tuprog‘ida joylashgan grunt suvlarini yer yuzasidan 0,5–2,0 metr chuqurlikda joylashadi (3.1-jadvalga qarang).

3.1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadi, Markaziy Farg‘onaning o‘tloq tuproqlaridagi grunt suvlarini yer ostida 106–170 sm chuqurligida joylashadi, ularning minerallashganlik darajasi zinch cho‘kma bo‘yicha 2,395–3,605 g/l, xloridlar miqdori bo‘yicha esa 0,056–0,224 g/l chegarasida o‘zgarib turadi. Bu yerdagi grunt suvlarini asosan sulfatlar miqdorining yuqoriligi sababli tuzlanishi bilan tavsiflanadi. Tuzlarning sifat tarkibida asosan  $\text{CaSO}_4$  ustunlikka ega bo‘ladi, undan keyingi ikkinchi o‘rinni esa  $\text{MgSO}_4$  egallaydi, ularning tarkibidagi zaharli tuzlarning miqdori oson eruvchi tuzlarning umumiy miqdorini 30–44 % ni tashkil etgan holda o‘zgarib turadi (1-ilovaga qarang).

**3.1-jadval**

**Farg‘ona viloyati gidromorf tuprog‘i grunt suvlarining minerallashish  
darajasi va kimyoviy tarkibi**

kesimida	chuqurligi, sm	zich qoldiq	HCO <sub>3</sub>	Cl	SO <sub>4</sub>	Ca	Mg	Na	Tuzlanish miqdori	
			g/l							Turi
7	150	2,395	0,317	0,224	1,107	0,460	0,036	0,199	x-s	kuchsiz
8	170	3,605	0,665	0,196	1,785	0,540	0,306	0,033	S	o‘rta
13	150	2,820	0,262	0,203	1,522	0,470	0,210	0,022	S	kuchsiz
19	170	2,830	0,592	0,070	1,399	0,450	0,198	0,047	S	kuchsiz
20	130	2,490	0,409	0,203	1,183	0,420	0,194	0,003	x-s	kuchsiz
21	170	2,870	0,268	0,056	1,769	0,500	0,210	0,013	S	kuchsiz
22	154	2,995	0,354	0,063	1,761	0,630	0,138	0,033	S	kuchsiz
23	106	3,160	0,317	0,070	1,921	0,500	0,264	0,011	S	o‘rta

Farg‘ona viloyatining asosiy qismini tashkil etuvchi oddiy bo‘z tuproqda grunt suvlari yer ostining yanada chuqur qismida (20-50m) joylashgan bo‘lib, u oson eriydigan tuzlardan ozod bo‘lgan, faqat och rangdagi bo‘z tuproqli hududlardagi yer osti grunt suvlarining tarkibida mineral moddalar miqdori me’yordan ancha yuqoriligi bilan ajralib turadi (3.2-jadvalga qarang).

Farg‘ona vodiysidagi tuproqning tuzlanish darajasini yanada keng miqyosda tarqalishiga asosiy sabab bo‘lib, relefning joylashishi va gidrogeologik sharoitlarning mavjudligi, mintaqani tog‘lar bilan o‘rab olinganligi hisoblanadi.

Kuchsiz drenajlangan va kuchli tuzlangan tekisliklarni, shuningdek yuqori tog‘ oldi tekisliklarini o‘zlashtirilishi quyi turuvchi tuproqni suv bilan bostirilishiga sabab bo‘ldi, bularning barchasi esa tabiiy geokimyoviy oqimlarni buzilishiga,

geokimyoviy landshaftlarda tuz muvozanatini o‘zgarishlarini tuzlanish jarayonlari tomoniga faollashishiga hamda tuzlarni reliktiv zahira tomoniga siljishiga olib keldi. Bundan tashqari, sug‘orish tizimlarining past texnik darajasi, sug‘orish uchun ishlatiladigan suv miqdorini noratsional sur’atda isrof bo‘lishiga olib keldi, bu esa sug‘oriladigan yerlar tuprog‘ida minerallashish darajasini ortishiga sabab bo‘ldi. Dalalarda faqat paxta yetishtirish, uzoq vaqt davomida guruch uchun foydalaniladigan yer maydonlarini kattalashib borishi, sug‘orish me’yorlarini to‘liq hisobga olmasdan uzoq vaqt davomida yerlarni hech qanday nazoratlarsiz sug‘orib borilishi, bularning barchasi tuproqning umumiy degradatsiyasi fonida tuproqni ikkilamchi tuzlanishi va ikkilamchi gidromorfizmini kuchayishiga sabab bo‘ladi.

### 3.2-jadval

#### Farg‘ona viloyatining sug‘oriladigan tuproqlarida oson eruvchi tuz zahiralari

Tuproq	№ kesimida	Qavat, sm			
		0–30	0–50	0–100	0–200
Oddiy kulrang tuproq	30	5,59	12,63	20,50	72,10
Och rangdagi kulrang tuproq	10	10,14	18,84	43,06	103,95
O‘tloqli kulrang tuproq	12	29,81	47,95	101,43	228,25
O‘tloqlar	42	52,58	89,84	183,54	384,97
O‘tloq-allyuvial tuproq	21	118,42	184,71	291,16	417,09
O‘tloq-tuzli tuproqlar	15	134,61	205,62	332,16	710,86

Yuqoridagilarni hisobga olib shunday xulosa qilish mumkinki, mintaqadagi ekologik va meliorativ vaziyatni yaxshilash uchun: yer osti suvlariga tuproq orqali mineral moddalarni yuvilib tushishini oldini olish, drenajlar ish samaradorligini yaxshilash, sug‘orish uchun ishlatiladigan suv sarfi miqdorini kamaytirish kabi chora tadbirlar majmuasini qo‘llash tavsiya etiladi.

### **§3.3. Farg‘ona shahri aholisini ichimlik suvi bilan ta’minlash manbalarini ekologo-gigiyenik tavsifi**

“Farg‘ona viloyati va Farg‘ona shahrini ichimlik suvi ta’minotini gigiyenik baholash va aholiga salomatligiga ta’sir omillarni o‘rganish” yuzasidan “O‘zbekgidrogiologiya” DUK Farg‘ona dala gidrogeologiya ekspeditsiyasi bergen ma’lumotlarga ko‘ra, Farg‘ona viloyati hududida dastlab olib borilgan gidrogeologik tadqiqotlar bilan 5 ta yer osti suv manbalari aniqlangan bo‘lib, ularning bashoratlangan suv zahiralari jami 8169,1 ming metr kub/kunni tashkil qiladi. Shundan 2706 ming metr kub/kunisi (33 foiz) mineralizatsiyasi 1,0 g/l gacha bo‘lgani hisoblanadi. “O‘zbekgidrogeologiya” DUKning Farg‘ona dala hidrogeologiya ekspeditsiyasi tomonidan olib borilayotgan yer osti suvlari davlat monitoringi ma’lumotlariga muvofiq viloyatda 9290 ta (shundan 6823 tasi ishchi holatda) foydalanish quduqlari ro‘yxatga olingan bo‘lib, ular yordamida olinayotgan yer osti suvlarining miqdori jami 5087,8 ming metr kub/kunni tashkil qilmoqda.

Shundan:

- ichimlik uchun – 1236,45 ming m<sub>3</sub>/kun;
- texnik va ishlab chiqarish uchun - 629,64 ming m<sub>3</sub>/kun;
- yerlarni sug‘orish uchun - 1539,87 ming m<sub>3</sub>/kun;
- melioratsiya uchun - 1669,32 ming m<sub>3</sub>/kun;
- va boshqalar uchun – 0,36 ming m<sub>3</sub>/kun.

Shu bilan birga, so‘nggi yillarda qishloq xo‘jaligi hamda boshqa iqtisodiyot ob’ektlarining rivojlanishi va bunda tabiat muhofazasiga qaratilgan tadbirlarning talab darajasida yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli ayrim hududlarda yer osti suvlari sifatining salbiy o‘zgarishlari kuzatilmoqda.

Quyida, yer osti suv manbalari kesimida bat afsil ma’lumot keltirilmoqda.

**So‘x yer osti suv manbalarining bashoratlangan zaxiralari 3126 ming metr kub/kunni tashkil qiladi.** Shundan 1207 ming metr kub/kunisi (38,6 foiz) mineralizatsiyasi 1,0 g/l gacha bo‘lgani hisoblanadi. Ushbu suv manbasi Farg‘ona viloyatining janubiy-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, asosan Qo‘qon, Yaypan,

Rishton shaharlari va O‘zbekiston, Furqat, Dang‘ara, Uchko‘prik, Buvayda, Bog‘dod va Rishton tumanlari aholisi va iqtisodiyot ob’ektlarini suv bilan ta’minlash uchun foydalaniladi. Tegishlicha topshiriqlarga muvofiq dastlab olib borilgan gidrogeologik tadqiqotlar natijasi bilan 2022 yil 1 yanvar holatiga manbasi bo‘yicha jami 359,16 ming metr kub/sut miqdoridagi yer osti suv zaxiralari turli maqsadlarda foydalanish uchun tasdiqlangan. So‘nggi yillardagi qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlanishi natijasida So‘x yer osti suv manbasining So‘x-Isfara adir oldi qismi, g‘arbiy va sharqiy sektorlarning yuqori qismlarida yer osti suvlarining ifloslanishi kuzatilmoqda (3.3-jadvalga qarang).

### 3.3-jadval

#### So‘x yer osti suv manbasidan olinadigan suvning sifat ko‘rsatkichlari

Nº	Ko‘rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil
1	pH	6,9±0,01	6,9±0,01	7,00±0,02
2	Oksidlanish	4,06±0,94	1,94±0,86	1,40±0,24
3	Umumiy qattiqlik	13,85±59,3	10,25±1,52	10,05±1,38
4	Quruq qoldiq	528,2±149,7	426,1±103,4	525,6±125,1
5	Sulfatlar	282,5±45,66	258,4±68,74	298,9±31,18
6	Xloridlar	28,67±7,73	27,24±9,23	27,86±11,67
7	Kalsiy	83,87±21,14	82,85±20,11	62,29±19,90
8	Temir	0,26±0,28	0,03±0,06	0,04±0,07
9	Nitritlar	0,094±0,016	0,092±0,014	0,090±0,011

3.3-jadvalda keltirib o‘tilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, aholiga markazlashtirilgan holda yetkazib beriladigan suv sifati o‘zining minerallik tarkibi bo‘yicha yildan yilga salbiy o‘zgarishlarga uchramoqda. Xususan, yer osti suv manbasining janubiy-g‘arbiy qismida joylashgan Yaypan shahrining markaziy suv olish inshootidagi quduqlarda ham yer osti suvlarining ifloslanishi kuzatilgan (3.4-jadvalga qarang). So‘nggi yillarda suv olish inshootidan olinayotgan suvning umumiy qattiqligi O‘zDSt 950:2011 “Ichimlik suvi” talablariga mos kelmay qolganligi sababli 2021 yilda yangi uchastka bo‘yicha 3,57 ming metr kub/sut

miqdorida yangi yer osti ichimlik suv zahiralari baholanib, foydalanishga topshirildi.

### 3.4-jadval

#### **Yaypan shahrining markaziy suv olish inshootidagi quduqlarid yer osti suvlarining ifloslanishi ko‘rsatkichlari (yillar bo‘yicha)**

Quduq №	Yillar (mineralizatsiya, mg/l/umumiy qattiqligi, mg-ekvl/l)					
	1980	1990	2000	2010	2018	2022
1 Burg‘uli quduq (49)	676/7,7	712/8,8	724/9,3	736/9,8	750/10,8	790/11,2
2 Burg‘uli quduq (50)	682/8,1	684/8,9	692/9,1	702/9,4	718/9,9	755/11,0


**Isfara yer osti suv manbasining bashoratlangan zahirasi** 719,7 ming metr kub/kunni tashkil qilib, shundan 443,2 ming metr kub/kunisi (62 foizi) mineralizatsiyasi 1,0 g/l gacha bo‘lganidir. Tegishlichcha topshiriqlarga muvofiq dastlab olib borilgan gidrogeologik tadqiqotlar natijasi bilan 2022 yil 1 yanvar holatiga suv manbasi bo‘yicha jami 42,29 ming metr kub/sut miqdorida yer osti suv zahiralari turli maqsadlarda foydalanish uchun tasdiqlangan. Ushbu suv manbasi Farg‘ona viloyatining g‘arbiy, janubi-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, asosan Beshariq shahri va Beshariq tumani aholisi hamda iqtisodiyot ob’ektlarini suv bilan ta’minlaydi. Beshariq shahri aholisini xo‘jalik-ichimlik suvi bilan ta’minalash uchun “Olmazor” uchastkasida 1988 yili 25,1 ming metr kub/sut miqdorida yer osti ichimlik suv zahiralari tasdiqlangan. Isfara suv manbasining to‘yinish manbai asosan Isfara daryosi suvi hisoblanadi. 1990 yillardan boshlab, mazkur daryo suvi sifati yomonlasha boshlagan (asosan yilning kamsuv mavsumida). Hozirgi kunga kelib, janubiy qismdagi adirlik maydonlarni qishloq xo‘jaligi maqsadida o‘zlashtirish va Isfara daryosining ifloslangan suvidan ekin yerlarni sug‘orish hisobiga suv manbasining to‘yinish qismidagi yer osti suvlari iste’molga yaroqsiz holga kelgan (3.5-jadvalga qarang).

### Isfara yer osti suv manbasidan olinadigan suvning sifat ko'rsatkichlari

Nº	Ko'rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil
1	pH	6,8±0,02	7,01±0,02	7,02±0,03
2	Oksidlanish	2,07±0,95	1,95±0,86	1,42±0,20
3	Umumiy qattiqlik	14,85±58,3	10,22±1,50	10,04±1,35
4	Quruq qoldiq	530,2±149,9	425,2±103,4	500,6±121,1
5	Sulfatlar	280,5±45,60	255,4±67,74	299,9±32,18
6	Xloridlar	28,65±7,73	27,20±9,23	27,80±11,60
7	Kalsiy	83,85±21,11	82,80±20,12	72,30±19,92
8	Temir	0,04±0,28	0,03±0,05	0,04±0,07
9	Nitritlar	0,093±0,016	0,091±0,014	0,090±0,010

Keltirilgan jadvaldan ko'rinish turibdiki, yer osti suv manbasining qattiqlik ko'rsatkichlari gigiyenik me'yorlarga mos kelmaydi, bu asosan Isfara daryosi suvlarining sifat ko'rsatkichi talabga mos kelmasligi bilan bog'liq.


Farg'ona dala gidrogeologiya ekspeditsiyasi tomonidan olib borilayotgan monitoring kuzatuv ishlari natijasiga muvofiq, so'nggi yillarda Isfara yer osti suv manbasining to'yinish qismida joylashgan 457-sonli kuzatuv qudug'i suvining umumiy qattiqligi me'yordan ikki baravarga oshib ketgan (3.2-rasmga qarang).



**3.2-rasm. 457 sonli kuzatuv qudug'ida yer osti suvining qattiqligini o'zgarishi, mg-ekv/l**

Xozirgi kunda Beshariq shahrini ichimlik suv bilan ta'minlovchi "Olmazor" markaziy suv olish inshootida olinayotgan suvning umumiy qattiqligi belgilangan

me'yordan (10mg-ekv/l) oshib ketganligi sababli foydalanishdan chiqish arafasida (3.3-rasmga qarang).



### **3.3-rasm. Beshariq shahrining «Olmazor» suv olish inshootining umumiyl suv tarmog‘idagi suvning kattiqlik darajasini o‘zgarishidiagrammasi, mg-ekv/l**

Yuqoridagi holatlarni hisobga olgan holda, mazkur yer osti suv manbasining tegishlicha qismida yer osti suvlarini muhofaza qilishga qaratilgan choralarни qo‘llash masalasi hozirda umumxalq muhokamasida bo‘lgan (ID 65078, 01.08.2022y.), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer osti chuchuk suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori loyihasi bilan nazarda tutilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, Isfara yer osti suv manbasida kuzatilayotgan ifloslanish jarayonini to‘xtatish va suv sifatini tiklash maqsadida, sug‘orish mavsumidan tashqari davrda samarasiz oqib o‘tayotgan Norin daryosining chuchuk suvlari hisobiga yer osti suv manbasini sun’iy to‘yintirishni asoslash bo‘yicha gidrogeologik tadqiqotlar boshlangan.

**Oltiariq-Besholish yer osti suv manbasi** Farg‘ona viloyatining markaziyl qismida joylashgan bo‘lib, asosan Oltiariq, Quva, Yozyovon, Toshloq, Qo‘shtepa tumanlari xo‘jalik-ichimlik suv ta’minoti va boshqa maqsadlar uchun foydalaniladi. Yer osti suv manbasining bashoratlangan zaxirasi 2492,6 ming metr kub/kunni tashkil qilib, shundan 285,1 ming metr kub/kunisi (11 foizi) mineralizatsiyasi 1,0

g/l gacha bo‘lganidir. Tegishlicha topshiriqlarga muvofiq dastlab olib borilgan gidrogeologik tadqiqotlar natijasi bilan 2022 yil 1 yanvar holatiga yer osti suv manbasining jami 209,49 ming metr kub/sut miqdoridagi yer osti suv zaxiralari turli maqsadlarda foydalanish uchun tasdiqlangan. Mazkur suv manbasining to‘yinish manbai asosan Shoximardonsov hamda Isfayramsov hisoblanadi. Ushbu soylar suvi sifati qoniqarli, ya’ni mineralizatsiyasi 1 g/l gachani tashkil etadi. Lekin, texnogen omillar ta’sirida (Janubiy Farg‘ona adirliklarining o‘zlashtirilishi, Karkidon suv ombori faoliyati) yer osti suv manbasining janubiy qismlaridagi ba’zi mavjud zahiralar sifati o‘zgarib, ichimlikka yaroqsiz holga kelgan (3.6-jadvalga qarang).

### **3.6-jadval**

#### **Oltiariq-Besholish yer osti suv manbasidan olinadigan suvning sifat ko‘rsatkichlari**

<b>№</b>	<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>2019 yil</b>	<b>2020 yil</b>	<b>2021 yil</b>
1	pH	6,8±0,01	6,9±0,01	7,00±0,02
2	Oksidlanish	2,04±0,94	1,93±0,85	1,41±0,78
3	Umumiy qattiqlik	13,81±1,59	10,20±1,50	10,05±1,31
4	Quruq qoldiq	520,2±148,7	426,2±105,4	526,6±126,1
5	Sulfatlar	283,5±36,60	268,4±30,74	298,9±37,18
6	Xloridlar	28,55±7,72	27,20±9,21	27,82±11,50
7	Kalsiy	83,67±21,15	82,84±20,12	80,29±19,90
8	Temir	0,02±0,05	0,03±0,06	0,04±0,02
9	Nitritlar	0,093±0,016	0,092±0,014	0,090±0,011

Jadval ma’lumotlari mazkur suv manbasi suvlarini asosan texnogen chiqindilar bilan ifloslanishidan guvohlik beradi. Bu esa mazkur suv manbasini aholiga markazlashtirilgan holda ichimlik suvi sifatida foydalanishiga qarshilik ko‘rsatuvchi omil bo‘lib hisoblanadi.

Xususan, Oltiariq va Toshloq yer osti suv olish inshootlari bo‘yicha muvofiq ravishda dastlab tasdiqlangan 55,0 va 12,8 ming metr kub/kun miqdoridagi ichimlik suv zaxiralaring sifati me’yordan 1,5 baravargacha oshib ketgan (2-3-ilovaga qarang).

Yuqoridagi holatlarni hisobga olgan holda, 2021 yilda Oltiariq hamda Toshloq tuman markazlari ichimlik suv ta'minoti uchun yangi uchastkalarda muvofiq ravishda 2,41 va 6,0 ming metr kub/kun miqdorida yer osti ichimlik suv zaxiralari tasdiqlanib, foydalanishga topshirildi.

**Chimyon-Avval yer osti suv manbasi** viloyatning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, asosan Quvasoy shahri va Farg'ona tumanining xo'jalik-ichimlik hamda boshqa maqsadlari uchun foydalaniladi. Chimyon-Avval yer osti suv manbasining asosiy to'yinish manbai Shoximardonsov hamda Isfayramsov daryolari hisoblanadi. Suv manbasi bo'yicha bashoratlangan zahiralar 1226 ming metr kub/kunni tashkil qilib, shundan 518,4 ming metr kub/kunisi (42 foizi) mineralizatsiyasi 1,0 g/l gacha bo'lganidir. Tegishlicha topshiriqlarga muvofiq dastlab olib borilgan gidrogeologik tadqiqotlar natijasi bilan 2022 yil 1 yanvar holatiga suv manbasi bo'yicha jami 34,67 ming metr kub/sut miqdoridagi yer osti suv zahiralari turli maqsadlarda foydalanish uchun tasdiqlangan (3.7-jadvalga qarang).

### 3.7-jadval

#### **Chimyon-Avval yer osti suv manbasidan olinadigan suvning sifat ko'rsatkichlari**

Nº	Ko'rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil
1	pH	6,5±0,01	6,6±0,01	7,00±0,02
2	Oksidlanish	1,54±0,68	1,95±0,87	1,99±0,94
3	Umumiy qattiqlik	11,85±58,3	10,50±1,50	10,45±1,38
4	Quruq qoldiq	534,2±129,7	425,1±102,4	535,6±126,1
5	Sulfatlar	278,5±70,66	257,4±67,74	288,9±71,18
6	Xloridlar	28,60±11,34	27,20±9,20	28,86±11,67
7	Kalsiy	83,75±21,14	82,85±21,11	62,29±19,90
8	Temir	0,04±0,02	0,05±0,01	0,04±0,02
9	Nitritlar	0,094±0,016	0,092±0,014	0,090±0,011

Jadvalda berilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, aholiga markazlashtirilgan holda yetkazib beriladigan burg'uli quduqlarning suvlari asosan texnogen va inson faoliyati natijasida ifloslanishini va bu holat yer osti suvlarini muntazam ravishda minerallik ko'rsatkichlari, quruq qoldiq, mikroelementlar (kalsiy, temir) natijalari bo'yicha SanN vaQ talablariga mos kelmasligini bildiradi.

Farg'ona shahri uchun eng yirik ichimlik suv ta'minoti manbai bo'lgan "Pakana-Log'on xamda Avval" suv olish inshootlari bo'yicha 7.04.1990 Davlat zahiralari komissiyasi tomonidan 504,1 ming metr kub/sut miqdorida yer osti suv zahiralari tasdiqlangan. Mazkur Pakana-Log'on suv olish inshooti yer osti suvlarining sifati xam dastlabki tasdiqlangan davrga nisbatan o'zgarishini quyidagi chizmada va jadvalda xam ko'rish mumkin (4-ilova va 3.8-jadvalga qarang).

### 3.8-jadval


#### "Pakana-Log'on" suv manbasidan olinadigan suvning sifat ko'rsatkichlari

Nº	Ko'rsatkichlar	2019 yil	2020 yil	2021 yil
1	pH	7,0±0,01	6,9±0,01	7,01±0,03
2	Oksidlanish	1,20±0,34	1,95±0,83	1,50±0,64
3	Umumiy qattiqlik	13,80±1,59	12,25±1,55	11,05±1,38
4	Quruq qoldiq	538,2±151,7	430,1±123,4	528,6±135,1
5	Sulfatlar	278,5±45,66	268,4±38,74	299,9±51,18
6	Xloridlar	28,65±7,72	27,26±9,20	27,80±11,65
7	Kalsiy	83,87±21,14	82,85±20,11	62,29±19,90
8	Temir	0,02±0,02	0,03±0,06	0,04±0,07
9	Nitritlar	0,94±0,016	0,92±0,014	0,90±0,011

Jadvalda berilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, aholiga markazlashtirilgan holda yetkazib beriladigan burg'uli quduqlarning suvlari asosan inson faoliyati natijasida ifloslanishini va bu holat yer osti suvlarini muntazam ravishda minerallik ko'rsatkichlari, quruq qoldiq, mikroelementlar (kalsiy, temir) ko'rsatkichlari natijalari bo'yicha DavSt va SanNvaQ talablariga mos kelmasligini bildiradi.

**Yormazor yer osti suv manbasi** viloyat markazida, adirlik oraliq cho'kmasida joylashgan bo'lib, undagi sifatli suv resurslari tarqoq bo'lganligi sababli ichimlik maqsadlarida foydalanish uchun istiqbolli hisoblanmaydi. Suv manbasining bashoratlangan zahiralari 604,8 ming metr kub/kunni tashkil qilib, shundan 252,3 ming metr kub/kunisi (42 foizi) mineralizatsiyasi 1,0 g/l gacha bo'lgani hisoblanadi. 2022 yil 1 yanvar holatiga suv manbasi bo'yicha jami 3,0 ming metr kub/sut miqdoridagi yer osti suv zahiralari turli maqsadlarda foydalanish uchun tasdiqlangan.

Bugungi kunda Farg'ona viloyati hududida yer osti suvlari davlat monitoringi doirasida viloyat bo'yicha mavjud 331 ta kuzatuv, 150 ta ekspluatatsion quduqlarida va 7 ta buloqlarda doimiy ravishda mavjud suv resurslarining sifati va miqdori o'zgarishi kuzatilib, holati baholanib borilmoqda (3.4-rasmga qarang). Bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlar hamda natijalari yuzasidan axborot belgilangan tartibda har chorak yakuni bilan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo'mitasiga kiritilib borilmoqda.



### 3.4-rasm. Farg'ona viloyatida yer osti suvlarini xolati xaritasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 30-iyuldaggi PQ-1378-sonli qaroriga asosan Osiyo Taraqqiyot Banki ishtirokida Farg'ona shahar aholisini markazlashtirilgan ichimlik suv bilan ta'minlash ishlari olib borildi. Mazkur qarorga asosan shahar hududidagi 124 ko'chalardagi suv tarmog'i va Farg'ona tumani Oqtepa m.f.y da joylashgan "Pakana-Log'on" Bosh suv haydash inshootida

ta'mirlash va qayta qurish ishlari olib borildi. Farg'ona shahridagi 100 ta ko'chada 64 km li suv tarmog'i qayta ta'mirlandi, 24 ta ko'chaga 34,1 km yangi suv tarmog'i yotqizildi. Bundan tashqari, Yangi Marg'ilon shaharchasidagi "Marg'ilon" Bosh suv inshootida ikkita  $6000\text{ m}^3$  sig'imga ega bo'lgan toza suv saqlash rezervuarlari o'rnatildi, Farg'ona shahrini ichimlik suvi bilan ta'minlovchi "Pakana-Log'on" Bosh suv inshootidagi 68 ta burg'uli quduqning asosiy tarkibiy qismlari almashtirilib, ta'mirlandi, stantsiya hududida II- navbatdagi suv ko'tarib beruvchi nasoslar o'rnatildi.

Farg'ona shahri hududi beshta tarmoq (vodovod 1000 li 3ta, vodovod 900li, vodovod 700li) orqali ikki tomonlama "Pakana-Log'on" Bosh suv haydash inshooti tomonidan kuniga  $175\text{ ming m}^3$ , Qirguli suv ta'minoti inshootidan kunsiga  $57,47\text{ ming m}^3$  ichimlik suvi, jami bo'lib,  $232,47\text{ ming m}^3$  /kun ichimlik suvi aholiga markazlashtirilgan holda yetkazib beriladi.

Farg'ona shahar aholisini markazlashtirilgan holda ichimlik suv bilan ta'minlovchi "Pakana-Log'on" bosh suv ta'minoti inshootining hududi  $82\,000\text{ m}^2$  ni tashkil etib, u Farg'ona tumani Oqtepa m.f.y manzilida joylashgan. Stantsiya 1957 yilda ishga tushirilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 30-iyuldagagi PQ -1378-soni qaroriga asosan 2015 yil qayta rekonstruktsiya qilingan), tassarufida 68 ta burg'uli quduqlar mavjud, ammo hozirgi kunda yer osti suvlari tarkibini o'zgarishi, undagi mineral moddalar miqdorini haddan tashqari yuqori bo'lganligi sababli 6 ta burg'uli quduqlar tamg'alangan. Burg'uli quduqlar suvni yer ostidan 130-160 metr chuqurlikdan tik drenaj nasoslar yordamida olinadi. Yer osti suvining statis sathi 7-12 metrni tashkil etadi. Stantsiyada har birining xajmi  $5000\text{m}^3$  bo'lgan ikkita toza suv saqlash rezervuari mavjud. Stantsiya hududida burg'uli quduqlardan olingan suv profilaktika maqsadida xlorlanadi va aholiga markazlashtirilgan holda yetkazib beriladi (5 ilovaga qarang).

Farg'ona shahar aholisini markazlashtirilgan ichimlik suv bilan ta'minlash manbalari bo'lgan burg'uli quduqlarning tarkibi kimyoviy ko'rsatkichlardan asosan suvga umumiy qattiqlik xususiyatini beruvchi ko'rsatkichlar (kalsiy va xloridlar miqdori) bo'yicha me'yor talablariga mos kelmaydi. Garchi adabiyot

ma'lumotlarida va DavST 950:2011 talablariga ko'ra suvdagi kalsiy elementining miqdoriga me'yor qilib -40 mg/l dan 130 mg/l belgilangan bo'lsada, Farg'ona shahri aholisiga berilayotgan ichimlik suv tarkibidagi kalsiy miqdori me'yor chegarasida turibdi. Bu esa ichimlik suvining organoleptik ko'rsatkichlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi hamda boshqa me'yordagi mineral moddalar bilan birgalikda organizmda turli salbiy holatlarni keltirib chiqaradi.

Ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida Farg'ona shahar "Suv ta'minoti" boshqarmasi idoraviy laboratoriyasi bilan hamkorlikda ichimlik suv manbalaridan ularning sanitariya-kimyoviy va sanitar-mikrobiologik ko'rsatkichlarini tekshirib ko'rish maqsadida 1500 namunalar olindi, ulardan 500 namunalar mikrobiologik va 1000 namunalar sanitariya-kimyoviy ko'rsatkichlarni baholash uchun tekshirildi. Sanitariya-kimyoviy ko'rsatkichlar uchun olingan namunalarning 450 (97,8%) Dav ST talablariga asosan tarkibidagi mineral moddalar miqdori va nitritlar hisobiga mos kelmadi. Mazkur ko'rsatkich yillar kesimida quyidagi ko'rinishni oldi: 2019 yilda 14,5%, 2020 yilda 22,8%, 2021 yilda 26,2%; ( $R^2=0,9673$ ). Bizning fikrimizcha, bu holat taqsimlovchi tarmoqlarning haddan tashqari zo'riqib ishlashi, tez-tez sodir bo'lib turadigan avariylar va suv sathining gidrodinamik o'zgarishlaridan guvohlik beradi. Bunda shu narsa aniqlandiki, Farg'ona shahar aholisiga markazlashtirilgan holatda yetkazib beriladigan ichimlik suv ta'minoti tizimidagi eng yetakchi ifloslantiruvchi modda bo'lib nitritlar, mineral moddalar hisoblanadi. Olingan natijalar asosida gastrit ( $r=0,72$ ;  $t=2,01$ ), teri kasalliklari ( $r=0,81$ ;  $t=3,6$ ) bilan bevosita aloqa aniqlandi. Ichimlik suvi bilan organizmga tushgan nitratlar ichakdagi bakteriyalar ta'siri ostida nitritlarni xosil qiladi, uni so'riliishi esa metgemoglobinni xosil bo'lishiga va bir qism faol gemoglobinni yo'qotilishiga olib keladi, bu esa ma'lum darajada kislorodni yetishmasligiga va oxir oqibat yurak qon tomir kasalliklarini rivojlanishiga sabab bo'ladi. Korrelyatsion tahlil bolalardagi kamqonlik kasalligi bilan suvdagi nitratlar kontsentratsiyasi o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ko'rsatdi ( $r=0,77$ ;  $t=2,7$ ) (6 ilovaga qarang).

Suv tarkibidagi mineral moddalar miqdori, quruq qoldiq ko'rsatkichlari belgilangan me'yordan bir necha marta yuqori. Farg'ona shahrida istiqomat qiladigan aholining aksariyat qismi iste'mol qiladigan ichimlik suvi tarkibidagi nitrat va nitrit elementlarining miqdori o'rnatilgan REM darajasidan (DavST 950:2011 bo'yicha ichimlik suvidagi nitritlar miqdori - 0,3 mg/l; nitratlar miqdori - 45,0 mg/l) bir necha marta yuqoridir. Aholiga markazlashtirilgan holatda beriladigan ichimlik suvi tarkibida nitratlar miqdori 51,2 mg/l dan 18,8 mg/l gacha o'zgarib tursa, nitritlar esa 7,20 dan 1,90 mg/l gacha o'zgarib turadi (6-ilovaga qarang). Farg'ona shahri aholisini markazlashtirilgan xo'jalik-ichimlik suvi bilan ta'minlash sifatini tahlil qilishda nafaqat suvning kimyoviy, balki mikrobiologik ko'rsatkichlari ham tahlil qilindi. Buning uchun "Suv ta'minoti" boshqarmasining Farg'ona shahar idoraviy laboratoriyasi bilan hamkorlikda burg'uli quduqlar, vodoprovod tarmog'i, toza suv saqlash rezervuarlari, taqsimlovchi tarmoqlardan tadqiqotlar olib borilgan uch yil davomida jami bo'lib, 1500 namuna mikrobiologik ko'rsatkichlarni baholash namunalari olindi. Olingan namunalarndagi barcha ko'rsatkichlar DavST 950: 2011 talablariga mos keldi, bu esa yer osti suv manbasining mikrobiologik ko'rsatkichlarini gigiyenik me'yorga mosligidan hamda unda olib borilayotgan profilaktik zararsizlantirish samaradorligini yuqoriligidan dalolat beradi (3.9-jadvalga qarang).

Farg'ona shahri viloyat markazi bo'lib, unda viloyat bo'yicha eng ko'p aholi -293512 nafar aholi istiqomat qiladi. IV iqlim mintaqasi shaharlari aholisini ichimlik suv ta'minotiga bo'lgan kunlik ehtiyoji 250 l/kunni tashkil etsa, u holda Farg'ona shahri aholisini markazlashtirilgan holda yetkazib beriladigan suvga bo'lgan kunlik ehtiyoji 73 378 000 l/kunni tashkil etadi. Biroq Farg'ona shahar aholisini markazlashtirilgan holda ichimlik suvi bilan ta'minlovchi stantsiyasining quvvвати bunday suv sarfiga mo'ljallanmagan, bu esa burg'uli quduqlarni birin ketin ishdan chiqishiga olib keladi.

Yildan yilga global isish muammosi butun jahonda katta muammolardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa mavjud bo'lgan suv resurslaridan oqilona va tejamkorlik bilan foydalanish, yangi suv ta'minoti manba tizimlarini izlash

zaruriyatini yuzaga keltirdi. Jumladan bizning mamlakatimizda ham suvdan tejamkorlik bilan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimizning joriy yil 18 apreldagi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Ichimlik suvidan foydalanishni nazorat qilish davlat inspeksiyasini tashkil etish to'g'risida"gi farmoni bu borada muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda. Mazkur hujjatga ko'ra, aholining ichimlik suvi ta'minotini, suv va kanalizatsiya tarmoqlari ishini yaxshilash, ichimlik suvi resurslaridan oqilona foydalanish hamda yagona nazorat tizimini yaratish maqsadida "Davsuvinspeksiya" va uning hududiy inspeksiyalari tashkil etildi.

### 3.9-jadval

#### Suv ta'minoti boshqarmasi idoraviy laboratoriyasining bakteriologik

#### ko'rsatkichlar

Nº	Suvdan namuna olish joyi	Olingan namunalar soni	UMS	DavST 950:2011 ga mos keladi	DavST 950:2011 ga mos kelmaydi
	Burg'uli quduqlar	300	55	+	-
	Vodoprovod tarmog'i	450	45	+	-
	TSSR	300	35	+	-
	Taqsimlovchi tarmoq	450	35	+	-
	Jami	1500			

Farg'ona vodiysi yer osti chuchuk suv manbalariga boy mintaqa bo'lishiga qaramay, Namangan, Andijon, Chortoq va Asaka shaharlari suv ta'minotining asosiy qismi Andijon suv ombori va Chortoqsoydan olinayotgan suv hisobiga to'g'ri kelmoqda. Qolaversa, Farg'ona va Marg'ilon shaharlari suv ta'minotining asosiy qismi ham Farg'ona shahridan 10-15 kilometr janubda joylashgan yer osti suv olish inshootlari hisobidan amalga oshirilmoqda, chunki mazkur shaharlar

joylashgan hududlardagi yer osti chuchuk suv manbalarining asosiy qismi iste'mol uchun yaroqsiz holga kelib qolgan.

Farg'ona vodiysida 18 ta yer osti suv manbalari mavjud bo'lib, ulardan 6 tasi Farg'ona viloyati hududida joylashgan. Ular bo'yicha baholangan yer osti suvlarining mintaqaviy zahiralari bir kecha-kunduzda 9447 ming m<sup>3</sup> ni tashkil etadi. Yer osti suv manbalarining ijobiy xususiyatlaridan yana biri bu viloyatning aholi zinch joylashgan maydonlarida yer osti suvli qatlamlarining o'ziga xos bosimga egaligidir. Bugungi kunda 2 mingdan ortiq quduq tabiiy favvora asosida faoliyat ko'rsatib, ulardan yer osti suvlari olinmoqda. Afsuski, suvdan foydalanuvchi mutasaddilarning beparvoligi oqibatida qayd etilgan yakka tik quduqlarning 40-50 foizi hech qanday boshqaruv jo'mraklarisiz faoliyat ko'rsatib, ma'lum miqdordagi yer osti chuchuk suvi samarasiz oqib yotibdi. Davlatimiz rahbarining "2017-2021 yillarda yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori suvdan oqilona foydalanishda muhim o'rinn tutmoqda. Mazkur hujjat yer osti suvlari zahiralaridan oqilona foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari samaradorligini oshirish va shu asosda mamlakatimiz aholisini suv bilan ta'minlash sifatini yaxshilashga hamda ayrim shahar va tumanlar markazida yer osti suvlari sathi ko'tarilishining oldini olishga yo'naltirilgan.

Farg'ona shahrida aholining ichimlik suvi ta'minoti holati va bunda suv ta'minoti manbalaridan, ayniqsa, yer osti chuchuk suv manbalaridan oqilona va samarali foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 30 sentyabrdagi "2017-2022 yillarda yer osti chuchuk suvlarini ishlatalishni kengaytirish hisobiga Farg'ona vodiysi aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash tizimini takomillashtirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori asosida ish boshlab yuborildi. Mazkur qaror ijrosi doirasida Farg'ona viloyatida bir kecha-kunduzda 147,3 ming m<sup>3</sup> miqdorida yer osti chuchuk suv zaxiralarining ko'payishi va foydalanishga topshirilishiga, bir kecha-kunduzda 950 ming m<sup>3</sup> miqdoridagi yer osti chuchuk suv zaxiralarining qayta baholanishi va foydalanish muddatining

uzayishiga, Farg‘ona, Qo‘qon shaharlari, Beshariq, Quva tumanlari hududlarining meliorativ holatini yaxshilash bo‘yicha drenajlar turini qo‘llash va ulardan foydalanish yuzasidan asosli taklif va chora-tadbirlar ishlab chiqilishiga erishildi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Farg‘ona shahri aholisini markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta’minlashda kelgusida shaharda mavjud bo‘lgan suv tozalash inshootlarining quvvati yetarli bo‘lmaydi, bu esa shahar aholisini ichimlik suvi bilan ta’minlash uchun boshqa alternativ variantlarni izlash, loyihalashtirish va uni amalga oshirishni zaruriyatini bildiradi (3.10-jadvalga qarang).

### 3.10-jadval

#### Farg‘ona shahri aholisini ichimlik suv bilan ta’minlanish holati

No	Hudud nomi	Ah oli soni	Markazlashtir ilgan ichimlik suvi bilan ta’minlangan aholi soni	Ta’minlan ganlik darajasi	Jami alternativ ichimlik suv manbalar i	%	Burg‘uli quduqdan shaxtali quduqdan	%
1	Farg‘ona shahri	293 512	273 259	93,1	21123	6,9	21123	6,9

Buning uchun eng optimal variantlardan biri Andijon viloyatini Xonobod tumanida joylashgan, qo‘shni Qirg‘iziston respublikasi bilan chegaradosh hududdagi Kampirobod suv ombori (Andijon dengizi)dan trubalar tizimi orqali ichimlik suv manbasini tortib kelish hisoblanadi. Faqat mazkur loyihani ishga tushirish uchun 104 ming m<sup>3</sup>/kun quvvatiga ega bo‘lgan suv tozalash inshooti, 2 ta suv taqsimlash inshooti va uzunligi 120 km ga teng bo‘lgan suv olib kelish quvurini tortib kelish talab etiladi, ushbu ishlarni amalga oshirilishi Farg‘ona viloyatining Quva, Toshloq tumanlari va Farg‘ona, Marg‘ilon, Quvasoy shaharlaridagi hamda Andijon viloyatining Jalolquduq, Buloqboshi, Marhamat, Xo‘jaobod tumanlarida

istiqomat qilayotgan 980 ming aholini sifatli markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta'minlash imkonini beradi.

Hozirgi kunda Farg'ona shahrini suv bilan ta'minlovchi "Pakana-Log'on" suv manbasidan xo'jalik-ichimlik suv manbasi sifatida foydalanishga yo'l qo'yib bo'lmaydi, buning uchun maxsus suv tayyorlash usullarini qo'llash zarur. Markazlashtirilgan holda yetkazib beriladigan yer osti suv manbalarini ifoslantiruvchi asosiy manbalarga atmosfera yog'ingarchilik suvlarini infiltratsiyasi; shahardagi qurilish zichligining yuqoriligi; avtotransport; hududda mavjud bo'lgan va faoliyat olib borayotgan ishlab chiqarish korxonalari, ilgari qishloq xo'jalik maqsadida foydalanilgan yer maydonlaridan turar joy binolarini qurish maqsadida foydalanish; aholi va ishlab chiqarish korxonalaridan hosil bo'layotgan chiqindilarni noto'g'ri saqlash, olib ketish, zararsizlantirish, chiqindi suvlarni tozalamasdan tashlash holatlarini kiritish mumkin.

### **III-bob bo'yicha xulosa**

Farg'ona shahar aholisini markazlashtirilgan holda ichimlik suvi bilan ta'minlash holatini o'rghanish natijasida shunday xulosaga kelindi:

- shaharni ichimlik suvi bilan ta'minlovchi suv manbalari antropogen ifoslanshiga uchraydi va tarkib bo'yicha gigiyenik talablarga mos kelmaydi;

-Farg'ona shahar aholi yashash mintaqalari hududida tarqoq joylashgan yer osti suv manbalaridan olingan suvlar maxsus tozalash usullari bilan tozalanmaydi va to'g'ridan to'g'ri aholiga ichimlik suvi sifatida uzatiladi;

-xususiy suv olish uchun mo'ljallangan yer osti burg'uli quduqlari normativ-huquqiy aktlardagi sanitar talablarni hisobga olmagan holda rejalashtirilgan va tashkil etilgan.

Bularning barchasi esa Farg'ona shahar aholisini markazlashtirilgan ichimlik suv bilan ta'minlanish holatini salbiy tomonga o'zgarib borishiga va aholi o'rtasida ichimlik suv bilan bog'liq bo'lgan yuqumli va noyuqumli kasallikkarni uchrash sonini ortishiga olib keladi.

Hozirgi kunda mazkur suv manbasidan xo‘jalik-ichimlik suv manbasi sifatida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, buning uchun maxsus suv tayyorlash usullarini qo‘llash zarur. Markazlashtirilgan holda yetkazib beriladigan yer osti suv manbalarini ifloslantiruvchi asosiy manbalarga atmosfera yog‘ingarchilik suvlarini infiltratsiyasi; shahardagi qurilish zichligining yuqoriligi; avtotransport; hududda mavjud bo‘lgan va faoliyat olib borayotgan ishlab chiqarish korxonalari, ilgari qishloq xo‘jalik maqsadida foydalanilgan yer maydonlaridan turar joy binolarini qurish maqsadida foydalanish; aholi va ishlab chiqarish korxonalaridan hosil bo‘layotgan chiqindilarni noto‘g‘ri saqlash, olib ketish, zararsizlantirish, chiqindi suvlarni tozalamasdan tashlash holatlarini kiritish mumkin.

## **IV-BOB. FARG‘ONA SHAHAR AHOLISINING SALOMATLIGI VA ICHIMLIK SUVINING SIFAT KO‘RSATKICHLARI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIKNING TAHLILI HAMDA TIBBIY-DEMOGRAFIK KO‘RSATKICHLAR**

### **§4.1. Demografik vaziyat va aholi kasallanishi**

Farg‘ona viloyati aholisining 1989—2000 yillardagi o‘rtacha yillik ko‘payishi 2 foizga teng. 2000 yilda bu ko‘rsatkich 1,2 foizga tushib qoldi. 1989 yilda viloyatda 2140 ming kishi yashagan. 2001 yilda esa bu rakam 156 mingga ko‘paygan. Aholi soni bo‘yicha Farg‘ona viloyati Respublikada Samarqand viloyatidan keyin ikkinchi o‘rinni egallaydi. Demografik jarayonlarning susayib borishi eng avvalo tug‘ilish darajasining pasayishiga bog‘liq. Hozirgi davrda viloyat tumanlarida umumiy tug‘ilish koeffitsenti 17,8 promilledan (Furqat tumani) 24,7 promillegacha (So‘x tumani) farq qiladi, o‘rtacha ko‘rsatkich 20,0 promille. O‘lim koeffitsienti 4—5,5 promille; tabiiy ko‘payish 14,5—15,0 kishiga barobar. Bu esa mamlakatimizda uncha katta raqam emas, albatta. Ayniqsa, Farg‘ona shahri aholisining tabiiy xarakat ko‘rsatkichlari past: tug‘ilish—15,1, o‘lim—7,9, tabiiy ko‘payish—atigi 7,2 promille. Aholi o‘sish sur’atining pasayishiga tashqi migratsiya ham ta’sir qilgan. Faqat 1997—1998 yillardagina shahar joylarda (xususan Farg‘ona shahrida) salbiy migratsiya qoldig‘i 4,7 ming kishini tashkil etgan. Qishloqlarda esa bu ko‘rsatkich 4,1 ming kishiga barobar bo‘lgan. Aholining tashqi migratsiyasi ayniqsa 1993-1995 yillarda yanada kuchlirok bo‘lgan.

Farg‘ona viloyatida katta shaharlar va yirik qishloqlar ko‘p. Bu yerda uchta katta shaharlar mavjud: Farg‘ona (293 ming), Qo‘qon (198 ming) va Marg‘ilon (156 ming). Bir hududda bunday kattalikdagi uch shaharning borligi O‘zbekistonda faqat Farg‘ona va Toshkent viloyatlari uchun xosdir, holos. Binobarin, viloyatning urbanistik tarkibi ancha rivojlangan, ammo umumiy urbanizatsiya darajasi past-28,9 foiz. Hammasi bo‘lib, viloyatda 20 shaharcha bor. Quva, Yaypan, Beshariq, Quvasoy kabi shaharlarning aholisi 20—40 ming kishidan iborat. Ayni vaqtda Farg‘ona viloyatida, xususan Qo‘qon voxasida tipik, qadimiy qishloqlar ko‘p (Ultarma, Telov, Nursux, Nayman, Yakkatut, Rapqon va boshqa). Ushbu aholi

manzilgohlarining nomi mahalliy halqda «qishloq» tushunchasi bilan uyg‘unlashib ketgan.

2020 yil ma’lumotlari bo‘yicha, jami band aholining 13,7%i sanoatga, 41,9 % qishloq xo‘jaligiga to‘g‘ri kelgan, ta’lim, madaniyat va fanda—11%. Qo‘shti viloyatlarda bo‘lganidek, bu yerda ham qishloq joylarda ortiqcha ishchi kuchi ko‘p. Bu esa agrar sohaning iqtisodiy samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, viloyatda ishchi kuchini ish o‘rnlari bilan ta’minlash nixoyatda dolzarb muammo bo‘lib, uning yechimi katta ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega.


Farg‘ona viloyati aholisi 2021 yil holatiga ko‘ra doimiy soni jami bo‘lib 3 819 963 nafar bo‘lib, ulardan erkaklar 1 925 022, ayollar esa 1 894 941 (Farg‘ona shahar aholisi esa 2021 yil holatiga ko‘ra doimiy soni jami 293 512 nafar bo‘lib, ulardan erkaklar 144924, ayollar esa 148588) nafarni tashkil etadi Viloyatdagi demografik vaziyat aholining davomli tabiiy o‘sishi bilan tavsiflanadi, bu o‘lim ko‘rsatkichining pastligi va tug‘ilishni o‘rtacha o‘sishi bilan bog‘liq. Tug‘ilish koeffitsienti 2020 yilga nisbatan 0,9%ga o‘sdi, o‘lim ko‘rsatkichi esa 0,5%ga kamaydi.

Farg‘ona viloyatidagi ijtimoiy rivojlanishlar va sog‘liqni saqlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish natijasida demografik vaziyatdagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi: tug‘ilish koeffitsienti 2000 yilga nisbatan 2020 yilda 47,9 ga oshdi, o‘lim esa 8,9% ga kamaydi, go‘daklar o‘limi 2020 yilda 1000 nafar chaqaloqlarga 6,7%ni tashkil etdi, bu 2000 yildagi ko‘rsatkichlarga nisbatan 2,5 marta kam demakdir (2000 yilda 16,8)

**Aholi kasallanishi.** Kasalliklarni turli sinflari ahamiyatini baholash uchun shaharning jami aholisini birlamchi kasallanishi (2018-2020 yillar) va kasalliklarni tarqalishini o‘rtacha yillik ko‘rsatkichlarini tenglashtirish o‘tkazildi.

Kasalliklarni tarqalish ko‘rsatkichlari orasida yetakchi o‘rinni nafas organ kasalliklari (1 o‘rni) egallasa, qon aylanish tizim kasalliklari (2), ko‘z kasalliklari (3), siydik-tanosil tizim kasalliklari (4), suyak-mushak tizim kasalliklari (5) keyingi o‘rnlarni egallaydi. Kasalliklarni tarqalishini eng past ko‘rsatkichlari, tug‘ma

nuqsonlar, perinatal davr kasalliklari, qon va qon xosil qilish organ kasaklliklari, homiladorlik va tug'ruq asoratlari egallaydi (4.1-rasmga qarang).



#### **4.1-rasm. Kasalliklarni tarqalish ko'rsatkichlari.**

Birlamchi kasallanish ko'rsatkichlari orasida (hayoti davomida birinchi marta aniqlangan kasallik tashxisi) shuningdek nafas organ kasalliklari (1), shikastlanish va zaharlanishlar (2), siydik-tanosil tizim kasalliklari (3), teri va teri osti klechatka kasalliklari (4), ko'z kasalliklari (5) yetakchilik qiladi. Birlamchi kasallanishning eng past ko'rsatkichlari perinatal davr kasalliklari, qon va qon aylanish organ kasalliklari, tug'ma nuqsonlar, ruhiy buzilishlar va homiladorlik hamda tug'ruq asoratlari uchun xos.


Kasalliklarni tarqalish ko'rsatkichlari orasida eng yuqori nisbiy og'irlilik nafas organ kasalliklariga (27,8%), qon aylanish tizim kasalliklari (12,9%), ko'z kasalliklariga (7,2%), siydik-tanosil tizim kasalliklari (6,8%), suyak mushak tizim (5,9%) kasalliklariga to'g'ri keladi (4.2-rasmga qarang).



**4.2-rasm. Farg‘ona shahar aholisini kasallanishini tarqalish ko‘rsatkichlari.**

Alohiba kontingentlarni birlamchi kasallanish tuzilmasida o‘ziga xosliklar mavjud bo‘lib:


Bolalarda uchraydigan birlamchi kasallanish ko‘rsatkichlari orasida birinchi o‘rinni teri va teri osti klechatka kasalliklari, ovqat hazm qilish organ kasalliklari (2) buyrak-tosh kasalliklari (3), keyingi o‘rinlarni asab tizim kasalliklari, endokrin tizim kasalliklari, yurak qon –tomir tizim kasalliklari egallaydi (7-ilovaga va 4.3-rasmga qarang)



**4.3-rasm. Bolalar o‘rtasidagi birlamchi kasallanish ko‘rsatkichlari.**


O‘smirlar o‘rtasida birlamchi kasallanishni teri va teri osti klechatka kasalliklari (1), ovqat hazm qilish organ kasalliklari (2), buyrak tosh kasalliklari (3),

asab tizim kasalliklari (4), keyingi o‘rnlarda endokrin tizim kasalliklari, hosilalar, yurak qon–tomir tizim kasalliklari tashkil etadi (8 –ilovaga va 4.4-rasmga qarang).



**4.4-rasm. O‘smirlar o‘rtasidagi birlamchi kasallanish ko‘rsatkichlari.**

Katta yoshlilarda teri va teri osti klechatka kasalliklari ustunlikka ega (1) undan keyingi o‘rinni buyrak-tosh kasalliklari (2), yurak qon–tomir tizim kasalliklari (3), ovqat hazm qilish organ kasalliklari (4), keyingi o‘rnlarni hosilalar, asab tizim kasalliklari, endokrin tizim kasalliklari egallaydi (9 –ilovaga va 4.5-rasmga qarang).



**4.5-rasm. Katta yoshli aholi o‘rtasidagi birlamchi kasallanish ko‘rsatkichlari**

Shunday qilib, yosh kichiklashib borgan sari o‘tkir kechishi bilan tavsiflanadigan kasalliklar sinfini ustunligi kuzatiladi.

Birlamchi kasallanish dinamikasida kattalarda o‘sishga nisbatan turg‘un tendentsiya, o‘sirlarda o‘sishga nisbatan o‘rtacha tendentsiya , bolalarda o‘sishga

nisbatan kuchli tendentsiya kuzatiladi. Tahlil qilingan davr uchun (2018-2020) yillik o'sish sur'ati kattalarda -0,5%ni, o'smirlarda -4,4%, bolalarda -2,1% ni tashkil etdi.

Bolalar aholisi atrof muhitning noxush omillari ta'siriga eng sezgir va oson ta'sirga uchraydigan guruh bo'lib hisoblanadi. Bolalar va o'smirlarni tarbiyalash, dam olish, o'qish va mehnat qilish sharoitlari ularning salomatligini shakllanishida sezilarli hissa qo'shadi. Bolalar va o'smirlar aholisining umumiylashtirish so'nggi besh yil davomida o'sishda davom etib, mos holda 3,9% va 13,5% ni tashkil etadi. Bolalarda kasallikkarni 8-sinfi bo'yicha kasallanishini o'sishi qayd etiladi (4.4-jadvalga qarang). Kasallikkarni quyidagi sinflari bo'yicha o'sish tendentsiyasi eng yuqori darajada namoyon bo'ladi, ular tug'ma nuqsonlar (yillik o'rtacha o'sish sur'ati 9,2%), ovqat hazm qilish tizim kasallikkari (4,9%), nafas organ tizim kasallikkari (3,7%).

Bolalardagi umumiylashtirishni o'sishiga katta ulushni ovqat hazm qilish organ kasallikkari, nafas organ kasallikkari, o'smirlarda esa nafas organ, yurak qon-tomir tizim kasallikkari, ovqat hazm qilish organi, ko'z kasallikkari, suyak-mushak, asab tizimi, siydik-tanosil tizim kasallikkari egallaydi (10-ilovaga qarang).

Har ikki yosh guruhi o'rtasida umumiylashtirishni ko'p yillik dinamikasi tahlilida yuqumli, endokrin tizim kasallikkari, ovqat hazm qilish, bolalar aholisi o'rtasida peritoneal davr kasalliklarini hamda o'smirlarda nafas organ kasallikkari, ovqat hazm qilish organ kasallikkari, yurak qon-tomir tizim kasallikkari qon va qon xosil qilish organ kasalliklarini yaqqol namoyon bo'lgan o'sish tendentsiyasi qayd etildi.

O'smirlarda kasallikkarning 11 sinfi bo'yicha kasallanishni o'sishi qayd etildi. Kasallanishni o'sishini eng yuqori tendentsiyasi nafas olish tizim kasalliklariga (har yillik o'rtacha o'sish sur'ati 17,4%), ovqat hazm qilish tizim kasallikkari (17,1%), ko'z kasallikkari (14,9%), siydik-tanosil tizim kasallikkari (10,5%), asab tizim kasallikkari (5,2%) to'g'ri keladi.

Kattalarda kasallikkarni 7 sinfi bo'yicha kasallanishni o'sishi qayd etildi. Quyidagi kasallik sinfi bo'yicha eng yaqqol namoyon bo'lgan o'sish tendentsiyasi

kuzatildi: homiladorlik va tug‘ruq asoratlari (o‘sishning har yillik o‘rtacha sur’ati 35,8%), ruhiy kasalliklar (7,8%), siydik-tanosil tizim kasalliklari (5,7%).

Kattalar, o‘smirlar va bolalarning birlamchi kasallanish dinamikasida, tahlil qilingan davr uchun (2018-2020) pasayishning har yillik o‘rtacha sur’ati bilan kattalarda 25,3%, o‘smirlarda 1,8%, bolalarda 9,9%ga pasayish tendentsiyasi kuzatiladi.

#### **§4.2. Aholi salomatligiga suv omilining ta’siri va suvning sifatini o‘rganishga ekologo-gigiyenik yondoshuvlar**

Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minalash O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini o‘ta muhim yo‘nalishi bo‘lib hisoblanadi. 2017 yil 7 fevralda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi rivojlanishini beshta ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha Harakatlar Strategiyasiga ko‘ra uzoq kelajakda suv xo‘jalik majmuasining rivojlanishini ustuvor yo‘nalishlariga ichimlik suvini va oqava suvlarni tozalash texnologiyasini takomillashtirish, yangi vodoprovod va kanalizatsiya inshootlarini qurish va rekonstruktsiya qilish hamda modernizatsiyalash, jumladan suvni tozalash uchun ekologik jihatdan eng xavfsiz va samarali reagentlardan foydalanish, suvni tozalashni yangi texnologiyalarini joriy etish, ishlab chiqarish korxonalarini modernizatsiyalash va ishlab chiqarish ob’ektlarining texnologik jarayonida qayta folydalanuvchi suv ta’minoti tizimlarini joriy etish kiradi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining baholashicha, jahondagi 1,1 mlrd odam ichimlik suvi bilan yetarli darajada ta’milanmagan, 2,6 mlrd odam gigiyenik vositalar uchun yetarli miqdordagi ichimlik suviga ega emas. Bashorat qilinishicha 2025 yilga borib suvdan foydalanish 40%ga ortadi va 2030 yilga borib 30 nafar odamdan 2 nafari toza ichimlik suv yetishmasligidan aziyat chekadi. Statistik kuzatish ma’lumotlariga ko‘ra, butun dunyoda 2019 yilda sanitar gigiyenik ko‘rsatkichlar bo‘yicha gigiyenik normativlarga mos kelmaydigan vodoprovod tarmog‘idan keluvchi ichimlik suv sinamasining ulushi 16,8%ni, mikrobiologik ko‘rsatkichlar bo‘yicha esa -5,1%ni tashkil etadi. Butun aholining besh qismi

markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta'minlanmagan va suvni kerakli darajada tozalamasdan iste'mol qiladi.

Toza ichimlik suvi va kanalizatsiya tizimini mavjud emasligi ichak infektsiyalari, gepatit va me'da ichak tizim kasalliklarini tarqalishi, patologiyalarni yuzaga kelishi va odam organizmida kantserogen omillarning ta'sirini kuchaytiruvchi asosiy sabab bo'lib hisoblanadi. Alovida holatlarda kanalizatsiya tizimi va sifatli ichimlik suvi tizimlarini mavjud bo'lmaslik holatlari yalpi kasallanishga va epidemiyani tarqalishiga olib keladi. Ochiq suv manbalarida ftor elementining yaqqol namoyon bo'lgan yetishmasligi O'zbekiston Respublikasi aholisini karies bilan yuqori darajada kasallanishini asosiy sababidir. Ochiq va yer osti suvlarini kimyoviy va biologik ifloslanishi bilan bog'liq holda aholi salomatligi uchun xavfni aniqlash asosidagi tadqiqotlarni rivojlanishi, kimyoviy va biologik ifloslantiruvchilarning antropogen ta'sir bilan bog'liq holda kasallanishni qisqartirish uchun maqsadli harakatlar zaruriyatini tasdiqlaydi. Ichimlik suvining sifati va uni hammabopligi, hayot sifati va millat salomatligini belgilab beradi. O'zbekistonliklarning hayot faoliyatining davomiyligi turli mamlakatlar uchun bu chegaraning quyi qismida turadi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash ayniqsa bolalar o'rtasida o'limni kamaytirishga va hayot davomiyligini oshirishga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasini tomonidan berilgan ma'lumotlarga ko'ra 2020 yilda O'zbekiston Respublikasi aholisi uchun 6 mlrd metr kubdan ortiq ichimlik suvi xo'jalik ichimlik ehtiyojlari uchun tarmoqqa berilgan, ammo aholining 22% qismi markazlashtirilgan suv ta'minoti xizmatlari bilan ta'minlanmagan. Davlat statistika qo'mitasining 2021 yilda bergen ma'lumotlariga ko'ra O'zbekiston Respublikasining 10% shaharlari va 42% qishloq aholi turar joy hududlarida markazlashtirilgan vodoprovod tizimi mavjud emas. O'zbekiston Respublikasida 35% ga yaqin vodoprovod tarmoqlari almashtirishga muhtoj, har yili respublika bo'yicha 2% dan ortiq vodoprovod tizimlari almashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasida koagulyant, flokulyant, oksidlovchilar, qaynashga qarshi qo'shiladigan moddalar, ion almashinuv smolalari, sun'iy

filtrlovchi moddalar kabi reagentlar va moddalarni ya’ni suv tayyorlashni zamonaviy texnologiyalarini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan mahsulotlarni respublikaning o‘zida ishlab chiqarilmasligi sababli bu moddalarni tanqisligi kuzatiladi. Hozirgi vaqtida ekologiyaga bog‘liq bo‘lgan kasalliklar mavjudligini rad etish uchun asos mavjud emas, ularni insonlarni o‘rab turgan ekzogen kimyoviy, fizik va boshqa omillari tomonidan chaqiriladigan patologik belgilarning umumiy oqimidan izlash zarur. O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi tomonidan berilgan ma’lumotlarga mos holda ekologik noxush bo‘lgan mintaqalardagi umumiy kasallanish xo‘jalik-faoliyati ta’siriga nisbatan kam uchragan mintaqalarga nisbatan 1,5-5 marta yuqoridir. Atmosfera havosi yoki ichimlik suvini ifloslanish darajasini ortishi, ksenobiotiklar va boshqa oziq-ovqat mahsulotlarining mavjudligi endokrin tizim va moddalar almashinuvini buzilishi, nafas va ovqat hazm qilish tizim organlarini shikastlanishi, immunitetni pasayishi, allergik renit, xoletsistit, o‘t-tosh kasalligi, buyrak-tosh kasalligi, saraton, tug‘ma nuqsonlar kabi qator kasalliklarni o‘sishini yuzaga keltiradi. Bunda salbiy ta’sirni nafaqat yakka o‘zi uchrovchi organik va noorganik birikmalar, balki ularning turli sinergizm yoki antogonizm ko‘rinishlari ham ta’sir etishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi aholisining o‘lim ko‘rsatkichlariga ekologik omil ko‘rsatadigan yig‘indi xissasi 4-5% darajada baholanadi va umumiy hamda ijtimoiy omillardan so‘ng uchinchi o‘rinni egallaydi.

Ekologiyaga bog‘liq bo‘lgan barcha kasalliklar ikki guruhgaga bo‘linadi:

1. Tabiiy sabablar ta’siri tufayli yuzaga keladigan kasalliklar.
2. Inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklar.

Atrof muhitni ifloslanishi salomatlikka turli yo‘llar bilan ta’sir ko‘rsatadi va amaliy jihatdan insonlarni atrof muhitning barcha omillari bilan ta’sirlanishi orqali o‘z xususiyatlarini namoyon etadi hamda unga mos holda turli organ va tizimlarda shikastlanishlar yuzaga keladi. Bundan tashqari xulosa qilish mumkinki, insonlar uchun tabiiy muhitning barcha komponentlaridan istalgan birini ifloslanishi noxush omil sifatida qaralishi mumkin.

Ekologiyaga bog‘liq bo‘lgan patologiyalarni tarqalishi u yoki bu hududdagi muhitning ifloslanishi ta’sirini darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Atrof muhitni ifloslanish darjasи va tavsifiga bog‘liq holda patologik jarayonlarning turlicha namoyon bo‘lishi bilan baholanadi (4.6-rasmga qarang) .



#### 4.6-rasm.Ekologik patologiyalarni namoyon bo‘lish turlari.

Hozirgi vaqtida aholi salomatligiga atrof muhit ta’sirini turli aspektlarini o‘rganishga qaratilgan eng hammabop va tarqalgan yo‘nalishlardan biri bo‘lib, omilli yondoshuv hisoblanadi, ya’ni bunda barcha e’tibor bevosita “ko‘rsatkich” kasallanishga olib boruvchi xavf omiliga qaratiladi. N.F.Reymers ekologik xavf omillari tavsifini taklif etdi. Odamlarga ta’sir davriyligi bo‘yicha atrof muhit komponentlarini 4 guruhga ajratadi;

1 guruh- nisbatan doimiy ta’sir (masalan tog‘lardagi havo bosimini pasayishi, issiqlik anomaliyalari);

2-guruh davriy takrorlanuvchi (tsiklik) (masalan quyoshdagi faolliklarni tsikli, tabiiy hodisalarining mavsumiyligi, biologik ritmlar, pandemiya);

3 guruh-o‘sib boruvchi va kamayib boruvchi (transformatsiyalanuvchi) (masalan demografik va epidemiologik o‘tish davri, o‘simlik va hayvonot olami resurslarini kamayishi, cho’llanish);

4-guruh atsiklik (masalan, zilzila, sanoat falokatlari).

Insonlar faoliyatiga atrof muhit ta'sirini yo'qotilishi bo'yicha 4 turga ajratiladi:

- 1 tur – bartaraf etiladigan
- 2- tur -qiyin bartaraf etiladigan
- 3 tur - qisman bartaraf etiladigan
- 4 tur - bartaraf etilmaydigan

Insonlar salomatligi va suv omili o'rtasidagi aloqani ko'rib chiqib, quyidagilarni ta'kidlash mumkin: suv (tuproq va atmosfera havosi bilan bir qatorda) jamiyatning mintaqaviy tashkil etilganligi, xo'jalik yuritishni, turmush tarzini sezilarli darajada belgilab beruvchi kasalliklarni tarqalishiga faqat bevosita ta'sir etuvchi sifatida emas, balki omil sifatida ham bog'liq bo'lishi hisobiga tibbiy-geografik va tibbiy-ekologik tadqiqotlarda yetakchi o'rnlardan birini egallagan va egallamoqda. Ma'lumki ichimlik suvi bilan inson organizmiga ko'plab yuqumli va parazitar kasalliklarning qo'zg'atuvchilari tushishi mumkin. Ularga vabo, qorin tifi, ichburug‘, salmonyollez, tulyaremiya, leptospiroz, virusli gepatit, lyamblioza va boshqa kasalliklarni kiritish mumkin. Bu kasalliklar odam va hayvon ekskrementlari, xo'jalik-maishiy va korxona chiqindi suvlari bilan ifloslanganligi sababli yuzaga keladi. Ular ko'pincha rivojlanayotgan mamlakatlar va qishloq joylarida uchraydi, odatda ularni chaqnashi vodoprovod tizimidagi nosozliklar, ichimlik suvini tozalash qoidalarini buzilish holatlarida uchraydi. Bu kasalliklarni oldini olishga ichimlik suvini tozalash tartibiga amal qilish, shaxsiy va jamoat gigiyenasi qoidalariga rioya etish bilan oson erishish mumkin. Shuni yodda tutish lozimki, ko'pincha yer osti suvlarini ham patogen mikroorganizmlar bilan ifloslangan bo'lib chiqadi, bu ayniqsa tabiiy himoyalanishi yomon bo'lgan hududlarda yer osti suv manbalari mavjud bo'lgan hududlarning grunt suvlarida yoriqlar mavjud bo'lganida yuzaga keladi.

#### **§4.3. Farg'ona shahar aholisini kasallanish ko'rsatkichlarini iste'mol qilinadigan suv sifati ko'rsatkichlari bilan qiyoslash va aniqlangan bog'liqlikning tahlili**

Tibbiy geografiya oldida turgan vazifalar biri aholi salomatligiga aniq bir hududning tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarning birqalikdagi majmuaviy ta'sirini anglash bilan muvaffaqiyatli hal etilishi mumkin. Insonlar salomatligi ko'plab noma'lum va o'zgaruvchi omillarga bog'liq bo'ladi. Ushbu omillarni o'rganish uzlusiz o'zgarishlar va ularning o'zaro aloqasini ekologo-geografik muhit xususiyatlarini ko'rib chiqishni talab etadi. Nazariy korrelyatsiya (matematik statistikaning bir bo'limi) bu aloqalarni ob'ektiv tavsiflashga va ularni miqdoriy shaklda aks ettirishga imkon beradi. Hozirgi vaqtida statistika usullari bilimlarning barcha turli sohalarida, jumladan tibbiyotda ham keng qo'llanilmoqda. Biroq aholi salomatligiga ekologo-gigiyenik muhit ta'sirini o'rganish, uni hal etishning maxsus usullarini talab etadi. Farg'ona shahri aholisi iste'mol qiladigan yer osti suv manbalari tarkibidagi temir, marginets, mis, nitratlar, nitritlar, sulfatlar, ftor, xloridlar, rux elementlarining tahlil natijalari baholandi.

Iqtisodiy-statistik usullar va olingan ma'lumotlar asosida aholining kasallanishi va kimyoviy elementlar kontsentratsiyasi o'rtaqidagi aloqani o'rnatish uchun korrelyatsiya o'tkazildi. Farg'ona shahar hududida o'tkazilgan tadqiqotlar ichimlik suvini ifloslanishi bilan bog'liq bo'lgan qator kasalliklar bilan aholini yuqori darajadagi kasallanishi o'rtaqidagi aloqani aniqladi, bunday kasallikkarga siydik-tosh kasalligi, endokrin tizim kasalliklari, xavfli o'smalar, semizlik kiradi.

Insonlar salomatligiga ichimlik suvini sifat ko'rsatkichlari ta'sirini zamonaviy ma'lumotlar bilan o'zaro qiyoslash, ularni alohida komponentlar bo'yicha Farg'ona shahar hududlarini ranjirlash, mahalliy aholini suvda nitrit, nitrat, marginets va ruh moddalarini yuqori kontsentratsiyasi mavjudligiga bog'liqligini yuqori ehtimolligi to'g'risidagi gipotezalarni shakllantirishga imkon beradi.

Yosh guruhlari bo'yicha Farg'ona shahar aholisini kasalliklari va ichimlik suvining gidrokimyoviy tavsifi o'rtaqidagi aloqalarni rangli korrelyatsion baholashning noparametrik statistik usullari yordamida o'tkazilgan tadqiqotlarda quyidagi holatlar bo'yicha statistik ahamiyatli korrelyatsion aloqalar aniqlandi:

- Bolalar aholisi guruhida

- Bo‘qoq va nitrat miqdorini yuqori darajasi o‘rtasida ( $r=0,77$ ), aloqa kuchli ishonchli;
- Siylik tosh kasalliklari va marginets miqdorini ortishi ( $r=0,87$ ), kuchli ishonchli aloqa;
- Semizlik va nitritlar miqdorini ortishi ( $r=0,31$ ) o‘rtacha ishonchli aloqa;
- Yara kasalliklari, nitratlar va marginets miqdorini ortishi ( $r=0,58$ ) o‘rtacha ishonchli aloqa;
- Kamqonlik va sulfatlar miqdorini ortishi ( $r=0,56$ ) o‘rtacha ishonchli aloqa;
- Gastritlar va ruh miqdorini ortishi ( $r=0,61$ ) o‘rtacha ishonchli aloqa.

➤ Kattalar aholisi guruhida

- Asab tizim kasalliklari va mis hamda ruh elementlarining kontsentratsiyalari ( $r=0,63$ ;  $r=0,70$ ) o‘rtasidagi kuchli ishonchli bog‘liqlik;
- Siylik-tosh kasalligi ( $r=0,35$ ) va nitratlar miqdorini yuqoriligi; o‘rtacha ishonchli aloqa;
- Ruhning yuqori miqdori ( $r=0,07$ ) va gastritlar, kuchsiz ishonchsiz aloqa;
- Nitratlarning yuqori miqdori va kamqonlik, kuchli ishonchli aloqa.

Umuman olganda har ikki aholi guruhi o‘rtasidagi suv omili bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklar bo‘lib, me’da va terining xavfli xosilalari ( $r=0,31$ ;  $r=0,38$ ) nitratlar va sulfatlarning yuqori miqdori hisoblanadi.

Bizlar olib borgan tadqiqot ishimizda Farg‘ona shahar aholisini ichimlik suvi bilan bog‘liq kasallanish darajasi baholandi. Aholiga ichimlik suvi sifatida beriladigan manbalar tarkibidagi kimyoviy moddalar miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlar “Farg‘ona suv ta’minoti” mas’uliyati cheklangan jamiyati tomonidan berildi, kasallanish ko‘rsatkichlari esa №12 hisob shakli bo‘yicha baholandi.

Yer osti suv manbalari suvi tarkibidagi umumiyl mineralizatsiya darajasi 1500 mg/l ni tashkil etadi. Ichimlik suv tarkibidagi magniy va sulfatlarning miqdori bo‘yicha farqlar mavjud. Magniy miqdori me’yordan yuqori va 120,04 mg/l ni, sulfatlar miqdori esa 190,6 mg/l ni tashkil etadi (11-ilovaga qarang).

Bizlar olib borgan tadqiqotlarimizda Farg‘ona shahrida istiqomat qiluvchi bolalar, o‘smirlar va katta yoshli aholining ichimlik suv tarkibidagi mineral elementlar (kalsiy, magniy) kontsentratsiyasi bilan bog‘liq kasallanish holatlarini o‘rgandik.

Ichimlik suvi tarkibida umumiy qattiqlik miqdorining oshganligi bir qator kasalliklarni shakllanishi va kechishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, ularga: yurak qon – tomir tizim kasalliklari, nafas organ kasalliklari, qon kasalliklari, buyrak-tosh kasalliklari, teri va teri osti kletchatka kasalliklari kiradi. Ichimlik suvi tarkibidagi mineral moddalar miqdorining ortishi teri va siydk tosh kasalligiga, qon aylanish tizimi, qon hosil qilish organ kasalliklariga olib keladi.

Farg‘ona shahrida istiqomat qiluvchi bolalarning kasallanishi bilan ichimlik suv tarkibidagi mineral moddalar miqdori o‘rtasidagi aloqa o‘rganilganda 9 holat: 4 musbat, 5 manfiy aloqa aniqlandi. Ichimlik suvi tarkibidagi mineral moddalar miqdoriga bog‘liq holda Farg‘ona shahrida istiqomat qiluvchi bolalar o‘rtasida mineral moddalarmiqdori bilan bog‘liq bo‘lgan 11 aloqa o‘rganildi: ulardan 6 musbat va 5 manfiy aloqalardir (4.1-jadvalga qarang).

#### 4.1-jadval

##### **Bolalar aholisi o‘rtasida suvdagi minerallik va umumiy qattiqlik bilan kasallanishining bog‘liq ko‘rsatkichlari**

Kasalliklar nomi	Minerallik	Umumiy qattiqlik
Ovqat hazm qilish organ kasalliklari	-0,99	-0,94
Xosilalar	-0,9	-0,77
Endokrin tizim kasalliklari	-0,99	-0,87
Asab tizim kasalliklari	-0,83	-0,98
Teri va teri osti klechatka kasalliklari	0,83	0,06
Yurak qon –tomir tizim kasalliklari	0,99	0,83
Siydik-tosh kasalliklari	0,95	0,68
Nafas organ kasalliklari	0,99	0,82

Ichimlik suv tarkibidagi mineral moddalar miqdori bilan Farg‘ona shahrida istiqomat qiluvchi o‘smirlarning kasallanishi o‘rtasidagi 14 ta o‘zaro aloqa aniqlandi: ulardan 9 musbat, 5 manfiy aloqalardir.

Ichimlik suvi tarkibidagi mineral moddalar miqdorining ortiqcha bo‘lishi qon xosil qilish organ, siydik-tosh kasalligi, teri va teri osti klechatka kasalligi va nafas organ kasalliklariga olib keladi. Ichimlik suvi tarkibidagi mineral moddalar miqdorini o‘smirlarning kasallanish ko‘rsatkichlariga ta’siri 14 o‘zaro aloqaga ega (4.2-jadvalga qarang).

#### **4.2-jadval**

#### **O‘smirlar aholisi o‘rtasida suvdagi mineral moddalar va umumiyl qattiqlik bilan kasallanishining bog‘liq ko‘rsatkichlari**

Kasalliklar nomi	Minerallik	Umumiyl qattiqlik
Ovqat hazm qilish organ kasalliklari	-0,98	-0,75
Asab tizim kasalliklari	-0,94	-0,65
Xosilalar	-0,94	-0,84
Endokrin tizim kasalliklari	-0,99	-0,89
Siydik-tosh kasalliklari	-0,99	-0,87
Yurak qon –tomir tizim kasalliklari	0,86	0,5
Teri va teri osti klechatka kasalliklari	0,99	0,97
Nafas organ kasalliklari	0,99	0,99

Ichimlik suvida mineral moddalar miqdorini yuqori kontsentratsiyada saqlanishi qon aylanish tizim kasalliklari, teri va teri osti kletchatka kasalliklari, siydik-tosh kasalliklari kabi patologik holatlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Katta yoshli aholida mushak va biriktiruvchi to‘qima, qon xosil qilish, me’da-ichak tizim kasalliklarini rivojlanishida asosiy omil bo‘lib hisoblansa, endokrin tizim va teri kasalliklarini kam holda uchrashiga asosiy omil bo‘ladi.

Farg‘ona shahar katta yoshli aholisi o‘rtasida mineral moddalar bilan bog‘liq bo‘lgan kasallanishda 11 holat aniqlangan: ulardan 5 musbat aloqa va 6 manfiy aloqadir (4.3-jadvalga qarang). Ichimlik suvi tarkibida mineral moddalar va

umumiy qattiqlik miqdorini ortiqcha bo‘lishi siylik-tosh, o‘t-tosh kasalliklari, xosilalar, qon xosil qilish organ kasalliklari, mushak-suyak tizimi, endokrin tizim, ovqatlanish va moddalar almashinuvini buzilishi kabi holatlarni yuzaga keltiradi.

#### 4.3-jadval

#### **Katta yoshli aholi o‘rtasida suvdagi mineral moddalar miqdori va umumiy qattiqlik bilan kasallanishining bog‘liq ko‘rsatkichlari**

Kasalliklar nomi	mineral moddalar	Umumiy qattiqlik
Ovqat hazm qilish organ kasalliklari	-0,99	-0,88
Siydik-tosh kasalliklari	-0,99	-0,86
Nafas organ kasalliklari	-0,67	0,98
Xosilalar	0,64	0,96
Yurak qon –tomir tizim kasalliklari	-0,99	0,96
Endokrin tizim kasalliklari	-0,97	0,86
Asab tizim kasalliklari	-0,99	-0,93
Ter va teri osti klechatka kasalliklari	-0,79	-0,87

Shuni ta’kidlash lozimki, kasallanish darajasi aholining salomatlik darajasini tafsiflovchi yetakchi omillardan biri sifatida o‘rganiladi. Ushbu shahar hududlarida kasallanishni o‘rganishda bizlar tomonimizdan ushbu hudud aholisiga ko‘rsatiladigan tibbiy yordam darajasi bir xilda bo‘lgan xolatlarga e’tibor qaratdik. Ularda istiqomat qiluvchi aholining yosh tarkibi deyarli bir xildagi foiz nisbatida bo‘ldi.

Farg‘ona shahri aholisining yosh tarkibi quyidagicha taqsimlandi: 0-17 yoshgacha bo‘lgan bolalar -20%; 18 yoshdan kattalar (mehnatga yaroqlilar) – 54%; nafaqadagilar – 26%. Aholining umumiy soni 293512 nafarni tashkil etib, ulardan erkaklar – 144861 nafarni, ayollar esa – 148651 nafarni tashkil etadi. Farg‘ona shahrida istiqomat qiluvchi aholining 80%ga yaqini mehnatga yaroqli va nafaqa yoshidagilar bo‘lib, bu umumiy kasallanish darajasida aks etadi.

Bolalar o‘rtasida kuzatiladigan yuqori nafas yo‘llari kasalliklarini yuqori soni asosan O‘RVI, bodomcha bezlar yallig‘lanishi yoki oddiy shamollahisobiga eng yuqori ko‘rsatkichlarga ega bo‘ladi (12-ilovaga qarang). Jarohatlanish va shikastlanishlar hisobiga yuzaga keladigan kasallanish ko‘rsatkichlari asosan organizmda mineral moddalarni yetishmasligi hisobiga tog‘ay to‘qimasining elastikligini yo‘qolishi sababli yuzaga keladi.

Me’da –ichak tizim kasalliklarining yuqori ko‘rsatkichlari asosan aholi o‘rtasida uchraydigan gastrit, duodenit, me’da va o‘n ikki barmoq yara kasalliklari, qabziyat, yuqumsiz enterit va kolitlar hisobiga yuzaga keladi. Bizlar tomonimizdan olib borilgan izlanishlar natijasida aniqlandiki, aholi o‘rtasida uchraydigan kasalliklarning sezilarli qismi, aynan ichimlik suv tarkibidagi mineral moddalar miqdoridagi nuqsonlar, aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta’milish holatidagi uzilishlar sabab bo‘ladi.

Olib borilgan tadqiqotlarda aniqlandiki, Farg‘ona viloyati, jumladan Farg‘ona shahar aholisini markazlashtirilgan holda ichimlik suvi bilan ta’minlaydigan manbalar suvining minerallashganlik tarkibi me’yoriy hujjatlar normalaridan ancha yuqori. Iste’mol qilinadigan ichimlik suv tarkibini kasallanishga ko‘rsatadigan ta’sirini hisobga olsak, mineral moddalarni organizmga umumiylushidagi ulushi yuqori natijalarni tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, aholi o‘rtasida kuzatilgan kasalliklar ichimlik suv tarkibidagi uning mineral moddalari, organik birikmalari, suvning qattiqligiga bog‘liq emas, ammo bu mazkur hududda istiqomat qiluvchilar o‘rtasida suv bilan bog‘liq bo‘lgan yuqumsiz kasalliklarni suv tarkibiga bog‘liq emasligini bildirmaydi. Bu ayniqla bo‘qoq, metgemoglobinemiya, karies, flyuoroz, buyrak va o‘t –tosh kasalliklariga ta’luqlidir.

#### **IV-bob bo‘yicha xulosa**

Olib borilgan tadqiqotlarda aniqlandiki, Farg‘ona viloyati, jumladan Farg‘ona shahar aholisini markazlashtirilgan holda ichimlik suvi bilan ta’minlaydigan manbalar suvining minerallashganlik tarkibi me’yoriy hujjatlar normalaridan ancha yuqori. Iste’mol qilinadigan ichimlik suv tarkibini

kasallanishga ko‘rsatadigan ta’sirini hisobga olsak, mineral moddalarni organizmga umumiy tushishidagi ulushi 20% gacha bo‘lgan natijalarni tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, aholi o‘rtasida kuzatilgan kasalliklar ichimlik suv tarkibidagi uning mineral moddalari, organik birikmalari, suvning qattiqligiga bog‘liq emas, ammo bu mazkur hududda istiqomat qiluvchilar o‘rtasida suv bilan bog‘liq bo‘lgan yuqumsiz kasalliklarni suv tarkibiga bog‘liq emasligini bildirmaydi. Bu ayniqsa bo‘qoq, metgemoglobinemiya, karies, flyuoroz, buyrak va o‘t –tosh kasalliklariga ta’luqlidir.

Suv manbalarini muhofaza qilish muammolari va suv xo‘jaligi bo‘yicha jamoatchilik fikri holatini monitoringini O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-monitorigini yagona davlat tizimi sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Bu ikkita holat – umumiy va maxsus ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi. Umumiy holat bo‘lib, jamoat fikrining “hammabopligi”, uni turmush tarzining barcha sohalariga kirib borishi, odamlarning ijtimoiy munosabatlari hisoblanib, ular ko‘pincha bilimga ega bo‘lmasligi yoki ma’lumotlarni yetishmasligi sababli noto‘g‘ri aks ettiriladi. Bundan tashqari aholi fikri suvni muhofaza qilish muammolarini moliyalashtirishga ta’sir etuvchi o‘ta muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Suv muammolarining holati to‘g‘risidagi jamoat fikrini mos holda aks ettirilishi mutaxassislar uchun mintaqadagi suvni muhofaza qilish vaziyatini tavsiflovchi qo‘srimcha omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Suvni muhofaza qilish va suv ta’minoti muammolari bo‘yicha jamoat fikrini o‘rganish jarayonida shu narsa aniqlandiki, aholi o‘rtasida ichimlik suv ta’minoti bo‘yicha bir qator salbiy fikrlar mavjud bo‘lib, bular asosan suv yetkazib berishdagi uzilishlar, ichimlik suvi tarkibidagi mineral moddalar miqdorini gigiyenik me’yorlarga mos kelmasligi, suvdan foydalanish sharoitidagi noxush holatlar bilan namoyon bo‘ladi. Aholi o‘rtasida tashkil etilgan so‘rovnomada ishtirok etgan aksariyat aholi (63%) suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimi trubalarining holatini yomon deb baholadilar. O‘tgan yillardagi holatlar bilan solishtirilganda vaziyat yomonlashgan. Mazkur tarmoqlar trubalarining xolatini “ijobi” deb so‘rovnomada ishtirok etganlarning uchdan ikki qismi baholadilar. So‘rovnomada ishtirok

etganlarning uchdan bir qismi vodoprovod tizimi trubalari holatiga baho bermadilar. Vodoprovod tizimi trubalari holatini ijobiy deb baholanganlar 40%ni tashkil etsa, unga qarama qarshi fikr bildirganlar ham 29%ni tashkil etadi.

Olingan ma'lumotlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, Farg'ona shahrida istiqomat qiluvchi, so'rovnoma da ishtirok etganlarning 40% ni ta'kidlashicha, ular viloyat hukumat vakillari tomonidan shahardagi suv ta'minoti bo'yicha qanday ishlarni amalga oshirilayotganligi to'g'risida hech qanday tassavvurga ega emas. Istiqomat qiluvchilarning fikricha, ichimlik suvining sifati (ichimlik suvini tozalash usullarining ekologik xavfsizligi, ichimlik suv manbalarini ifloslanish darajasi) va suv ta'minoti va kanalizatsiya trubalari tizimining holati Hukumat tomonidan e'tiborni talab etuvchi, ichimlik suv ta'minoti tizimlarini eng ahamiyatli holati bo'lib hisoblanadi.

## XOTIMA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev geologiya sohasini yanada rivojlantirish, foydali ma’danlar va yer osti suv zaxiralarini kengaytirishga qaratilgan loyihamotlari bilan tanishish jarayonida suv tanqisligi mintaqamizdagi eng dolzarb muammolardan biri ekanligini, bunday sharoitda yer osti suvlarini oqilona ishlatish zarurligini ta’kidladi. Mutaxassislarining kuzatuv natijalari tahlili shuni ko‘rsatadiki, keyingi yillarda respublikamizda aholining ichimlik suv ta’minotini yaxshilash borasida keng ko‘lamda olib borilayotgan islohotlar, qishloq xo‘jaligining rivojlanishi, shahar va qishloqlar industriyasining kengayishi natijasida suvga bo‘lgan talab va ehtiyoj sezilarli darajada oshib bormoqda [49; 28-37-b, 51; 242-256-b, 52; 14-17-b, 64; 44-b.]. Shunday ekan, masalaning yechimini topish uchun nima qilmoq kerak? Albatta, har sohada innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, zamonaviy va tejamkor usullarni qo‘llash, ortiqcha sarf-xarajat va isrofgarchiliklarga yo‘l qo‘ymaslik muammoning yechimini topishda eng maqbul yo‘l ekanligini amaliyatda ko‘rib turibmiz. Davlatimiz rahbarining 2022 yil 28 yanvardagi 60 sonli farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid Davlat dasturida suv resurslarini boshqarish tizimini tubdan isloh qilish va suvni tejash bo‘yicha alohida vazifalar belgilanib, rejali foydalanish hisobiga kamida 7 milliard metr kub suvni iqtisod qilish nazarda tutilgani diqqatga sazovor, albatta. Bu esa kelajak avlod uchun suv resurslarining kafolatli istiqboli borligini anglatadi. Bu borada mamlakatimizda yer osti suvlari sifatini yaxshilash, undan oqilona foydalanish, ularni kamayish hamda ifloslanishdan himoya qilish bo‘yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Binobarin, aholi salomatligi va umr ko‘rish davomiyligini oshirishda yer osti suvlari sifati alohida ahamiyatga ega. Hozirgi kunda insoniyat oldida turgan eng dolzarb muammolardan biri bu mavjud tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularga salbiy ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish hisoblanadi [69; 265-268-b, 70; 45-47-b.]. Shunga ko‘ra, so‘nggi yillarda dunyo miqyosida barcha jabhalarda atrof-muhit muhofazasi masalasi alohida o‘rin tutmoqda. Oxirgi 40-50 yilda sanoat

va qishloq xo‘jaligining jadal rivojlanishi chuchuk yer osti suvlari holatiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi [140,141,142.]. Bu esa, o‘z navbatida, suv olish inshootlarining qurilishini tartibga solish va suvdan foydalanishni nazoratsiz qoldirish oqibatida yer osti suv manbalaridagi zaxiralarning sezilarli qisqarishiga olib keldi. Bu borada Prezidentimizning 2017 yil 4 maydagi “2017-2021 yillarda yer osti suvlari zaxiralaridan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori muhim huquqiy asos bo‘ldi. Zero, hujjatda ushbu yo‘nalishdagi muammolarni bartaraf etishga oid ustuvor vazifalar belgilab berildi. Shundan so‘ng, ya’ni 2017 yil 27 iyunda Vazirlar Mahkamasining “Yer osti suvlaridan foydalanish sohasidagi faoliyatni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019 yil 12 aprelda “2015-2030 yillarda tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish maqsadida Senday hadli dasturi”ni O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda 2021 yil 8 yanvarda “Yer osti suvlaridan foydalanishga oid ruxsat etuvchi hujjatlarni berish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilindiki, ularda belgilangan vazifalar ijrosi birin-ketin ta’milanayotgani hisobiga bu boradagi ijobiy o‘zgarishlarga zamin yaratilyapti. Yer osti suvlarining hosil bo‘lish jarayoni qanday kechadi? Shu o‘rinda yer osti suvlari qanday paydo bo‘ladi, degan savolga javob berib o‘tsak. Ilmiy manbalarga ko‘ra, yer osti suvlari yer qobig‘ining yuqori qismidagi tog‘ jinslari qatlamlarining g‘ovak bo‘shliqlarida suyuq, qattiq (muz), bug‘simon holatda bo‘ladi [34; 16-19-b, 56; 12-17-b, 70; 45-47-b, 126; 5-10-b.]. Ular umumiy suv resurslarining bir qismi bo‘lib, suv ta’mnoti va sug‘orish manbai sifatida xalq xo‘jaligi uchun katta ahamiyatga ega. Sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holati grunt suvlarining sathi bilan belgilanadi. Yer osti suvlarining umumiy qonuniyatini gidrogeologiya fani o‘rganadi. Suv molekulyar kuchlar tutib turadigan bog‘langan hamda og‘irlik kuchi yoki gidravlik bosim ta’sirida harakatda bo‘ladigan gravitatsion yoki erkin holatda bo‘lishi mumkin. Bog‘lanmagan suv bilan to‘yingan tog‘ jinslari qatlamlari suvli gorizont deyiladi. Ular suvli komplekslarni hosil qiladi. Kelib chiqishiga ko‘ra, yer osti suvlari tabiiy yog‘inlar, daryo va sug‘orish suvlarining shimalishi, tog‘ jinslari qatlamlarida suv bug‘larining

quyuqlashuvi, cho‘kindi tog‘ jinslari paydo bo‘lish jarayonida dengiz suvlarining ko‘milib qolishi natijasida hosil bo‘ladi. Yer osti suvlarining yer yuziga tabiiy chiqishi buloq (chashma) deyiladi. Rivojlanish tejamkorlikka bog‘liq Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga bog‘liq. Bunda aholining maishiy va xalq xo‘jaligining ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur bo‘lgan suv resurslari alohida ahamiyat kasb etadi. Sanoat ishlab chiqarish va qishloq xo‘jaligi taraqqiyotining jadallahuvi, aholining zamon talabi bo‘yicha hayot tarziga moslashishi ehtiyojning ortib borishiga olib kelmoqda [74; 186-189-b, 78; 316-323-b, 118; 2172-b.]. Dunyoning qurg‘oqchil iqlimli va yer usti suvlari kam aksariyat mamlakatlarida qishloq xo‘jaligi ekinlarini sug‘orishda yer osti suvlaridan keng foydalaniladi. Xususan, AQShning g‘arbiy shtatlarida, Avstraliya, Hindiston, Xitoy, Isroil kabi davlatlarda yer osti suvlaridan katta miqdorda foydalaniladi. Yer osti suvlari O‘zbekiston suv resurslarining tarkibiy qismi bo‘lib, uning zaxirasi dinamik va statistik jihatdan farqlanadi. Xo‘jalikda foydalanish uchun yaroqli bo‘lgan yer osti suvlarini respublikamizning barcha hududlarida mavjud bo‘lib, uning 2/3 qismi tog‘lar yotqiziqlarida, 1/3 qismi esa tekislik hududida tarqalgan. Yer osti suvlari bosimsiz va bosimli (artezian suvlar) turlarga bo‘linadi. Bosimsiz yer osti suvlarini yer yuzasiga yaqin joylashgan birinchi suvli qatlamlarda tarqalgan, bosimli yer osti suvlarini esa chuqur gorizontlarda ikkita suv o‘tkazmaydigan qatlam o‘rtasida joylashgan bo‘ladi. Hozirgi kunga kelib, dunyo miqyosida bajarilishi zarur bo‘lgan ekologik masalalar talaygina. Shularning eng asosiyalaridan biri yer osti suvlarini muhofaza qilishdir. Zero, yer osti suvlarini aholini sifatli ichimlik suv bilan ta’minlashda asosiy manba hisoblanadi. Yer osti chuchuk suv manbalariga salbiy ta’sir etuvchi tabiiy va texnogen omillarni, oqim yo‘nalishi va harakatini aniqlash hamda uning atrof-muhitga ta’sir darajasini puxta o‘rganish zarur [140,141,142.]. Demak, mayjud muammoni hal qilishda fandagi izlanish, tadqiqot olib borish bilan birga, ilmiy tahlil qilishni ham taqozo etadi. Tabiiy holatdagi yer osti suvining ifloslanishi muayyan bir joyda sodir bo‘lmasdan, balki o‘z (oqimi) harakat qonunlariga ega. Bu holat butun bir tabiiy muhitga salbiy ta’sir etib, suvning biologik, fizik hamda kimyoviy tarkibi o‘zgarib ketishi mumkin.

Bu hududning gidrogeologik qatlamini, gidrosfera va uning tabiiy holatini o‘zgartirib yuboradi. Shu bilan birga, yer osti suvlarining biologik, fizik hamda kimyoviy tarkibini o‘rganish, normada belgilangan me’yor bo‘yicha nazorat qilib borish asosiy masala sanaladi. Chunki davlat miqyosida olib borilayotgan siyosat insonning ichimlik suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, uning salomatligini saqlash borasida mineral suvlardan (tibbiyotda) tizimli foydalanish samaradorligini oshirish, yuqorida keltirilgan muammo yechimini topishdagi dolzarb masalalardan biridir. Izlanishlardan ma’lum bo‘lishicha, bugungi kunda dunyo miqyosida sanoat ob’ektlarining oqava suvlarini chiqarish bo‘yicha yillik ko‘rsatkichi eng ko‘p kimyo sanoatida-35 %ni, qora metallurgiya sanoatida 19 %, mashinasozlik sanoatida 13 %, rangli metallurgiya sanoatida 11 %ni tashkil qilmoqda. Bunday tashlanmalar ham yer osti suvlarini zaxirasiga salbiy ta’sir qilishi mumkin. Bundan ko‘rinadiki, mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish, ularga salbiy ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va bartaraf etish har bir insonning fuqarolik burchi, desak adashmagan bo‘lamiz. Geologik muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatish ko‘lami, shubhasiz, iqtisodiyot tarmog‘ining sanoat ob’ektlariga tegishli bo‘lib, unda ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati turli zaharli moddalarni o‘z ichiga olgan qattiq, suyuq va gaz holatdagi sanoat chiqindilari ta’siri bilan bog‘liq. Juhon amaliyotida geologik muhitning ifloslaniruvchi moddalar ta’sirida ifloslanish darajasini baholash, bashorat qilish, gidrogeologik va geoekologik ishlarni olib borish masalalari doim dolzarb muammo bo‘lib kelgan [127; 6059-b.]. Shu ma’noda, sanoat ob’ektlari ta’sirida yer osti suvlarini manbalarigacha bo‘lgan har bir qatlamning geologik turi, gidrogeologik va donadorlik tarkibi, qalinligi, geometrik holati hamda suvli qatlam chegaralarida salbiy jarayonlarning rivojlanish jadalligi va yo‘nalish xususiyatlarini o‘rganish, undagi o‘zgarishlarni baholash va zarur chora-tadbirlar ishlab chiqish dolzarbdir. Yer osti suvlarining tabiiy va inson omili tomonidan muhofaza qilinishi, hududlarning ekologik va gidrogeologik sharoitlari hamda ekologik-gidrogeologik muhofazalanish darajasini nazariy hamda amaliy jihatlarini o‘rganish birgina gidrogeologiya fani muammosi emas. Bu butun insoniyat uchun ham tegishli dolzarb hayot masalasidir.

**Tadqiqotning ob'ekti** Maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda bizlar tomonimizdan Farg'ona viloyati va shahar aholisini markazlashtirilgan va mahalliy suv ta'minoti holati, aholini suv bilan bog'liq holatdagi shikoyatlari va fikr mulohazalari va aholining suv bilan bog'liq bo'lган kasallanish holati hamda aholi o'rtaсидаги ichimlik suviga bog'liq turli yuqumli va somatik kasalliklarga uchrash holati o'r ganildi. Aholiga markazlashtirilgan holatda yetkazib beriladigan suv "Farg'ona suv ta'minot" Farg'ona shahar bo'limi idoraviy laboratoriyasini "Ichimlik suvi laboratoriyasi", Farg'ona shahar sanitar epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati sanitat-gigiyena bo'limi qoshidagi gigiyena laboratoriyasi bilan hamkorlikda ichimlik suvining organoleptik, sanitartoksikologik, mikrobiologik ko'rsatkichlari o'r ganildi va baholandi. Buning uchun bizga ma'lum bo'lган suv tozalash, suvgaga bosim berish va yetkazib berish tizimlari sanitar tekshiruvdan o'tkazildi. Bunda har bir artezian qudug'i (Pakana-Log'on bosh inshootida, jami bo'lib 68 ta, shahar ichi 43 ta) quyidagi karta asosida o'r ganildi: 1) Aholi puktning nomi; 2) Aholi puktiga nisbatan quduqni joylashgan o'rni, bunda quyidagi elementlarga alohida e'tibor qaratildi-burg'uli quduqning tipi, quduqni aholi punktining ichida yoki undan tashqarida joylashganligi, quduqning chuqurligi, quduqni profilaktik va davriy tekshirishlar muddati, quduqning ichki va tashqi tomonlarini sanitar holati, quduqdan suvni olish usuli, quduqni turar joy binolaridan uzoqlik masofasi; 3) quduq atrofida ifloslantiruvchi manbalarning mavjudligi, quduq bilan ifloslantiruvchi manba o'rtaсидаги tuproqning holati; 4) quduqdagi suvning kunlik sarfi; 5) mazkur quduqdan foydalanuvchi aholi o'rtaсида suv bilan bog'liq bo'lган yuqumli va noyuqumli kasalliklarni uchrash soni; 6) umumiyl xulosa va quduqdan foydalanish sharoitini optimallashtirish bo'yicha amaldagi va rejalahtirilgan chora tadbirlar majmuasini ishlab chiqish.

Aholini markazlashtirilgan holda ichimlik suv manbalari orqali vodoprovod suvi bilan ta'minlashda mavjud bo'lган suv manbalari va suv tozalash stantsiyalari, suv yetkazib beruvchi tarmoqlarni sanitar tekshirish uch xil yo'nalishda olib boriladi:

1. Sanitar -topografik tekshirish.

2. Sanitar-texnik tekshirish.
3. Sanitar –epidemiologik tekshirish.

Mazkur usullar ham ochiq, ham yer osti suv manbalari uchun bir xilda joriy etilsada, ammo ularni o‘ziga xos bo‘lgan tomonlari ham mavjud.

Yirik aholi punktlarini markazlashtirilgan holda ichimlik suvi bilan ta’minlashda manba sifatida aksariyat hollarda ochiq suv manbalari tanlab olinadi. Ammo Farg‘ona shahri kabi vodiy sharoitida tashkil etilgan yirik shaharlarni sifatli ichimlik suvi bilan ta’minlashda yer osti suv manbalari tanlab olinadigan xollarda ularga qo‘yiladigan qat’iy talablar albatta inobatga olinishi lozim. Buning uchun albatta mazkur yer osti suv manbalarini organoleptik, kimyoviy, bakteriologik, radiologik ko‘rsatkichlari gigiyenik talablar bo‘yicha DavST 950:2011 talablariga mos kelishi lozim. Ichimlik suvi va suv ta’minoti manbalari sifatini baholash natijasida aholining salomatlik holatiga suvning u yoki bu komponentini ta’sir etishi mumkinligi to‘g‘risidagi ishchi gepoteza ishlab chiqildi. Uni tasdiqlash uchun o‘rganilgan suv manbalari joylashgan tumanda istiqomat qiluvchi aholidagi kasallanish holati o‘rganiladi. Uni o‘rganishga tibbiy yordamga murojaatlar va aholining o‘limi holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish, nozologik shakllarni mayda qismlargacha o‘rganish asosida erishiladi. Suvda bir qator kimyoviy moddalarni haddan tashqari ko‘p bo‘lishi yoki ularning miqdorini me’yordan kam bo‘lishi odam organizmida jiddiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirib, katta muammolarni sababiga aylanib qolishi mumkin. Shuning uchun ichimlik suv tarkibida mazkur moddalarni me’yordan ortiqcha bo‘lishi yoki kam bo‘lish holatlari aniqlanganda aholini salomatlik ko‘rsatkichlarida yuzaga keladigan o‘zgarishlar albatta nazorat olinishi va doimiy ravishda monitoring qilib borilishi lozim.

Aholining kasallanish holati to‘g‘risida to‘plangan barcha ma’lumotlar puxta o‘rganilishi va statistik qayta ishlanishi lozim. Kasalliklarning mavjudligini konstatatsiyasi doim ham uni suv bilan bog‘liqligidan guvohlik bermaydi. Shuning uchun suv bilan bog‘liq bo‘lgan epidemik holatlarni bilish uchun ularni kechishini o‘ziga xosliklarini aniqlash va bilish nihoyatda muhim. Salomatlik holatiga suvning kimyoviy ifloslantiruvchilarining ta’sirini o‘rganishda, 14 yoshgacha bo‘lgan

bolalarni tekshirish, kelib chiqishi suv bo‘lgan yuqumli omillar o‘rganilganda esa— bolalar, o‘smirlar va katta yoshli aholi o‘rtasida tekshirishlar olib borilishi kerak. Farg‘ona gidrogeologiya stantsiyasi tomonidan olib borilayotgan monitoring kuzatuv ishlari natijasiga muvofiq, so‘nggi yillarda Isfara yer osti suv manbasining to‘yinish qismida joylashgan 457-sonli kuzatuv qudug‘i suvining umumiyligi qattiqligi me’yordan ikki baravarga oshib ketgan. Xozirgi kunda Besariq shahrini ichimlik suv bilan ta’minlovchi “Olmazor” markaziy suv olish inshootida olinayotgan suvning umumiyligi belgilangan me’yordan ( $10\text{mg-ekv/l}$ ) oshib ketganligi sababli foydalanishdan chiqish arafasida. Yuqoridagi holatlarni hisobga olgan holda, mazkur yer osti suv manbasining tegishlicha qismida yer osti suvlarini muhofaza qilishga qaratilgan choralarini qo‘llash masalasi hozirda umumxalq muhokamasida bo‘lgan (ID 65078, 01.08.2022y.), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Er osti chuchuk suv resurslarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanishni tartibga solish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” qarori loyihasi bilan nazarda tutilgan. Shu bilan birga, Isfara yer osti suv manbasida kuzatilayotgan ifloslanish jarayonini to‘xtatish va suv sifatini tiklash maqsadida, sug‘orish mavsumidan tashqari davrda samarasiz oqib o‘tayotgan Norin daryosining chuchuk suvlari hisobiga konni sun’iy to‘yintirishni asoslash bo‘yicha gidrogeologik tadqiqotlar boshlangan.

Oltiariq-Besholish yer osti suv manbasi Farg‘ona viloyatining markaziy qismida joylashgan bo‘lib, asosan Oltiariq, Quva, Yozyovon, Toshloq, Qo‘shtepa tumanlari xo‘jalik-ichimlik suv ta’minoti va boshqa maqsadlar uchun foydalaniladi. Kon bo‘yicha bashoratlangan zaxiralalar 2492.6 ming metr kub/kunni tashkil qilib, shundan 285.1 ming metr kub/kunisi (11 foizi) mineralizatsiyasi  $1,0 \text{ g/l}$  gacha bo‘lganidir. Tegishlicha topshiriqlarga muvofiq dastlab olib borilgan gidrogeologik tadqiqotlar natijasi bilan 2022 yil 1 yanvar holatiga kon bo‘yicha jami 209.49 ming metr kub/sut miqdoridagi yer osti suv zaxiralari turli maqsadlarda foydalanish uchun tasdiqlangan. Mazkur suv manbasining to‘yinish manbai asosan Shoximardonsov hamda Isfayramsov hisoblanadi. Ushbu soylar suvi sifati qoniqarli, ya’ni mineralizatsiyasi  $1 \text{ g/l}$  gachani tashkil etadi. Lekin, texnogen

omillar ta'sirida (Janubiy Farg'ona adirliklarining o'zlashtirilishi, Karkidon suv ombori faoliyati) konning janubiy qismlaridagi ba'zi mavjud zahiralar sifati o'zgarib, ichimlikka yaroqsiz holga kelgan. Xususan, Oltiariq va Toshloq yer osti suv olish inshootlari bo'yicha muvofiq ravishda dastlab tasdiqlangan 55,0 va 12,8 ming metr kub/kun miqdoridagi ichimlik suv zaxiralaring sifati me'yordan 1,5 baravargacha oshib ketgan. Yuqoridagi holatni hisobga olgan holda, 2021 yilda Oltiariq hamda Toshloq tuman markazlari ichimlik suv ta'minoti uchun yangi uchastkalarda muvofiq ravishda 2,41 va 6,0 ming metr kub/kun miqdorida yer osti ichimlik suv zaxiralari tasdiqlanib, foydalanishga topshirildi.

Chimyon-Avval yer osti suv manbasi viloyatning sharqiy qismida joylashgan bo'lib, asosan Quvasoy shahri va Farg'ona tumanining xo'jalik-ichimlik hamda boshqa maqsadlari uchun foydalaniladi. Chimyon-Avval yer osti suv manbasining asosiy to'inish manbai Shoximardonsov hamda Isfayramsov daryolari hisoblanadi. Suv manbasi bo'yicha bashoratlangan zahiralar 1226 ming metr kub/kunni tashkil qilib, shundan 518.4 ming metr kub/kunisi (42 foizi) mineralizatsiyasi 1,0 g/l gacha bo'lganidir. Tegishlicha topshiriqlarga muvofiq dastlab olib borilgan gidrogeologik tadqiqotlar natijasi bilan 2022 yil 1 yanvar holatiga suv manbasi bo'yicha jami 34.67 ming metr kub/sut miqdoridagi yer osti suv zahiralari turli maqsadlarda foydalanish uchun tasdiqlangan.

Farg'ona shahri eng yirik ichimlik suv ta'minoti manbai bo'lgan "Pakana-Log'on xamda Avval" suv olish inshootlari bo'yicha 7.04.1990 Davlat zahiralari komissiyasi tomonidan 504.1 ming metr kub/sut miqdorida yer osti suv zahiralari tasdiqlangan. Mazkur Pakana Log'on suv olish inshooti yer osti suvlarining sifati xam dastlabki tasdiqlangan davrga nisbatan o'zgarishi kuzatilmogda.

Yormazor yer osti suv manbasi viloyat markazida, adirlik oraliq cho'kmasida joylashgan bo'lib, undagi sifatli suv resurslari tarqoq bo'lganligi sababli ichimlik maqsadlarida foydalanish uchun istiqbolli hisoblanmaydi. Suv manbasining bashoratlangan zahiralari 604.8 ming metr kub/kunni tashkil qilib, shundan 252.3 ming metr kub/kunisi (42 foizi) mineralizatsiyasi 1,0 g/l gacha bo'lGANI hisoblanadi. 2022 yil 1 yanvar holatiga suv manbasi bo'yicha jami 3.0 ming metr kub/sut

miqdoridagi yer osti suv zahiralari turli maqsadlarda foydalanish uchun tasdiqlangan.

Bugungi kunda Farg‘ona viloyati hududida yer osti suvlari davlat monitoringi doirasida viloyat bo‘yicha mayjud 331 ta kuzatuv, 150 ta ekspluatatsion quduqlarida va 7 ta buloqlarda doimiy ravishda mavjud suv resurslarining sifati va miqdori o‘zgarishi kuzatilib, holati baholanib borilmoqda. Bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlar hamda natijalari yuzasidan axborot belgilangan tartibda har chorak yakuni bilan O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish davlat qo‘mitasiga kiritilib borilmoqda.

Farg‘ona shahar aholisini markazlashtirilgan holda ichimlik suvi bilan ta’minlash holatini o‘rganish natijasida shunday xulosaga kelindi: shahar suv olish manbalari antropogen (ishlab chiqarish korxonalari, qishloq xo‘jaligi) ifloslanishga uchraydi va tarkib bo‘yicha gigiyenik talablarga mos kelmaydi; foydalaniladigan yer osti suv manbalaridan olingan suvlar maxsus tozalash usullari (temirsizlantirish, chuchuklashtirish, yumshatish) bilan tozalanmaydi; xususiy suv olish uchun mo‘ljallangan yer osti burg‘uli quduqlari normativ-huquqiy aktlardagi sanitar talablarni hisobga olmagan holda rejalashtirilgan va tashkil etilgan. Bularning barchasi esa Farg‘ona shahar aholisini markazlashtirilgan ichimlik suv bilan ta’minlanish holatini salbiy tomonga o‘zgarib borishiga va aholi o‘rtasida ichimlik suv bilan bog‘liq bo‘lgan yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni uchrash sonini ortishiga olib keladi.

Hozirgi kunda mazkur suv manbasidan xo‘jalik-ichimlik suv manbasi sifatida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, buning uchun maxsus suv tayyorlash usullarini qo‘llash zarur. Markazlashtirilgan holda yetkazib beriladigan yer osti suv manbalarini ifloslantiruvchi asosiy manbalarga atmosfera yog‘ingarchilik suvlarini infiltratsiyasi; shahardagi qurilish zichligining yuqoriligi; avtovtransport; shahar hududida mavjud bo‘lgan va faoliyat olib borayotgan ishlab chiqarish korxonalari, ilgari qishloq xo‘jalik maqsadida foydalanilgan yer maydonlaridan turar joy binolarini qurish maqsadida foydalanish; aholi va ishlab chiqarish korxonalaridan

xosil bo‘layotgan chiqindilarni noto‘g‘ri saqlash, olib ketish, zararsizlantirish, chiqindi suvlarni tozalamasdan tashlash holatlarini kiritish mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlarda aniqlandiki, Farg‘ona viloyati, jumladan Farg‘ona shahar aholisini markazlashtirilgan holda ichimlik suvi bilan ta’minlaydigan manbalar suvining minerallashganlik tarkibi me’yoriy hujjatlar normalaridan ancha yuqori. Iste’mol qilinadigan ichimlik suv tarkibini kasallanishga ko‘rsatadigan ta’sirini hisobga olsak, mineral moddalarni organizmga umumiyl tushishidagi ulushi 20% gacha bo‘lgan natijalarni tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, aholi o‘rtasida kuzatilgan kasallanish holatlarining yuqori ko‘rsatkichlari ichimlik suv tarkibidagi uning mineral moddalari, organik birikmalari, suvning qattiqligi bilan bog‘liq emas, ammo bu mazkur hududda istiqomat qiluvchilar o‘rtasida suv bilan bog‘liq bo‘lgan yuqumsiz kasalliklarni suv tarkibiga bog‘liq emasligini bildirmaydi. Bu ayniqsa bo‘qoq, metgemoglobinemiya, karies, flyuoroz, buyrak va o‘t-tosh kasalliklariga ta’luqlidir.

Suv manbalarini muhofaza qilish muammolari va suv xo‘jaligi bo‘yicha jamoatchilik fikri holatini monitoringini O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy-monitorigini yagona davlat tizimi sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Bu ikkita holat – umumiyl va maxsus ko‘rsatkichlar bilan aniqlanadi. Umumiyl holat bo‘lib, jamoat fikrining “hammabopligi”, uni turmush tarzining barcha sohalariga kirib borishi, odamlarning ijtimoiy munosabatlari hisoblanib, ular ko‘pincha bilimga ega bo‘lmasligi yoki ma’lumotlarni yetishmasligi sababli noto‘g‘ri aks ettiriladi. Bundan tashqari aholi fikri suvni muhofaza qilish muammolarini moliyalashtirishga ta’sir etuvchi o‘ta muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Suv muammolarining holati to‘g‘risidagi jamoat fikrini mos holda aks ettirilishi mutaxassislar uchun mintaqadagi suvni muhofaza qilish vaziyatini tavsiflovchi qo‘srimcha omil bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Suvni muhofaza qilish va suv ta’minoti muammolari bo‘yicha jamoat fikrini o‘rganish jarayonida shu narsa aniqlandiki, aholi o‘rtasida ichimlik suv ta’minoti bo‘yicha bir qator salbiy fikrlar mavjud bo‘lib, bular asosan suv yetkazib berishdagil uzilishlar, ichimlik suvi tarkibidagi mineral moddalar miqdorini gigiyenik

me’yorlarga mos kelmasligi, suvdan foydalanish sharoitidagi noxush holatlar bilan namoyon bo‘ladi. Aholi o‘rtasida tashkil etilgan so‘rovnoma da ishtirok etgan aksariyat aholi (63%) suv ta’mnoti va kanalizatsiya tizimi trubalarining holatini yomon deb baholadilar. O‘tgan yillardagi holatlar bilan solishtirilganda vaziyat yomonlashgan. Mazkur tarmoqlar trubalarining xolatini “ijobiy” deb so‘rovnoma da ishtirok etganlarning uchdan ikki qismi baholadilar. So‘rovnoma da ishtirok etganlarning uchdan bir qismi vodoprovod tizimi trubalari holatiga baho bermadilar. Vodoprovod tizimi trubalari holatini ijobiy deb baholanganlar 40%ni tashkil etsa, unga qarama qarshi fikr bildirganlar ham 29%ni tashkil etadi.

Olingen ma’lumotlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, Farg‘ona shahrida istiqomat qiluvchi, so‘rovnoma da ishtirok etganlarning 60%ni ta’kidlashicha, ular viloyat hukumat vakillari tomonidan shahardagi suv ta’mnoti bo‘yicha qanday ishlarni amalga oshirilayotganligi to‘g‘risida hech qanday tassavvurga ega emas. Istiqomat qiluvchilarning fikricha, ichimlik suvining sifati (ichimlik suvini tozalash usullarining ekologik xavfsizligi, ichimlik suv manbalarini ifloslanish darajasi) va suv ta’mnoti va kanalizatsiya trubalari tizimining holati Hukumat tomonidan e’tiborni talab etuvchi, ichimlik suv ta’mnoti tizimlarini eng ahamiyatli holati bo‘lib hisoblanadi.

Aholini ichimlik suv standarti talablariga javob beradigan suv bilan ta’minalash muammosini hal etish, iqtisodiy mexanizmlarni, boshqaruv tizimlarini takomillashtirish, suv manbasi—suv tayyorlash—suvni tashish—mahalliy suv tozalash inshooti—iste’molchilardan tashkil topgan uzilmas zanjirdagi aniq texnik vazifalarni hal etishga majmuaviy yondoshish qonunchilik bazasini yaratish asosida qurilishi kerak. Barcha ko‘rsatilgan yo‘nalishlarni bir vaqtida amalga oshirishni ob’ektiv imkonsizligidan kelib chiqsak, aholini ichimlik suv bilan ta’minalash siyosati strategik maqsadlarni aniqlash tamoyillariga asoslanishi lozim, unga barcha suv xo‘jalik faoliyati, shuningdek qisqa va uzoq muddatli davr vazifalari keltirilishi lozim.

Yuqorida qo‘yilgan vazifalarni bajarish faqat mahalliy maqsadli dasturlarni qabul qilish bilan amalga oshiriladi. Mahalliy o‘z o‘zini boshqarish organlari

tomonidan qabul qilingan shoshilinch chora tadbirlar mahalliy tartibda o‘rnatilgan moliyalashtirish va mintaqaviy dasturlarga kiritilishi mumkin. Qo‘yilgan vazifalarni bajarish bosqichli amalga oshirilishi va chora tadbirlar majmuasini amalga oshirishga asoslanishi lozim, uni esa quyidagi umumlashtirilgan bloklar ko‘rinishida tassavvur etish mumkin: sanitar himoya mintaqasini tashkil etish va undan to‘g‘ri foydalanish; suv ob’ektlarining monitoringi, unda olib boriladigan sanitar-epidemiologik nazorat; suv ta’minoti muammolari bo‘yicha ma’lumotlar bazasi va informatsion tizimni yaratish va to‘g‘ri yuritish; aholini yuqori sifatli ichimlik suvi bilan ta’minalash uchun ilmiy-ishlab chiqilgan, moliyaviy iqtisodiy va tashkiliy-xo‘jalik tavsifidagi chora tadbirlarni qo‘llash.

Ichimlik suv ta’minotining mintaqaviy gigiyenik menejment tizimi shuningdek ushbu muhim bo‘lgan sanitar, muhandislik va tibbiy-ijtimoiy soha kabi o‘ta muhim bo‘lgan xizmatlar bozorini yaratishga sabab bo‘ladi, ularsiz esa aholini sanitar epidemiologik jihatdan ishonchli ichimlik suv bilan ta’minalashning imkonii mavjud emas.

Ichimlik suv ta’minoti menejmenti tizimi suv manbalaridan foydalanish, suv tayyorlash va ichimlik suv taqsimotidan foydalanishning butun tizimini o‘z ichiga oladi. Menejmentda ishtirok etib borish va aholini ichimlik suvi bilan ta’minalash tizimini yaxshilash uchun viloyatning suv ta’minoti tizimiga aloqasi bo‘lgan barcha yetakchi mutaxasislar jalb etiladi.

Shunday qilib, Farg‘ona shahar hududida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta’minalashni optimallashtirish bo‘yicha taklif etilgan chora tadbirlar nafaqat ushbu sohadagi vaziyatni yaxshilashga imkon beradi, balki gigiyenik menejmentni joriy etish hisobiga uni ekologik-iqtisodiy samaradorligini baholashga va uni amaliyotga joriy etishdagi yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan zararning ehtimolligini hisoblashga imkon beradi.

## XULOSALAR

“Aholini suv bilan ta’minlashni optimallashtirishning ekologo-gigiyenik jihatlari (Farg‘ona shahri misolida)” mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Farg‘ona shahri aholisini markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta’minlashda kelgusida shaharda mavjud bo‘lgan suv tozalash inshootlarining quvvati yetarli bo‘lmaydi, bu esa aholini ichimlik suvi bilan ta’minlash uchun boshqa alternativ variantlarni izlash, loyihalashtirish va yechimini topishni taqazo qiladi. Farg‘ona shahar aholi yashash hududida tarqoq joylashgan yer osti suv manbalaridan olingan suvlar maxsus tozalash usullari bilan tozalanmaydi va to‘g‘ridan to‘g‘ri aholiga ichimlik suvi sifatida uzatiladi. Bularning barchasi esa aholini markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta’minlanish holatini salbiy tomonga o‘zgarishi va aholi o‘rtasida ichimlik suvi bilan bog‘liq bo‘lgan yuqumli va yuqumsiz kasallikkarni uchrash sonini ortishiga olib keladi.

2. Suvni muhofaza qilish va suv ta’minoti muammolari bo‘yicha jamoat fikrini o‘rganishda, aholi orasida ichimlik suv ta’minoti bo‘yicha bir qator salbiy fikrlar mavjud bo‘lib, bular asosan suv yetkazib berishdagi uzilishlar, ichimlik suvi tarkibidagi mineral moddalar miqdorini gigiyenik me’yorlarga mos kelmasligi, suvdan foydalanish sharoitidagi noxush holatlar bilan namoyon bo‘ldi. Aholining 63% suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimi trubalarining holatini yomonligi, vodoprovod quvurlari holating sifatsizligini ta’kidlangan. Aholining fikricha, ichimlik suvi sifati ichimlik suvini tozalash usullarining ekologik xavfsizligi, ichimlik suv manbalarini ifloslanish darajasi va suv ta’minotining sifati pastligini ko‘rsatib turibdi.

3. Farg‘ona viloyatidagi ijtimoiy rivojlanishlar va sog‘liqni saqlash sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish natijasida demografik vaziyatdagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatildi: tug‘ilish koeffitsienti 2000 yilga nisbatan 2020 yilda 47,9 ga oshdi, o‘lim esa 8,9% ga kamaydi. Bolalarda uchraydigan birlamchi kasallanish ko‘rsatkichlari orasida birinchi o‘rinni nafas tizim kasalliklari; teri va teri osti klechatka kasalliklari, ovqat hazm qilish organ kasalliklari, buyrak-tosh

kasalliklari, keyingi o‘rnlarni nerv tizim kasalliklari, endokrin tizim kasalliklari egallaydi. Buning asosiy ortishi asosan suvning sifat ko‘rsatkichi bilan bog‘liqligini ko‘rsatadi.

4. Birlamchi kasallanish dinamikasida kattalarda o‘sishga nisbatan turg‘un tendentsiya, o‘smirlarda o‘sishga nisbatan o‘rtacha tendentsiya, bolalarda o‘sishga nisbatan kuchli tendentsiya kuzatildi. Tadqiqot yillarida 2018-2020 yillar davomida kasallanishning yillik o‘sish sur’ati bolalarda -2,1% ni, o‘smirlar orasida esa 4,4% ni hamda kattalar orasida 0,5% ni tashkil qilgan. Bu salbiy holat asosan o‘smirlar orasida qayd qilinishi, keyinchalik ishlovchi aholi orasida salbiy omillar va nogironlik holatini rivojlanishiga sharoit yaratadi.

5. Farg‘ona shahar aholisiga markazlashtirilgan holda yetkazib beriladigan yer osti suv manbalari suvi tarkibining makro va mikroelementlar muvozanatini aholi salomatligiga salbiy ta’siri baholangan. Kasallanish holati o‘smirlar va kattalar orasida buyrak tosh kasalliklarining soni keskin ortishi qayd qilingan.

6. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlashni amalga oshirish maqsadida sanitar himoya mintaqasini tashkil etish va undan to‘g‘ri foydalanish, suv ob’ektlarining monitoringi, unda olib boriladigan sanitar-epidemiologik nazoratini pastligi, suv ta’minoti muammolari bo‘yicha ma’lumotlar bazasi va informatsion tizimi yaratilmagan.

## **AMALIY TAVSIYALAR**

Farg‘ona shahar aholisini ichimlik suv ta’minoti DavST va SanNvaQ larga mos emasligini hisobga olib, ichimlik suv ta’minotini optimallashtirishning ekologo-gigiyenik jihatlari borasida quyidagi tavsiyalar taqdim etiladi:

- Muntazam ravishda aholi soni o‘sib borayotgan Farg‘ona shahar aholisini markazlashtirilgan holda sifatli ichimlik suvi bilan ta’minalash uchun yangi alternativ manbalarni izlash va ularni amalga oshirish uchun loyihalar ishlab chiqish
- Farg‘ona shahar aholisini ichimlik suvi bilan ta’minlovchi mavjud bo‘lgan burg‘uli quduqlarda muntazam ravishda profilaktik sanatsiya ishlari olib borish
- Burg‘uli quduqlardan foydalanish sharoitini oqilona tashkil etish va ularda davriy hamda profilaktik ta’mirlash ishlarini olib borish
- Aholining hayot sifatini oshirish maqsadida suv bilan bog‘liq bo‘lgan kasalliklarni oldini olishga qaratilgan sanitar-texnik, profilaktik chora tadbirlarni keng miqyosda hayotga tadbiq etish.
- Aholi o‘rtasida suv bilan bog‘liq bo‘lgan va bog‘liq bo‘lmagan kasalliklarni oldini olish maqsadida sanitar-maorif ishlarini olib borish.
